

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ABDUHAMID NURMONOV

**STRUKTUR
TILSHUNOSLIK:
ILDIZLARI VA
YO'NALISHLARI**

*Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan 5A141101-o'zbek
tili magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lif olayotgan
magistrantlar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**«TA'LIM» NASHRIYOTI
TOSHKENT — 2009**

Mas'ul muharrir:

A. Sobirov — filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

S.Ashirboev — filologiya fanlari doktori, professor,

Sh.Shahobiddinova — filologiya fanlari doktori

Nurmonov, Abduhamid.

Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari: 5A141101-o'zbek tili magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistrantlar uchun o'quv qo'llanma/A.Nurmonov; Mas'ul muharrir A. Sobirov; O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: Ta'lim, 2009. — 160 b.

Markur o'quv qo'llanmada an'anaviy va struktur tilshunoslik hamda ular o'rtasidagi munosabat, struktur tilshunoslikning kelib chiqishi, uning turli xil yo'nalishlari, bu yo'nalishlar o'rtasidagi umumiy va o'ziga xos belgilari, o'zbek tilshunosligiga struktur tilshunoslikning ta'siri haqida fikr yuritiladi.

O'quv qo'llanma 5A141101-o'zbek tili magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistrantlar uchun mo'ljallangan bo'llib, undan boshqa kitobxonlar ham foydalanishlari mumkin.

BBK 81.2(O'zb)ya73

ISBN 978-9943-368-01-9

© «Ta'lim» nashriyoti, 2009- y.

SO‘ZBOSHI

Har qanday fan taraqqiyoti muayyan bosqichlardan iborat bo‘lib, keyingi bosqich oldingi bosqich bag‘rida uning vorisi sifatida dunyoga keladi. Oldingi bosqich yo‘l qo‘ygan kamchiliklarga tanqidiy baho bergen holda, bunday kamchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradigan tadqiqot metodologiyasi va metodlarini qidirishga harakat qiladi.

XX asrning oxirgi choragi va XXI asr boshlaridagi o‘zbek tilshunosligi ham ana shunday jarayonni o‘z boshidan kechira boshladи. Ayyub G‘ulom asos solgan o‘zbek ilmiy tilshunosligi yutuqlarini e’tirof etgan va unga tayangan holda, o‘zbek tilining ichki struktur belgilarini yoritishga yordam beradigan yangi tadqiqot metodlarini qo‘llashga intilish kuchaydi. Bunga shu davrda ro‘y bergen sotsiolingvistik jarayon qulay imkoniyat yaratdi. Sobiq sovet imperiyasining kuchsizlanishi va bu imperiya tarkibiga zo‘rlik bilan birlashtirilgan respublikalarda milliy o‘z-o‘zini anglash hissining kuchayishi har bir respublikada davlat tili uchun kurashish harakatining boshlanishiiga, ayni paytda, tilshunoslik fanida ham shu kungacha amalda bo‘lgan tadqiqot metodlariga shubha bilan qarash kayfiyatining tug‘ilishiga sababchi bo‘ldi.

Xususan, sho‘rolar davrining 50—60-yillarda dunyo tillarining o‘zaro yaqinlashib, oxir-oqibat yagona bir tilga aylamishi haqidagi stalinchalik siyosatining amalga oshirilishi, bunday siyosatning Stalindan keyin ham davom ettirilishi, shuning uchun SSSR tarkibidagi barcha tillarda umumiy leksik fondni kengaytirib borish tillarning asosiy taraqqiyot qonuni bo‘lishi kerakligi haqidagi qarashlar hukm surdi. O‘tish davrida milliy o‘zlikni anglagan ziyorolar o‘rtasida ana shunday til siyosatiga katta e’tiroz uyg‘ondi.

Ikkinchisi tomondan, yuqoridaagi til falsafasi tamoyillariga sig‘magan lingvistik yo‘nalishlarning barchasini 60-yillarga qadar burjua lingvistikasi deb e’lon qilindi va dunyo tilshunosligi qo‘lga kiritgan yutuqlari, yangi-yangi tekshirish metodlarining kirib kelishiga yo‘l qo‘yilmadi.

Mashhur tilshunos A.Martine 1953-yil yozgan maqolasida shu davr tilshunoslari va tilshunosligi haqida fikr yuritar ekan, «ko‘philik buyuk tilshunoslarning e’tiqodli va faol strukturalistlar» ekanligini bayon qiladi. M.Koen esa tilshunoslikda strukturalizm erasi boshlanganligini ta’kidlaydi¹.

1953- yilda dunyo tilshunoslida tobora obro‘-e’tibor qozonayotgan struktur tilshunoslikning sho‘rolar tilshunosligiga ta’sir etishining oldini olish maqsadida bu yo‘nalishga tanqidiy baho beruvchi qator maqolalar e’lon qilindi².

O.Leshka tomonidan struktur tilshunoslik burjua tilshunosligi deb baholandi. Praga lingvistik maktabining maydonga kelishi ideallashtirilgan holda, ishchilar sinfi ustidan burjuaziyaning g‘alaba qillsh davri bilan bog‘landi va u burjuaziyaning g‘oyaviy quroli ekanligi ta’kidlandi.

Uning fikricha, «til haqidagi yangi ta’limot» marksistik tilshunoslikning shakllanishiga to‘sinqilik qilibgina qolmasdan, tilshunoslikdagi reaksiyon burjua yo‘nalishni tanqid qilishga ham xalaqit berdi³. Natijada sho‘rolar davrida faqat marksistik falsafagina fan metodologiyasiga aylandi. Bu metodologiyadan tashqaridagi barcha fan yo‘nalishlari burjuaziya fan yo‘nalishiari deb baholandi.

Milliy respublikalardagi milliy tillarni o‘rganuvchi xususiy tilshunoslik uchun ham ana shu yo‘nalish metodologik asos qilib olindi.

80-yillardan boshlab milliy o‘z-o‘zini anglash hissining kuchayishi esa yangi tadqiqot metodologiyasi va metodlarining kirib kelishiga imkoniyat tug‘dirdi. Xususan, o‘zbek tilshunoslida

¹ Коэн М. Современная лингвистика и идеализм. — ВЯ, 1958, №; с. 574.

² Ахманова О.С. Глоссематика Луи Ельмслева как проявление упадка современного буржуазного языкоznания — ВЯ, 1953, № 3; О.Лешка. К вопросу о структурализме. — ВЯ, 1953, № 5.

³ Leshka O. O’sha asar, 88-bet.

sistemaviy (struktur) tadqiqot metodlari kirib kela boshladi. Bu esa sistemaviy (struktur) tilshunoslikka oid terminologik apparatning kirib kelishiga olib keldi. Natijada o'zbek lingistik atamalari sistemasi yangi atamalar qatlami bilan boyidi.

Garchi hozirgi o'zbek tilshunosligida sistemaviy tilshunoslikka oid bir qator atamalar faol qo'llanayotgan bo'lsa ham, lekin bu atamalarning qiymati turlichay talqin qilinmoqda. Sababi sistemaviy tilshunoslikning turli tarmoqlari o'rtasida bu atamalar turlichay ma'nolarda qo'llaniladi. Shuning uchun sistemaviy tilshunoslikning kelib chiqishi, uning tarmoqlari, tarmoqlar o'rtasidagi umumiyligi va o'ziga xos tomonlarni, har qaysi tarmoqqa xos terminologik apparatni yoritish zaruriyati sezilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, quyida ana shu masalalar yuzasidan bahs yuritiladi.

Asar qo'lyozmasining nashrga tayyorlanishida yaqindan yordam bergan Andijon davlat universiteti tilshunoslik kafedrasining kabinet mudiri Umarov Adhamjonga mualif samimiy minnatdorchilligini bildiradi va kitob yuzasidan bildirilgan har qanday fikr-mulohazalarni mammuniyat bilan qabul qiladi.

AN'ANAVIY VA STRUKTUR TILSHUNOSLIK MUNOSABATLARI MASALASI

Tilshunoslik tarixida sistemaviy-struktur tilshunoslikka qadar bo'lgan davr ko'pincha an'anaviy tilshunoslik deb yuritiladi.¹ An'anaviy tilshunoslikning muhim jihatni o'rganilayotgan obyektni sezgi a'zolari bergen ma'lumotga asoslangan holda tavsiflab o'rganishdir.

Ayrim olimlar «an'anaviy tilshunoslik»ni «zamonaviy tilshunoslik»ning ziddi sifatida tushunadilar. Jumladan, xuddi shunday fikr bundan rosa 20 yil avval R.A. Budagov tomonidan bayon etilgan edi. U «an'anaviy tilshunoslik» va «zamonaviy tilshunoslik» atamalari go'yo «eski, qoloq tilshunoslik» va «yangi, ilg'or tilshunoslik» ma'nolarida qo'llanilishi marksistik ta'limotga mutlaqo yet ekanligini ta'kidlagan edi².

Aslida «an'anaviy tilshunoslik» «hozirgi tilshunoslik» yoki «zamonaviy tilshunoslik»ka zidlanmaydi. Bu o'rinda «an'anaviy tilshunoslik» sof xronologik ma'noni, ya'ni «hozirgacha bo'lgan tilshunoslik» ma'nosinigina bildirmaydi, balki gnoseologik ma'noda bilishning ikki bosqichiga asoslanuvchi va ontologik nuqtayi nazaridan til tabiatini va mohiyatiga ikki xil yondashuvchi fan sifatida baholanadi va sistemaviy tilshunoslik deb yuritiluvchi tilshunoslikka qarama-qarshi qo'yiladi. Ular til ontologiyasiga yondashuv nuqtayi nazaridan ham, uni tekshirish metodologiyasi va metodi nuqtayi nazaridan ham bir-biridan farq qiladigan tilshunoslikning teng huquqli ikki yo'nalishi sanaladi.

¹ Бархударов Л.С. Истоки, принципы и методология порождающей грамматики. – Проблемы порождающей грамматики. – М., 1976, с. 5.

² Будагов Р.А. Сходства и несходства между родственными языками. – М., 1985, с.7.

Tilshunoslikning bu ikki yo‘nalishi bir-birim rad etmaydi, balki biri ikkinchisining natijalariga asoslanadi. Shuming uchun ham har ikki tilshunoslik hozirgi kunda bab-baravar qadam tashiamoqda.

E.Benvenist tilshunoslik tarixini uch davrga bo‘lar ekan, XX asrning bиринчи choragidan tilshunoslikning yangi davri, ya’ni tilga sistemaviy-struktur yondashuv davri boshlanganini bayon qiladi. Bu davrdan lingvistikaning e’tibori til falsafasiga ham, til evolutsiyasiga ham emas, balki tilning immanent realligiga qaratildi. Natijada lingvistika formal, ixcham, sistematik fanga aylanishga intila boshladi.¹ Lekin bu bilan an’anaviy tilshunoslik faoliyatini to‘xtatib, struktur tilshunoslikka o‘z o‘rnini to‘la bo‘shatib berdi, degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Ana shu davrdan boshlab struktur tilshunoslik ildiz ota boshladi.

Darhaqiqat, XX asr boshqa fanlar taraqqiyotida bo‘lgani kabi lingvistika tarixida ham asosiy e’tiborning obyektga substansional nuqtayi nazardan yondashuvdan struktur-funksional nuqtayi nazardan yondashuvga o‘tishi bilan xarakterlanadi.² Bunga F.de Sossyurning «Umumiy lingvistika kursi»da bayon qilingan «til substansiya emas, balki shakldir» degan bosh g‘oyasi sababchi bo‘ldi. Bu g‘oyaga muvofiq, strukturaning substansiyadan ajratilishi va uning misbiy mustaqilligining e’tirof etilishi tilshunoslikning keyingi davrida buyuk kashfiyotlarning qilinishiga turtki bo‘lish bilan birga, bir qator yanglish qarashlarning tug‘ilishiga ham zamin yaratdi.

F.de Sossyur *substansiya* va *shakl* atamalari ostida sezgi a’zolarimizga ta’sir qiluvchi moddiy vositalar va bu moddiy vositalar zamirida yotgan munosabatlarmi tushunadi, *til shakldir* deganda tilning munosabatlar sistemasi ekanligiga urg‘u beradi. Tilning moddiy tomoni, ya’ni tovush tomoni substansiya sifatida ikkinchi planga suriladi.

Ana shuning natijasida u til va nutqni ajratdi. A.Gardiner F.de Sossyurning bu dixotomiyasidan ta’sirlanib, tilshunoslikning bundan

¹ Бенвенист Э. Общая лингвистика. —М., 1974, с. 23.

² Солицев В.М. Язык как системно-структурное образование. —М., 1971, с.6 -7.

keyingi barcha yutuqlari ana shu zidlanishga asoslanadi, deb bashorat qilgan edi.¹

Nutqiy faoliyat til va nutqning dialektik munosabatidan tashkil topishining e'tirof etilishi sistemaviy tilshunoslikning vujudga kelishiga dadil qadam bo'ldi. Sistemaviy tilshunoslikka zidlanuvchi an'anaviy tilshunoslik til va nutqni farqlamagan holda, tilni, F.de Sossyur ta'biri bilan aytganda, substansiya deb tushunadi va asosiy e'tiborni bevosita sezgi a'zolarimiz ta'siriga beriladigan moddiy vositalarni o'rganishga qaratadi. Bu tilning ontologik tabiatini yuzasidan an'anaviy va sistemaviy tilshunoslik o'rtasidagi birinchi farq sanaladi.

Tilning ontologik muammosi bo'yicha yuqoridagi tilshunoslik yo'nalishlarining ikkinchi farqi tilning ichki tuzilishiga yondashuv masalasidir.

An'anaviy tilshunoslik substansiyaning (substansiya ma'nosi F.de Sossyur talqini bo'yicha qo'llanilmoqda, keyinchalik bu atama mohiyat ma'nosida qo'llanila boshlandi) muayyan tarkibiy qismlardan tashkil topganligiga asosiy e'tiborni qaratsa, sistemaviy tilshunoslik substansiyani tashkil etgan qismlarning o'zaro munosabatini, ana shu munosabatlar orqali namoyon bo'layotgan farqlovchi (markaziy, differensial, distinkтив) va farqlamaydigan (chegara, nodifferensial, nodistinkтив) belgilarini aniqlash va ana shu yo'l bilan shakl (mohiyat)ni, lingvistik birliklarning modelini belgilashini bosh maqsad qilib qo'yadi. Chunki ularning fikricha, har qanday o'rgamilayotgan obyekt abstrakt konstrukt darajasiga olib chiqilgandagina o'zining haqiqiy ilmiy talqimini topadi.² Shuning uchun sistemaviy tilshunoslikda jiddiy e'tibor moddiy tomonga emas, balki munosabatga qaratiladi. Boshqacha aytganda, haqiqiy lingvistik reallik sifatida muayyan bir tilning alohida dalili emas, balki sistema sifatidagi til e'tirof etiladi. Sistema esa elementlar majmuasi sifatida qaralmaydi. Har bir elementning butunlik doirasida boshqa element bilan

¹ Гардинер А. Развитие между «речью» и «языком». — Звегинцев В.А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. — М., 1960, с. 19.

² Киров Е.Ф. Теоретические проблемы моделирования языка. — КазГУ, 1989, с. 17.

munosabati tufayli mavjud bo‘lishi sistema tuzilishini zamondan tashqaridagi munosabatlar tashkil etishi tan olinadi.

Sistemaviy tilshunoslikning an’naviy tilshunoslikdan uchinchi farqi shundaki, tilga belgilar sistemasi sifatida qaraydi va tilshunoslikni belgi nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi semiotikaning tarkibiy qismi deb baholaydi. «Substansiya» va «shakl»ni bir-biridan ajratish fonoologik sathda shu darajaga yetdiki, tovushlarning artikulatsion-akustik belgilari tilshunoslik doirasidan chiqarildi va tabiiy fanlar obyektiga aylantirildi.

An’naviy tilshunoslik substansiyani o‘rganisliga e’tibor qaratganligi uchun tilning akustik-artikulatsion vositalar yordamida bevosita yuzaga chiqish jarayonini o‘rganishni asosiy maqsad qilib qo‘yadi.

Sistenaviy tilshunoslik an’naviy tilshunoslikdan gnoseologik nuqtayi nazaridan ham farq qiladi. An’naviy tilshunoslik sezgi a’zolarimizga ta’sir qiluvchi, bevosita kuzatishda berilgan moddiy vositalarni o‘rganish bilan shug‘ullanib, bilishning induktiv usuliga asoslansa, sistemaviy tilshunoslik esa moddiy vositalar yordamida voqelanuvchi, ularning har birida barqaror belgi, konstanta sifatida takrorlanuvchi mohiyatlarni, immanent birliklarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.¹ Shuning uchun L.Yelmslev «struktura pog‘onaviylik bilan xarakterlanishi va bu pog‘onaviylikni deduktiv yo‘l bilangina yoritish mumkinligi»ni bayon qiladi va obyektni induktiv metod orqali o‘rganishga asoslangan an’naviy tilshunoslikdan farqlanishini ta’kidlaydi².

Ko‘rinadiki, an’naviy va sistemaviy tilshunoslik tilning ichki tuzilishiga yondashuv, bu ichki tuzilish birliklarini o‘rganishda qo‘llaniladigan tadqiqot metodlari nuqtayi nazaridan o‘zaro farq qiladigan ikki xil yo‘nalishdir.

Ayrim mualliflar o‘zbek tilining fonetikasidan tortib sintaksisiga qadar ishlarga e’tibor berilsa, ularning har biri sistema sifatida o‘rganilganini inkor qilib bo‘lmaydi, deydilar.

¹ Бархударов Л.С. Истоки, принципы и методология порождающей грамматики. – Проблемы порождающей грамматики. – М., 1976, с. 5.

² Ельмслев Л. Понятие управления. – Звегинцев В.А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. – М., 1960, с. 47.

To‘g‘ri, 70—80-yillarga qadar bo‘lgan o‘zbek tilshunosligida ham sistemaviylik alomatlarini inkor qilib bo‘lmaydi. Chunki har bir yangi fan yo‘nalishi eskisi bag‘rida shakilanadi va undan o‘sib chiqadi. F.Mikushning ta’kidlashicha, har qanday lingvistik yo‘nalish ma’lum ma’noda strukturalizm elementini o‘zida namoyon qiladi. Lekin tilning tipik strukturasini aniqlamagan va unga suyanmagan biron bir yo‘nalishni struktur yo‘nalish sifatida baholab bo‘lmaydi¹.

O‘zbek tilshunosligida ham sistemaviy tilshunoslikning metodologiyasi va tekshirish metodi 70-yillardan boshlab ommaflashgan ekan, bundan oldingi tadqiqotlardan sistemaviylik tamoyillarini qidirish ortiqcha.

L.S. Barxudarov ham an‘anaviy tilshunoslik struktur tilshunoslikda bo‘lgani kabi *distributsiya, transformatsiya, BI bo‘yicha tahlil, binar oppozitsiya* singari qat‘iy ilmiy tadqiqot usullariga ega emasligini ta’kidlagan edi².

An‘anaviy tilshunoslikka zid qo‘yilayotgan sistemaviy tilshunoslikni «ilg‘or tilshunoslik» sifatida talqin qilish ham noo‘rin. Avvalo, sistemaviy tilshunoslik vakillarining qarashlari bir xil emas, hatto ko‘p hollarda bir-biriga zid keladi. Xususan, F.de Sossyurning o‘zi tilshunoslikni ichki va tashqi lingvistikaga ajratgan holda, faqat ichki lingvistika yuzasidan fikr yuritadi. Tashqi lingvistika uning nazaridan chetda qoladi. F.de Sossyurning til substansiya emas, shakldir, degan qarashi struktur tilshunoslikning glossematika yo‘nalishining bosh g‘oyasi bo‘lib qoldi va ular tilni moddiylikdan uzilgan sof munosabatlар sistemasi sifatida talqin qildi. Tilning tuzilish birliklari o‘rtasidagi munosabatlarini o‘rganish tilshunoslikning asosiy vazifasi hisoblandi. Lekin til va jamiyat, til va so‘zlovchi shaxs, til evolutsiyasi, adabiy til va xalq shevalari o‘rtasidagi munosabat, til va tafakkur, matn lingvistikasi, til estetikasi singari qator masalalar uning nazaridan chetda qoladi. Funksional lingvistika yo‘nalishi esa F.de Sossyurning nutqiy faoliyat til va nutqning o‘zaro munosabatidan iborat degan qarashini rivojlantirgan

¹ Микуши Ф. Обсуждение вопросов структурализма и синтагматическая теория. —ВЯ, 1957, № 1, с. 31.

² Barxudarov L.S. O’sha asar, 8-bet.

holda, tilning nutq orqali voqealanishiga va tilning barcha sathlarida til-nutq dixotomiyasining amal qillshiga e'tibor qaratdi. Shuning uchun nutqiy faoliyatga ham substansiya, ham shakl nuqtayi nazaridan yondashildi, shu bilan birgalikda glossematiklar tomonidan nazaridan chetda qolgan yuqoridaq qator masalalar ham funksional lingvistikating diqqatini tortdi. Bu bilan funksional lingvistika an'anaviy tilshunoslik bilan bog'landi. Amerika generativ lingvistikasi esa an'anaviy tilshunoslikka yana ham yaqinlashdi.

A.F. Losev bundan salkam qirq yil oldin struktur va an'anaviy tilshunoslik o'rtasidagi farq haqida fikr yuritar ekan, bu farq shakl va niazmunni abstrakt-metafizik ajratishga asoslanganini, an'anaviy (klassik) lingvistika asosiy e'tiborni mazmunga qaratsa, struktur (sistemaviy) lingvistika til shakliga asoslanganini, ana shu jihat har ikkisining ham cheklangan tomoni ekanligini bayon qilgan edi¹. Uning ta'kidlashicha, strukturalistlar (ko'proq glossematiklar – ta'kid bizniki) tilning munosabatlari sistemasi ekanligini birinchi planga olib chiqishi to'g'ri bo'lsa ham, lekin bu g'oyaga o'ta berilib ketgan holda, lingvistik munosabatlarni tilning o'zidan uzib qo'ydilar, til haqida mazmundan tashqaridagi fanni yaratishni orzu qildilar. Ayni paytda, an'anaviy metod ham tilning munosabatlardan tashqarida mavjud bo'lmasligini e'tiborga olmadi². Lekin shaklning mazmunsiz yoki mazmunning shaklsiz bo'lmasligi dunyo dialektikasi tomonidan allaqachon tasdiqlanibgina qolmay, umuminsoniy sog'lom fikrning tayanch nuqtasiga aylangan.

Shunday ekan, an'anaviy tilshunoslikni go'yo «eski, qoloq», sistemaviy tilshunoslikni esa «yangi, ilg'or» tilshunoslik sifatida baholab bo'lmaydi. L.S. Barxudarov an'anaviy tilshunoslikka bepisandlik bilan qaragan struktur tilshunoslikka baho berar ekan, struktur tilshunoslik bag'ridan o'sib chiqqan generativ (tug'diruvchi) lingvistika an'anaviy tilshunoslikni oqlashga, uning tushuncha va xulosalariga tayanishga harakat qilganini ma'qullaydi³. V.A. Zve-

¹ Лосев А.Ф. О возможности сближения лингвистики классической и лингвистики структуральной. – ВЯ, 1968, № 1, с.50.

² Losev A.F. O'sha asar.

³ Бархударов Л.С. Истоки, принципы и методология порождающей грамматики (Введение). – Проблемы порождающей грамматики и семантики. – М., 1976, с. 24.

ginsev ta'kidlaganidek, «Tilni empirik va formal o'rghanish o'rtasida jarlik yo'q. Ular o'rtasidagi jarlikka model vositasida ko'prik solingan. Bu model bilislining yuqoridagi ikki bosqichini yagona zanjirga bog'lab turadi»¹. Darhaqiqat, bu ikki tilshunoslik tekshirishning ikki metodiga asoslangan, bir-biridan oziqlanadigan va har ikkisi o'zining yutuq va cheklangan tomonlariga ega bo'lgan teng huquqli tilshunoslik yo'nalishlaridir.

Hozirgi kunda har ikki yo'nalishning ojiz tomonlarini bartaraf qilish uchun ularning afzal tomonlarini uyg'unlashtirish, tadqiqot jarayonida ularning kuchli tomonlaridan hech ikkilanmay foydalanish davr talabidir. A.F. Losev ham an'anaviy va struktur tilshunoslik o'zaro yaqinlasbishi mumkingina emas, balki hozirgi kunda generativ lingvistika orqali bu jarayon amalda boshlanganini ta'kidlagan edi².

STRUKTUR TILSHUNOSLIKNING POYDEVORI

Tilshunoslik tarixida strukturalizm tasodifiy paydo bo'lgani yo'q. Strukturalizm XIX asrning 70-yillaridan boshlab hukm surgan yosh grammatikachilarining pozitivistik qarashlariga qarshi maydonga chiqqa boshladi.

Ularning yosh grammatikachilarga qarshi chiqishiga fransuz «sotsiologik maktabi» va Fosslerning «nemis neofilologik maktabi» qarashlari ma'lum darajada zamin yaratdi.

Garchi bu maktablar yosh grammatikachilar qarashlaridan tamoman uzilmagan bo'lsa ham, lekin tilni, bir tomondan «sotsial dalil», ikkinchi tomondan, psixologizm deb tushunish strukturalizmning maydonga kelishiga turtki bo'ldi. Shuningdek, bir qator mamlakatlardagi olimlarning yosh grammatikachilarining «fonetik qonun» va «analogiya amali» singari asosiy tushunchalariga shubha bilan qarashlari, yosh grammatikachilar olg'a tashlagan «atomizm» dan farqli ravishda tilni bir butun sifatida tushunish, tarixiylik va

¹ Звегинцев В.А. Структурализм в лингвистике. -- Системный анализ и научное знание. -- М., 1978, с. 183.

² Хансен К. Пути и цели структурализма. -- ВЯ, 1959, № 4, с. 93.

genetik masalalarga qiziqishlarining kuchsizlanishi yangi yo‘nalishning tug‘ilishi uchun doya rolini o‘ynadi.

Har qanday ilmiy oqim kabi strukturalizm ham o‘z g‘oyaviy asoslariga ega. Struktur tilshunoslikning paydo bo‘lishiga I.A. Boduen de Kurtene va F.de Sossyur qarashlari asos bo‘lib xizmat qildi.

Shuningdek, I.A.Boduen de Kurtene va uning o‘quvchisi N.V.Krushevskiy fonema haqidagi qarashlari bilan hozirgi struktur tilshunoslikdagi fonologik nazariyaga asos soldi. I.A.Boduen de Kurtene tilshunoslikka funksionallik tamoyilini olib kirdi. Uning ma’nosи shuki, lingvistik vositalar nutq jarayonida bajaradigan vazifasiga qarab belgilanadi. Bunday tamoyil fonetika sohasida fonema tushunchasining tug‘ilishiga olib keldi.

U nutqiy jarayondagi fiziologik tavsifi bilan teng bo‘limgan tovush haqida fikr yuritdi. Natijada fonema tushunchasiga asos soldi. Lekin V. Mateziusning ta’kidlashicha, o‘zining novatorlik konsepsiyasidan lingvistik metod va lingvistik sistema uchun xulosalar qila olmadidi. Chunki psixologiyaning o‘zgaruvchan nurlari ko‘zini qamashtirdi va tildagi doimiy o‘zgarishlar dalili asosiy e’tiborini tortdi.¹

Uning ta’kidlashiga ko‘ra, Boduen payqamagan narsani Ferdinand de Sossyur aniq belgilab berdi.

Shvetsariya tilshunosi F.de Sossyurning tilshunoslik oldidagi buyuk xizmati shundaki, u sinxroniya bilan diaxroniyani aniq farqladi. Shuningdek, sinxron nuqtayi nazar ma’lum bir tilning muayyan bir davrida mavjud bo‘lgan elementlarning o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan sistemani hosil qiladi, degan fikrga kelishiga imkon tug‘dirdi. Uning fikricha, til qismlari sinxron munosabatda o‘rganilishi mumkin bo‘lgan sistemadir.

K.Xansenning ta’kidlashicha, agar F.de Sossyur diaxron hodisalarning sistemaviy xarakterini e’tirof etmas ekan, bu ustozlari – yosh grammatikachilarining ta’siri ekanligini ko‘rsatadi. «Umumiyl lingvistika kursi» kitobining diaxroniyaga bag‘ishlangan o‘rinlari esa hali o‘z ustozlari – yosh grammatikachilar pozitsiyasida turganligini ko‘rsatadi.²

¹ Матезиус В. Куда мы пришли в языкознании. – Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX вв. в очерках и извлечениях. Ч. II. – М., 1960, с. 90.

² Хансен К. Пути и цели структурализма. – ВЯ, 1959, №4, с.94.

Garchi sinxroniya va diaxroniya o'rtasidagi munosabat, tilning sinxron holatiga xos sistemaviylik dastlab Boduen tomonidan olg'a tashlangan bo'lsa ham, lekin Sossyur tomonidan aniq ifodasini topdi va uning bu ikki bosh g'oyasi, ya'ni tilning sinxron tahlili, til sistemasi hamda til strukturasi va til funksiyasi haqidagi g'oyalar yangi tilshunoslikning shaklianishida tayanch nuqta bo'lib xizmat qildi.

V.Matezius fikriga ko'ra, Boduen, Sossyur g'oyalariga asoslangan funksional va struktural nuqtayi nazar hozirgi kunda tilshunoslik istiqboli uchun puxta zamin yaratuvchi yagona nazarriyadir.¹

F.de Sossyurning tilga elementlar munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida yondashuvi, nutqiy faoliyatning til va nutq o'rtasidagi o'zaro munosabatdan tashkil topgan butunlik deb e'tirof etishi, tilning sinxron va diaxron holatini aniqlab berishi va uning belgili tabiatini yoritishi struktur tilshunoslikning tug'ilishiga zamin yaratadi. Shuning uchun A.A.Xolodovich F.de Sossyur kitobining tilshunoslik tarixidagi ahamiyati haqida fikr yuritar ekan, unimg dunyoga kelishi tilshunoslik tarixida yangi davrning boshlanishiga olib keldi, deydi.²

Bundan tashqari struktur tilshunoslikning paydo bo'lishiga XX asrda tabiiy fanlar qo'lga kiritgan yutuqlar ham sabab bo'ldi. Xususan, XX asrning birinchi choragida fizika fanida eng kichik zarralar kashf etildi. Buning natijasida bevosita sezgi a'zolarimiz ta'siriga beriladigan har qanday hodisalar o'z ichida ichki tarkibiy qismlardan tashkil topishi va bu tarkibiy qismlarning o'zaro munosabati strukturani hosil qilishi haqida fikr yuritildi. Shunday qilib, struktura atamasi ostida muayyan butunlik tarkibida ishtirok etgan elementlar o'rtasidagi munosabatlar usuli, xarakteri, qonuni tushunila boshlandi.

Agar XIX asrdagi ilmiy tadqiqotlar bevosita tajriba asosida dalillarni kuzatish va ularni ro'yxatga olish bilan cheklangan bo'lsa, XX asrga kelib bu dalillar ostida yashirinib yotgan mohiyati

¹ Matezius V. O'sha asar, 91-bet.

² Холодович А.А. «Курс общей лингвистики» Ф.де Соссюра. Ф.де Соссюр. Труды по языкоznанию. I., -М., 1977, с.94.

ochishga, ularning ichki uzvlari o‘rtasidagi munosabatlarni, o‘zaro ta’sirini yoritishga qaratildi.

Barcha fanlar struktura va uni tashkil etgan elementlarning o‘zaro munosabatini o‘rganishga asosiy e’tibor bera boshladи. Natijada fizikada nafaqat kristall va atomning strukturaga ega ekanligi, balki nur ham muayyan strukturadan tashkil topganligi ma’lum bo‘ldi. Fiziologiyada I.P.Pavlovning oliy asab sistemasi haqidagi ta’limotining vujudga kelishi, matematikada 30-yillarda matematik struktura nazariyasining, psixologiyada struktur psixologiyaning maydonga kelishi obyektga struktura sifatida yondashuvning natijasi bo‘ldi.

Bu davrda struktura tushunchasi barcha fanlar uchun ommaviy tushunchaga aylandi. Bundan tilshunoslik ham istisno emas. Ana shunday umumiy an’ana ta’sirida sistemaviy-struktur tilshunoslik maydonga keldi.

Barcha fanlarda struktura atamasi keng qo‘llanilayotgan bo‘lsa ham, lekin bu atama talqimida xilma-xillik vujudga keldi. Ana shunday xilma-xillik tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Tilshunoslikda struktura atamasi turli ma’noda talqin qilinadi. Ulardan keng tarqalgani ikki xildir.

B i r i n c h i s i d a struktura deganda, o‘zaro bog‘langan va shartlangan munosabatda bo‘lgan elementlardan tashkil topuvchi butunlik tushuniladi. Strukturaga bunday yondashuv o‘rgani- layotgan obyektni, uni tashkil etgan elementlar o‘rtasidagi ichki aloqa va bog‘liqlikni yoritishni talab etadi.

I k k i n c h i y o‘nali shida esa struktura sof shakllar va sof munosabatlar sifatida tushuniladi. Shakl esa aniq qo‘llanilishdan uzilgan holda talqin qilinadi.

Ana shundan kelib chiqqan holda struktur tilshunoslikning turli tarmoqlari dunyoga keldi. Ular *funksional lingvistika, glossematika va deskriptiv lingvistika* yo‘nalishlaridir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, struktur tilshunoslik yosh grammatichilar bag‘rida, unga tanqidiy baho berish natijasida maydonga keldi. Shunday ekan, eng avvalo, struktur tilshunoslikka doya rolini o‘ynagan yosh grammatichilar ning lingvistik g‘oyasi bilan tanishish lozim ho‘ladi.

YOSH GRAMMATIKACHILAR MAKTABI

XIX asr qiyosiy-tarixiy tilshunoslik doirasidagi empirik tadqiqot ishlari va til falsafasi taraqqiyotini ayrim mualliflar uch davrga bo‘ladilar:

1. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning boshlang‘ich davri. Bu davrga F.Bopp, Ya.Grimm, R.Rask singari olimlarning tadqiqotlari man-subdir. V.Gumboldtning til falsafasi qisman ana shu davrga muvofiq keladi.

2. Ikkinci davr qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning to‘liq qaror topgan davri sanaladi. A.Shleyxer bu davrning yirik figurasi. A.Shleyxer qarashlarining falsafiy asosi naturalizm hisoblanadi.

3. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning uchinchi davri yosh grammaticakachilar yo‘nalishidir. Bu yo‘nalishning falsafiy asosi psixologizm sanaladi.

Tilshunoslik tarixida yosh grammaticakachilarning maydonga kelishi limgvistika fani taraqqiyotining ichki ehtiyoji, XIX asrning 60-yillarida komparativistika kirib qolgan boshi berk ko‘chadan chiqish yo‘llarini axtarish zaruriyati tufayli maydonga keldi.

XIX asrning 70–80-yillarida Germaniyada qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning F. Bopp, Ya. Grimm, A. Shleyxer singari vakillari qarashlarini keskin tanqid qilgan holda yangi yo‘nalish kurtak ota boshiadi.

Eski avlodning ilmiy merosiga keskin tanqidiy munosabatda bo‘lganligini e’tiborga olib, tilshunoslikning yangi bosqichi vakillarini keksa avlod vakillari masxaraomuz «yosh grammaticachi»lar deb nomladilar. Yosh avlod esa buni o‘zlarining yo‘nalishiga asosiy nom qilib oldilar.

Yosh grammaticakachilar yo‘nalishining shakllanishi K.Brugman (1849–1919), G. Ostxfaf (1847–1909), G. Paul (1846–1921), B. Delbryuk (1842–1922), A. Leskin (1840–1916) singari Leypsig universiteti olimlari nomi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham bu yo‘nalish tilshunoslikning Leypsig maktabi deb ham nomланади.

Germaniyadagi barcha tilshunoslar ham bu yo‘nalish qarashlariga bir xil munosabatda bo‘lgan emas. Bu davrda Germaniyada yosh grammaticakachilar yo‘nalishlaridan tashqari bir qancha lingvistik

yo'nalishlar ham faoliyat ko'rsatdi. Shuning uchun ham Germaniyada hukm surgan bu davr tilshunoslik yo'nalishlarini e'tiborga olgan akademik I.V.Yagich bu mamlakatda nechta universitet bo'lsa, shuncha lingvistik maktablar mavjud ekanligini yozgani edi.

Lekin keyinchalik Germaniyadagi boshqa lingvistik maktab vakillari ham yosh grammatikachilar maktabi tomoniga o'tdilar. Shu bilan birga bu maktab qarashlari bir qator Ovro'pa tilshunoslariga ham ta'sir qildi.

Yosh grammatikachilarning o'ziga xos xususiyatlari nima edi degan qonuniy savol tug'ilishi, tabiiy.

Yosh grammatikachilar qarashlarining nazariy umumlashmalari G. Paulning «Til tarixi tamoyillari» asarida bayon qilingan.

Yosh grammatikachilar qarashlarining asosiy nuqtalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning eng katta kamchiligi shundan iboratki, ular tillarmi qiyoslab o'rganishga, bobo til shakllarini hayolan tiklashga asosiy e'tiborni qaratdilar, lekin so'zlovchi shaxsning o'zi nazardan chetda qoldi. So'zlovchi shaxsning nutqiy faoliyat mexanizmi, psixologiyasi, tilning ichki taraqqiyoti singari masalalarga e'tibor qaratilmadi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning ana shu yo'l qo'ygan kamchiliklarini e'tiborga olgan holda Brugman va Ostxaflar, eng avvalo, lingvistikaning tadqiqot obyektini o'zgartirishni maslahat beradilar. Ularning fikricha, tillarni qiyosiy o'rganayotgan olim ularning bobo til holatini tiklashga emas, balki hozirgi hølatini tadqiq etishga asosiy e'tibormi qaratishi kerak.

2. Natijada yosh grammatikachilar tilni organizmning psixofiziologik faoliyati sifati talqin etdilar. Bunday talqin tilshunoslik metodologiyasining o'zgarishiga olib keldi. Ya'ni, tilni o'rganishning yangi tamoyili eski yozma yodgorliklar tilini emas, balki so'zlashayotgan kishilar nutqini o'rganish va til tarixi tahlili davomida fonetik qonuniyatlar va analogiyalarni e'tiborga olish lozim, deb hisobladilar.

3. Tilshunoslikda tadqiqot obyektining o'zgarishi nazariy asosining o'zgarishiga olib keldi. Ularning metodologik tamoyilida til faqat o'zi uchun yashaydigan insondan tasbiridagi, uning ustida

turuvchi narsa emas, balki faqat individda mavjuddir degan g'oya bosh g'oyaga aylandi. Shuning uchun tildagi har qanday o'zgarish faqat so'zlovchi shaxs bilan bog'liq deb hisobladilar.

XIX asning 80-yillaridan boshlab alohida lingvistik oqim sifatida e'tirof etilgan va 50-yillar atrofida katta ilmiy kuch sifatida faoliyat ko'rsatgan yosh grammatikachilar tilshunoslik tarixida ilmiy mahsulotlarining ko'pligi, ilmiy tekshirish metodining yetukligi va til amaliyotiga ta'sirining kuchliligi jihatidan XIX asr va XX asr boshlarida mavjud bo'lgan lingvistik oqimlar ichida tengi yo'q oqim sanaladi.¹

4. Yosh grammatikachilar bir qancha tillar misolida juda katta daliliy materiallarni to'plab, sistemalashtirib berdilar. Bu bilan tilshunoslikning amaliy tomonini rivojlantirishga, yangi-yangi lingvistik yo'nalishlarning maydonga kelishiga zamin hozirladilar. Natijada tilshunoslikda dialektologiya, lingvistik geografiya yo'nalishlari vujudga keldi. Ularning faoliyati tufayli fonetika sohasida, xususan, eksperimental fonetika sohasida va fonetik qonuniyatlar yuzasidan katta muvaffaqiyatlarga erishildi.

5. Yosh grammatikachilar tilshunoslikning bevosita o'rganish obyekti nutqiy jarayon, individual nutq ekanligini e'tirof etganliklari tufayli, u bilan bog'liq bo'lgan qator masalalarini, xususan, nutqiy jarayonda individuallik-sotsiallik munosabatini, individual nutq, me'yor va til tuzilishi masalalarini ko'tarib chiqdilar.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, ularning qarashlaridagi bir qator masalalar bahstalab va yetarli ilmiy asosini topmagan edi.

Ular moddiy tomondan faqat alohida individlar tiligina mavjuddir, degan g'oyani o'zlariga metodologik tamoyil qilib olish bilan individual psixologiyani tilshunoslikning nazariy asosi sifatida e'tirof etdilar. Natijada ilmiy abstraksiyaga, til ontologiyasining ilmiy talqiniga e'tibor berilmadi.

Til birliklarining o'zaro munosabati, tilning funksionallashuvida ekstralolingvistik omillarning ahamiyati: tillarning o'zaro ta'siri, dialektlarning o'zaro munosabati, yozuv an'anasing ta'siri kabi masalalar yosh grammatikachilar nazaridan chetda qoldi.

¹ Амирова Т.А., Ольховиков Б.А., Рождественский Ю.В. Очерки по истории лингвистики. – М., 1975, с. 416.

Yosh grammatikachilar o‘z nazariyalarining induktiv xarakterini doimo ta’kidlaganlari holda, til nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lgan qator muammolarni muhokama qilishni, tilning falsafiy masalalari bilan shug‘ullanishni ortiqcha deb bildilar.

XIX asrning o‘rtalarida tabiiy fanlarda qo‘lga kiritilgan yutuqlar barcha fanlarning tadqiqot metodologiyasiga katta ta’sir qildi. Turli fan tarmoqlarida matematik amallardan keng foydalanishga o‘tildi. Bevosita kuzatishda berilgan hodisalarни faqat ro‘yxatga olish bilangina cheklanmasdan, ularni umumlashtirishga, ular zamirida yotgan mohiyatlarni aniqlashga o‘tish harakati tufayli deduktiv tamoyil o‘rin ola boshladi.

Tilni o‘rganishning bunday yangi tamoyillning asosiy belgilari Boduen de Kurtene asarlarida namoyon bo‘ldi.

Natijada sof empirik, induktiv tamoyil bilan ish ko‘rvuchi yosh grammatikachilar qarashlari bir qator olimlar tomonidan tanqidiy baholana boshladi. Ana shunday yoshlarning eng ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Ivan Aleksandrovich Boduen de Kurtenedir.

Yosh grammatikachilarga xos bo‘lgan til hodisalarini avtonom holda analitik o‘rganish o‘rniga ular o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishga ko‘proq e’tibor qaratila boshlandi.

Nazorat savollari

1. Nima uchun yosh grammatikachilar deb yuritiladi?
2. Yosh grammatikachilarning yirik vakillari kimlar?
3. Yosh grammatikachilar lingvistik qarashlarinting qanday asosiy nuqtalari mavjud?
4. Yosh grammatikachilarning yutuq va cheklangan tomonlari nimalarda ko‘rinadi?

I.A. BODUEN DE KURTENE NING LINGVISTIK KONSEPSIYASI

Boduen de Kurtene (1845–1929) ilmiy konsepsiyasining bir qator holatlari tilshunoslikda yangi davrning boshlanishiga olib keldi.

F.de Sossyur nomi bilan bog‘langan sistemaviy tilshunoslikning ko‘pgina g‘oyalari aslida Sossyurga qadar Boduen de Kurtene tomonidan bayon qilingan edi.

Boduenda yoshlik yillaridanoq matematika va tilshunoslikka qiziqish uyg‘ondi. Ana shu qiziqish tufayli u bir qator tillarni: lotin, sanskrit singari klassik tillarni, rus, polyak, fransuz, nemis, ingлиз, italyan, litva, chek, slavyan sing.ri o‘nlab hozirgi tillarni o‘rgandi. Keyinchalik ularning ko‘pida, xususan, rus, polyak, nemis, fransuz tillarida ilmiy asarlarini yozdi. XIX asrning 70–80-yillarida Boduen Ovro‘pada mashhur tilshunosga aylandi.

I.A. Boduen de Kurtenening falsafiy qarashlari

Boduen de Kurtenening lingvistik konsepsiyasi negizida materialistik monizm yotadi. U tabiat va ruli, til va tarix, tarix va hayot, tarix va taraqqiyot singari turli xil hodisalarini qorishtirgan A.Shleyxer va o‘z shogirdi N.V. Krushevskiyning dualistik qarashlariga tanqidiy munosabatini bayon qilar ekan, materialistik monizm g‘oyalarini targ‘ib qlladi. Materialistik monizm moddaning birlamchilagini, uning obyektiv mavjudligini e’tirof qiladi.

Tilga monistik qarash uni ijtimoiy-individual holatda amal qiluvchi psixosotsial mohiyat sifatida talqin qilishga olib keladi.

Boduen de Kurtene fikricha, til muayyan bir jamiyatni tashkil etgan individlar ongida, individlar psixikasida, individlar tili sifatida

yashaydi. Shuning uchun Boduen de Kurtene o‘z tadqiqotlarida individrlar nutqiga asosiy e’tiborni qaratdi. Uning ta’kidlashicha, individrlar psixikasi, tilning individual tashuvchilarigina real mavjuddir.

Milliy til bir butun sifatida ilmiy umumlashma sanalib, faqat g‘oyada yashaydi. Bu esa uning kommunikatsiyaning alohida aktiga e’tiborini tortishga sababchi bo‘ladi. Xuddi shuning uchun kishilardan uzib olingen mavhumlashtirilgan til emas, balki til tafakkurining egasi bo‘lgan inson tilshunoslikning real o‘rganish obyekti bo‘lmog‘i lozimligini ta’kidlaydi.

Shu bilan birgalikda u tilda individuallik bilan umumiylilikning ajralmasligini, individual xususiyatda bir vaqtning o‘zida umumiylilik, umumimsoniylik mavjud ekanligini bayon qiladi. U insoniyat olami sotsial guruhrilar majmuasi ekanligini e’tirof etadi. Boduenning ta’kidlashicha, insonda psixik xususiyatlar o‘xshashligi mavjud bo‘ladi. Ana shu xususiyatlarda umuman, til o‘zgarishlari, qisman shu qabila yoki xalq tilida o‘zgarishlar sodir bo‘lish shart-sharoiti yaratilgandir.

I.A. Boduen de Kurtenening tilshunoslikka qo‘shgan xizmatlari

Garchi tilshunoslik tarixida til va nutqni farqlash F.de Sossyurnomi bilan bog‘liq bo‘lsa ham, aslida unga qadar bu farqlanish Boduen asarlarida bayon qilinganining guvohi bo‘lamiz.

Mashhur tilshunos V.Gumboldt *til* va *nutq*, *ergon* va *energiya* o‘rtasidagi antinomiyalarni ajratgan edi. Boduen de Kurtene V.Gumboldtning ana shu g‘oyalarini rivojlantirdi.

Avvalo, u o‘sha davr tilshunosligi, xususan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik uchun hukmron bo‘lgan qiyosiy-tarixiy tahlil usuliga statik tahlil usulini qarama-qarshi qo‘yish bilan birgalikda, uning qiyosiy-tarixiy tahlil usulidan ustun bo‘lishi lozimligini ta’kidladi. Bu bilan XIX asr lingvistik ta’limotida burilish yasadi.

Boduen de Kurtene fikriga ko‘ra, til mexanizmini yoritishda, til sistemasini tahlil qilishda tarixiy qiyoslashdan ko‘ra statik metod

qulay imkoniyatga ega. Chunki til sistemasi tilning turg'un holatini taqozo etadi.

Boduennenning bu fikri tilshunoslik uchun juda muhim bo'lishi bilan birgalikda, F.de Sossyurning sinxroniya bilan diaxromiyani farqlash zarurligi haqidagi qarashlari bilan hamohang edi.

Boduen tilning statik va dinamik holatini farqlar ekan, til statikasi uning dinamikasidagi muayyan bir holat, dinamikaning elementi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, til uzluksiz harakatdadir. Til statikasi uning dinamikasining xususiy holati sanaladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Boduen, bir tomondan, tildagi tenglik, tinch holatlik qonunini, ikkinchi tomondan, tilning tarixiy harakatlanishi qonunini ajratgan holda, tilning birinchi holatini o'rganish statik tahlil vazifasi, ikkinchi holatni o'rganish esa tilni tarixiy tadqiq etishning vazifasi ekanligini ta'kidlaydi.

Til sistemasi uning barqaror turg'un holati bilan bog'liq ekanligini bayon qilish bilan birga, diaxron tahlil jarayonida ham tilning sistemaviy tabiatini e'tiborga olish lozimligini ko'rsatadi.

Boduennenning statika va dinamika haqidagi qarashlari **til** va **nutq** o'rtasidagi zidlanishning ajratilishiga zamin yarattdi. U nutqiy faoliyat til va nutq o'rtasidagi munosabat birligidan tashkil topishini his qilgan holda, til va nutqni o'zaro farqlashga harakat qiladi. Olimning ta'kidlashicha, til sistemasi uning model sifatida tasavvur qilinishidir. Model esa uning bevosita nutqiy jarayonda namoyon bo'lishiga qarama-qarshi qo'yiladi. Nutqiy namoyon bo'lish psixolinguistik tahlil asosida izohlanadi.

Boduen de Kurtene lingvistik qarashlaridagi ikkinchi muhim jihat tilni **belgilar sisteması** sifatida tushunishdir. U lingvistik belgining xarakterli tomoni shartlilik va erkinlik ekanligini ta'kidlaydi. Boduenning fikricha, til «o'zaro xilma-xil munosabatda bo'lgan bir qancha tasodifiy simvollar»dan tashkil topadi. Bu simvoilarga tabiatan «zaruriylik, bevositalik va o'zgarmaslik» xos emas. Ular til sistemasida «zidlanish va farqlanish» asosida

guruhanadi. Uning ta'kidlashiga ko'ra, tildagi so'zlarning asosiy qismi tasodifiy paydo bo'lgan simvollardir. Ana shu tasodifiylik tilning muhim belgisi hisoblanadi. Bunday tasodifiylik ostida Boduen ilingvistik belgining ifodalanimish va ifodalovchisi o'rtasidagi munosabatning erkinligini tushunadi.

Boduen de Kurtenening tilshunoslik oldidagi yana bir xizmati shuki, u tilshunoslikka **fonema** nazariyasini olib kirdi. Boduen birinchilardan bo'lib, tovushdan farq qiladigan fonetik birlikni ajratish zarurligini anglatdi.

Uning ilmiy faoliyat davomida fonema haqidagi qarashlari o'zgarib bordi. Shuning uchun Boduen asarlarida fonemaning xilma-xil talqini ko'zga tashlanadi.

1881-yilda «Slavyan tillari qiyosiy grammatikasining ayrim bo'limlari» nomli asaridayoq fonemaning ikki xil talqini namoyon bo'ladi. Bir o'rinda fonema so'zning tovush tomoni antropofonik xususiyatlar umumlashmasi deb qaralsa, boshqa bir o'rinda «antropofonik belgilarni umumlashmasi», «tovush tipi», bevosita sezgi a'zolarimizga ta'sir qiluvchi real tovushlarning «qo'shimcha belgilardan tozalangan umumlashmasi» sifatida baholanadi.

Boduen de Kurtenening fonema haqidagi qarashlarida uning quyidagi muhim belgilariga e'tibor qaratganligi ma'lum bo'ladi: 1) fonemaning murakkab birlik ekanligi; 2) uning eng kichik birlik (xususiyat)lardan tashkil topishi; 3) eng kichik birliklardan tashkil topgan butunlik sifatida tilda yaxlit holda funksiyalashishi; 4) eng kichik birliklardan tashkil topgan fonemaning til sistemasida munosabatlar (korrelatsiya) a'zosi sifatida yashashi; 5) fonemaning bevosita kuzatishda berilgan tovushlarning lingvistik umumlashmasi, abstraksiyasi ekanligi; 6) fonemaning real ko'rinishi uning antropofonik (artikulatsion-fiziologik) tabiatining namoyon bo'lishi ekanligi.

Shunday qilib, Boduen de Kurtene ilmiy faoliyatining Qozon davrida fonema real talaffuz qilinuvchi tovushlarning abstraksiyasi, modeli, invarianti, qurilma (konstrukt) sifatida baholanadi.

XIX asrning 90-yillarida u fonemaning bevosita kuzatishda tovushiar orqali namoyon bo'luvchi, lekin o'zi kuzatishda

berilmagan mavhum birlik ekanligini yana ham aniqroq bayon qiladi. «Fonema» deb nomlangan maqolasida «tovushning psixik ekvivalenti» ekanligini ta’kidlaydi. 1917-yilda nashr etilgan «Tilshunoslikka kirish» asarida fonema *inson psixikasida barqaror mavjud bo‘lgan tovush tasavvuri, so‘zlovchi ongida yashovchi model sifatida izohlanadi.*¹

Shunisi xarakterlik, Boduen asarlarida fonema goh so‘zlovchi ongida tovushlarni umumlashtirish natijasida hosil bo‘lgan ideal mohiyat sifatida, goh ilmiy mavhumshtirish (abstraksiya), lingvistik modellashtirish natijasi sifatida izohlanadi.

Boduen fonologik nazariyasining yana bir muhim jihatni fonemaning morfologizatsiyasi va semasiologizatsiyasidir. Ya’ni fonemani morfologik qurilishdagi va ma’no farqlashdagi vazifasi nuqtayi nazardan o‘rganishdir.

Boduen de Kurtenc til birligi sifatida fonemani ajratish bllan birga, uni o‘rganuvchi tilshunoslikning alohida bo‘limi bo‘lgan fonologiyaning ajratilishi lozimligini bayon qildi. Uning fikricha, fonologiya fonemalarning ma’noli birliklar hosil qilishdagi vazifalarini o‘rganadi.

Boduen de Kurtene fonemalarning morfemalarni moddiy tomondan shakliantirish funksiyasiga e’tibor berar ekan, fonetik qurshovda ularning o‘zaro ta’siri masalasi diqqatini jalb etdi. Natijada yondosh tovushlar o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjudligi, shuning uchun ular o‘zaro tobelanish va farqlanish munosabatida bo‘lishini ta’kidlaydi. Natijada u, bir tomondan, **kogerent** va **divergent**, ikkinchi tomondan **korrelativ** va **korrespondent** atamalari bilan nomlanuvchi hodisalarni ajratadi.

Olimning ta’kidlashicha, tovushlarning o‘zaro yoki birining ikkinchisiga kombinatsion tobeligi **kogerensiya** hisoblanadi. Xususan, turkiy tillarda tovushlarning qattiq-yumshoqligiga ko‘ra birining ikkinchisiga tobelanishi **kogerent munosabat** sanaladi. Masalan: **илик, қылық** so‘zlaridagi **у** va **ы** munosabati.

¹ Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Т. I, – М., 1963, с. 253.

Kombinatsion tobelik munosabati natijasida hosil bo'lgan kombinatsion o'zgarishga ***divergensiya***, divergensiya hodisasi asosida hosil bo'lgan tovushlar esa ***divergentlar*** hisoblanadi.

Uning fikriga ko'ra, divergentlar kombinatsion o'zgarishga uchragan, kelib chiqishiga ko'ra bir xil (gomogen) bo'lgan tovushlardir. Masalan, rus tilida ***лодка-лодочка***, ***год-годовой***, o'zbek tilida ***yod-yodi***, ***zid-zidla*** so'zlaridagi *t-d*, shuningdek, ***год-зода*** so'zlaridagi *o-a* tovushlari ***divergentlar***, ya'ni o'zaro divergensiya munosabatidagi tovushlar sanaladi.

Korrelativlar divergentlardan tarixan bir manbadan kelib chiqsa ham, hozirgi kunda bir-biridan farq qiluvchi turli tovushlar ekanligi bilan ajralib turadi. Masalan: rus tilida ***беги-бежать***, ***леч-лежать*** so'zlaridagi *ε-ж*, *ч-ж* tovushlari korrelativlardir.

Korrelativ va ***divergentlar korrespondentlarga*** qarama-qarshi qo'yiladi. Tarixan bir manbadan kelib chiqib, hozirgi qardosh tillarda farqli talaffuz qilinuvchi tovushlar o'zaro korrespondent munosabatidagi tovushlar yoki ***korrespondentlar*** sanaladi. Masalan, yunoncha pater, poot, ingl. father, foot so'zlaridagi *p* va *f* tovushlari o'zaro korrespondent munosabatidagi tovushlar hisoblanadi.

Korrelativ va ***korrespondent*** singari tovushlarga o'xshatib bo'lmaydigan fonetik birlikni Boduen f o n e m a hisoblaydi. Ko'rindaniki, bu o'rinda u fonemani so'zning ma'lum fonetik qismining antropofonik xususiyatlarining umumlashigan yig'indisi sifatida baholaydi.

Xullas, Boduen jahon tilshunosligi tarixida statika-dinamika, til-nutq zidlanishi to'g'risidagi tushunchaning paydo bo'lishida, tilning sistema ekanligi, uning belgili tabiatini to'g'risidagi qarashlarining shakllanishida hamda fonema nazariyasining vujudga kelishida xizmati kattadir.

Nazorat savollari

1. Boduen de Kurtene lingvistik konsepsiysi qanday falsafiy asosga suyanadi?
2. Boduen lingvistik ta'limotining muhim jihatlari nimalardan iborat?
3. Boduenning fonema haqidagi qarashlari qanday?
4. Boduenning morfema haqidagi qarashlari qanday?
5. Boduen kogerent, divergent, korrelativ, korrespondent atamalari orqali qanday tushunchalarni ifodalaydi?
6. Boduen de Kurtenening tilshunoslik tarixida tutgan o'rni qanday?

F. de SOSSYUR – STRUKTUR TILSHUNOSLIKNING ASOSCHISI

Dunyoda ajoyib voqealar ko‘p. «Umumiy lingvistika kursi» kitobi ham ana shunday ajoyibotlardan biridir. Uning ajoyibligi shundaki, kitob F.de Sossyur nomi bilan nashr qilingan bo‘lsa ham, lekin bunday kitobni yozish va nashr qilishni u hayoliga ham keltirgan emas. Bu kitobni F.de Sossyur nomi bilan chiqargan va unga dunyo miqyosida mislsiz shuhurat olib bergen kishilar shogirdlari Sh. Balli va A. Seshelardir.

Bu ikki zot o‘z ustozining nomini dunyo tilshunosligi tarixida yuqori cho‘qqiga olib chiqishga musharraf bo‘lishiari bilan birga, ustozlarga sadoqat namunasimi ko‘rsatdilar va shu sadoqatlari bilan jahon ilmiy jamoatchiligini lol qoldirdilar.

Aslida F.de Sossyur 1907–1911- yillarda Jeneva universitetida «Umumiy lingvistika kursi» bo‘yicha uchta kursga ma’ruzalar o‘qiydi.

F.de Sossyurning ma’ruzalari shu qadar mazmunan boy va mundarijasi yangi ediki, tinglovchilar unga lol qolardilar. F.de Sossyur vafotidan bir yil o‘tgandan so‘ng, shogirdlari Sh.Balli va A.Seshelar 1907–1911- yillar davomida F.de Sossyur ma’ruzalarini tinglagan talabalarning konspektlari asosida uning ma’ruzalarini kitob holida nashr qilishni hayollariga keltirdilar. Natijada to‘qqiz kishining konspektini topdilar va ana shu konspektlar asosida F.de Sossyur ma’ruzalarini tiklashga harakat qildilar. Ana shunday harakat tufayli 1916- yilda F.de Sossyur nomi bilan bu asar dunyoga keldi.

Mashhur tilshunos E.Benvenist tilshunoslik taraqqiyotini falsafiy, qiyosiy-tarixiy davrlarga bo‘lar ekan, F.de Sossyurning ushbu kitobining nashr etilishi natijasida lingvistika tarixida yangi davr boshlanganini ta’kidlaydi. Bu davr lingvistikasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning o‘rganish obyekti til falsafasi ham, grammatik shakllarning tarixiy taraqqiyoti ham emas, balki tilning immanent realligi hisoblandi. Natijada lingvistika formal, qat‘iy, sistematisk fanga aylanishga intildi.¹

¹ Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М., 1974, с. 23.

Ferdinand de Sossyur tilshunoslik tarixining uch taraqqiyot bosqichini ko'rsatadi.¹

Tilshunoslik tarixining ilk davrini «grammatika» davri deb nomlaydi. Bu davr tilshunosligi yunonlarda shakllanib, Fransiyada gullab-yashnaganligini ta'kidlaydi. Bu tilshunoslik asosan mantiqqa tayangan bo'lib, tilning o'ziga xos xussiyatlarini ilmiy asosda obyektiv ravishda yoritib berishdan uzoqda edi. Uning maqsadi noto'g'ri shakllardan to'g'ri shakllarni farqlash bilan cheklangan edi.

Ikkimchi davri «filologiya» davri sanaladi. Garchi «Filologiya» maktabi Aleksandriyada ham mayjud bo'lgan bo'lsa-da, lekin bu atama ko'proq 1777- yilda Fridrix Avgust Volf tomonidan asos solingan va shu kungacha davom etayotgan ilmiy yo'nalishga nisbatan qo'ilaniladi. Bu yo'nalishda til yagona o'rganish obyekti hisoblanmaydi. U o'z oldiga matnlarmi izohiaslini asosiy maqsad qilib qo'yadi. Bu asosiy vazifani hal etish adabiyot tarixi, xalqning maishiy hayoti va sotsial masalalar bilan ham shug'ullamishga olib keladi. Filologiya yo'nalishi hamma joyda o'zining tekshirish metodini – manbani tanqidiy o'rganish metodini qo'llaydi. Faqat turli davrlarga oid matnlarni o'zaro qiyosiy o'rganganda, eski yozma manbalarda mavjud bo'lgan tushunilishi qiyin so'zlar izohida yoki ma'lum muallifning individual uslubini yoritish lozim bo'lgandagina lingvistika masalalariga murojaat qilingan.

Sossyurning ta'kidlashicha, bunday yo'nalish tarixiy lingvistika uchun yo'lni tozalab bergen bo'lsa ham, lekin uning bir muhim kamchiligi mavjud edi. U ham bo'lsa, yozma nutqqa qullarcha sajda qilgan holda, jonli tilni unutib qo'ydi. Buning ustiga ular asosan yunon va lotin obidalariga qiziqish bildirdilar.

Frans Boppning 1816-yilda «Sanskrit tilida tuslanish sistemasi haqida» asarining dunyoga kelishi bilan tilshunoshikning uchinchi davri boshiandi. F.Bopp bu asarida sanskrit tilini yunon, lotin va boshqa Ovro'pa tillari bilan bog'lab turuvchi munosabatlarni ochib berdi. Lekin F.Boppga qadar liam bu tillar o'rtasidagi o'xshashlik ingliz sharqshunosi Djons tomonidan bayon qilingan edi. Lekin

¹ Соссюр Ф.дe. Курс общей лингвистики. — Труды по общему языко-знанию. — М.: «Прогресс», 1977, с. 39.

uning fikrlari ayrim dalillar bilan cheklangan bo'lib, chuqur ilmiy xulosalardan yiroq edi.

F.Boppning xizmati sanskrit tilining Ovro'pa va Osiyodagi bir qator tillar bilan qarindoshligini ochish bilan belgilanmaydi. Uning lingvistika tarixi oldidaqи xizmati shundaki, qarindosh tillarning o'zaro munosabatini o'rganuvchi alohida fanni shakllantirish mumkinligini anglatdi.

Sossyurning e'tirof etishicha, F.Boppning katta xizmati bir tilni unga o'xshash boshqa bir til asosida tahlil etish, bir tilga xos bo'lgan shaklni boshqa bir til shakli vositasida izohlashdir.

F.Boppning bunday katta yutuqqa erishuviga sanskritning ochilishi muhim rol o'ynadi. Lotin va yunon manbalaridan tashqari, uchinchi manba – sanskrit tili materiallarini ham qiyoslab o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanishida F.Bopp bilan bir vaqtda germanistikaning asoschisi Yakov Grimmning ham xizmati kattadir. Maks Myuller, Avgust Shleyxerlar tilshunoslikning bu yo'naliшини yangi materiallar bilan boyitdilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu maktab hosildor qo'riqni ochgan bo'lsalar-da, lekin ularga ham haqiqiy ilmiy lingvistikani yaratish baxti nasib etmadidi. O'rganilayotgan obyektning tabiatini ochish masalasi ularning nazaridan chetda qoldi.

Ularning xatosi shundan iboratki, o'z tadqiqotlarida chegaralangan tillar, ya'ni hind-ovro'pa tillari doirasini bilangina cheklanildilar va o'z oldilariga qiyoslash natijasi nimaga mos keladi, kashf qilinayotgan munosabat nimani bildiradi kabi savollarni qo'ymaydilar. Ularning tadqiqotlari tarixiylik o'rniغا, asosan qiyosiy bo'lib qoldi.

Sossyurning fikricha, qiyoslash tarixiy haqiqatni yoritishda zaruriy shart-sharoit tug'diradi. Lekin faqat qiyoslashning o'zi bilan cheklandish o'rganilayotgan obyekt haqida to'g'ri xulosa chiqarishga olib kelmaydi.

Faqat XIX asrning 70-yillaridan boshlab tillarning yashash sharoiti qandayligi masalasi e'tiborni torta boshladi. Natijada tilshunoslikning yangi davri boshlandi. Bu davr yosh grammatikachilar davri hisoblanadi. Ularning xizmati shunda bo'ldiki,

qiyoslash natijalarini tarixiy istiqbolga qo'shdilar va dalillarmi tabiiy tartibda joyladilar. Natijada til o'zi rivojlanayotgan organizm sifatida emas, balki til guruhlari jamoasining ruhiy hosilasi sifatida qarala boshlandi. Lekin bu maktabning tilshunoslik oldidagi xizmatlari qanchalik katta bo'lishiga qaramasdan, hamma masalalarga oydinlik kiritdi, deb bo'lmaydi. Umumiy lingvistikaning asosiy masalalarini hal qilish yana ochiq qoldi.¹

Sossyurning «Umumiy lingvistika kursi» bo'yicha ma'ruzalarini ana shu masalalarni yoritishga bag'ishlandi. Bu asarning maydonga kelishi tilshunoslik tarixida sistemaviy-struktur tilshunoslikning shakllanishiga olib keldi.

F.de Sossyurning dunyo tilshunoslida bunchalar katta shon-shuhratga olib kelishiga sababchi bo'lgan omillar nima edi?

Sossyur yosh grammatikachilarning individual til haqidagi g'oyasini davom ettirgan holda, tilda individuallik va sotsiallik o'rtasidagi munosabatga asosiy e'tiborni qaratdi.

Shuningdek, V.Gumboldtning til «ergon» emas, balki «energiya» ekanligi haqidagi g'oyasidan foydalangan holda tilshunoslikning o'rgamish obyekti nutqiy faoliyat bo'lishi lozim, degan xulosaga keladi.

Nutqiy faoliyat (Language) sotsiallik bilan individuallikni o'zida birlashtirgan murakkab jarayon ekanligini e'tirof etadi. U o'zaro dialektik aloqada bo'lgan *til* (La langue) va *nutq* (parole) ning munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligini izchil ravishda ilmiy asoslab berdi.

F.de Sossyur uchun har bir xususiy dalil butun tarkibida qat'iy o'rnini olishini ifodalab beradigan universal, fundamental tamoyil-larni belgilash muhim edi. Ana shu tamoyillar nima edi?

A.A.Xolodovichning ko'rsatishicha, Sossyurning asosiy tayanch nuqtasi semiologiya deb nomlanuvchi alohida ijtimoiy fanning bo'lishi, uning o'rganish obyekti jamiyat tomonidan foydalilanilayotgan belgilarning umumiy nazariyasi bo'lishi lozimligini ko'rsatishdir. Sossyur lingvistikani «alohida turdag'i belgilar haqidagi fan» deb hisoblaydi va uni semiologiyaning muhim tarmog'i sifatida

¹ Sossyur F.de. O'sha asar, 43-bet.

e'tirof etadi. Til eng murakkab va eng keng tarqalgan semiologik sistema ekanligini ta'kidlaydi.

Til har qanday semiologik sistema kabi ma'lum bir sharoitda rivojlanadi va ba'zan halok bo'ladi. Shuning uchun uni sharoitdan uzib olib bo'lmaydi. Shu bilan birga u o'zining ichki tuzilishi xususiyatiga ega bo'ladi. Bu esa Sossyurning e'tirof etishicha, lingvistikami ikki turga — tashqi va ichki lingvistikaga bo'lishni taqozo etadi.

Tasliqi lingvistika tilning yasliashi uchun zarur bo'lgan tasliqi shart-sharoitlarni o'rganadi.


Ichki lingvistika esa o'zi o'rganayotgan obyektning ichki tuzilishi va xususiyatini o'rganadi.

F.de Sossyurning o'qigan ma'ruzalari ana shu tartibga asoslanadi.

Ichki lingvistikaning o'rganish obyekti nutqiy faoliyatdir.

Nutqiy faoliyat

F.de Sossyur nutqiy faoliyat (Langue) ning individuallik va sotsiallik belgilarini o'zida mujassam etgan butunlik ekanligi va uning til (Langue) — nutq (parole) munosabati birligidan tashkil topishini ta'kidlaydi. U nutqiy faoliyatni quyidagicha ifodalaydi:



Nutqiy faoliyat doirasida ikki asosiy tushunchani — **til** (langue) va **nutq** (parole) ni ajratdi. Shu asosda lingvistikani ham ikki turga — til lingvistikasi va nutq lingvistikasiga bo'ldi. Lekin amalda asosan til lingvistikasiga e'tiborini qaratdi.

Garchi til-nutq dixotomiyasi F.de Sossyurgacha V.Gumboldt, yosh grammatikachilar maktabi va Boduen tomonidan bayon qilingan bo'lsa ham, lekin F.de Sossyur uni lingvistik sistemasining markaziga aylantirdi.

Xolodovichning e'tirof etishiga ko'ra, Sossyurning bu dixotomiyasiga murojaat etmagan biron bir fikrlovchi lingvist topilmasa kerak.

Sossyurning fikricha, nutqiy faoliyatning ikki tomoni mavjud: individual va sotsial. Ularni bir-birisiz tasavvur qilish mumkin emas. «Til» nima degan savolga javob berar ekan, u «til» tushunchasiga «nutqiy faoliyat» teng kelmasligi, «til» «nutqiy faoliyat»ning bir qismi, lekin eng muhim qismi ekanligini, u sotsial mahsulot ekanligi, u yoki bu til egalarining har biri xotirasida mavjud bo'lgan nutqiy faoliyatga kirishish imkoniyati ekanligini ta'kidlaydi.¹

F.de Sossyur tilning belgilar sistemasi ekanligini e'tirof etish bilan birga, uning tuzilishi haqida ham qimmatli fikr bayon qiladi. U tilni munosabatiar yig'indisi sifatida ijtimoiy hodisalar qatorida o'rghanar ekan, uning boshqa ijtimoiy hodisalardan farqi belgili xarakteri ekanligini, «til g'oyalarni ifodalovchi belgilar sistemasi» ekanligini bayon qiladi.

Uning fikricha, til – bu bir ijtimoiy jamoaga mansub bo'lgan kishilarning nutqiy amaliyoti orqali to'plangan bir xazinadir. Bu har bir til egasi ongida virtual mavjud bo'lgan grammatik sistema, to'g'rirog'i, u individlar yig'indisi ongida yashaydi. Chunki til hech bir alohida individda to'liq mavjud bo'lmaydi, u to'liq holda faqat jamoada mavjud bo'ladi.²

Nutqiy faoliyatni til va nutqqa bo'lar ekan, bu bilan F.de Sossyur sotsiallikni individuallikdan, muhimni nomuhimdan, qo'shimcha, tasodifiy holatlardan farqlanishini bayon qiladi.

F.de Sossyur tilning so'zlovchi faoliyati (fonetion) emas, balki so'zlovchi tomonidan passiv ro'yxatga olinadigan tayyor mahsulot ekanligini ta'kidlaydi.

Alan Gardinerning ta'kidlashicha, F.de Sossyurning katta xizniati shundaki, u «til» va «nutq» o'rtasidagi farqlanishga e'tibor qaratdi. Bu shunday muhim farqlanishki, u keyinchalik har qanday grammatikaning ilmiy tadqiqi uchun muqarrar asos bo'lib qoladi.³

¹ Sossyur F.de. O'sha asar, 47-bet.

² Sossyur F.de. O'sha asar, 52-bet.

³ Гардинер А. Различие между «речью» и «языком». — Звегинцев В.А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. — М., 1960, с. 13.

Bugungi kunda bunday farqlanish, darhaqiqat, har qanday lingistik tadqiqot uchun tayanch nuqtaga aylanib qoldi. Hozirgi davrda bu farqlanishni e'tirof etmagan biron bir tilshunos topilmasa kerak.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, til-nutq dixotomiysi olg'a surilgandan buyon bu farqlanishga yondashuv, uning talqini tilshunoslar o'rtaSIDA bir xil bo'lgan emas.

Xususan, O.Yespersenning 1925- yil Osloda nashr etilgan «Insoniyat, millat va individ lingistik nuqtayi nazaridan» mavzusidagi ma'ruza matnlaridayoq «til» va «nutq» haqidagi qarashlari F.de Sossyur qarashlaridan anchagini farq qilishining guvohi bo'lamiz.

O. Yespersinning fikricha, til va nutq o'rtaSIDAGI farqlanish individ va jamiyat o'rtaSIDAGI lingistik odAT farqlanishning gavdalanishidir. Xususan, u nashr etilgan ma'ruza matnining 16-sahifasida «til» va «nutq» o'rtaSIDAGI farqlanishida men individual «ong»ga qarama-qarshi qo'yilgan «xalq ongi», «jamoa ongi» yoki «to'da ongi» nazariyasining variantidan boshqa hech narsani ko'rmayman, deb yozadi. Ana shu fikrlar asosida muallif shunday xulosa qiladi: har bir individ o'zining nutqi uchun tashqaridan beriladigan me'yorga ega bo'ladi. Amalda u boshqalarining individual nutqlarini kuzatish yo'li bilan qo'lga kiritiladi. Shu asosda aytishimiz mumkinki, til (la langue) go'yo nutqning (la parole) ko'pligidir. Bu xuddi «ko'p otlar» «bir necha» otlardan tashkil topganiga o'xshaydi. Ya'ni ot₁ + ot₂ + ot₃, munosabatida ot₂ ot₁ dan, ot₃ esa ot₂ dan ma'lum belgilari bilan farq qiladi. Xuddi shunga o'xshash barcha individual tillar jamlanib milliy tilni hosil qiladi.

Ana shu asosda O.Yespersen Sossyurning til va nutq farqlanishi haqidagi nazariyasini o'zicha izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, individning oniy lingistik funksiya bajarishi nutqdir. Yoki nutq individning lingistik odatlari yig'indisidir.

Alan Gardiner individual «til» va individual «nutq» haqidagi olimlar fikrlariga to'xtalar ekan, bunga Sossyurning munosabati haqida shunday yozadi: «Men shunga aminmanki, u individual «til» va «nutq» o'rtaSIDA xuddi jamiyat tili va uning har bir a'zosi nutqi o'rtaSIDA katta farqlanish mavjud bo'lGANI kabi farqli tomonni ajratadi».¹

¹ Gardiner A. O'sha asar, 14-bet.

A.Gardinerning fikricha, *har qanday lug'at va har qanday sintaktik modellar yig'indisi tildir. Qisqa muddatli, tarixan betakror so'zdan foydalanish faoliyati nutqdir*. Nutq aniq zamon va makon bilan bog'liq. U betakrorlik xususiyatiga ega. Bir sintaktik model asosida yuzaga chiqqan har bir jumla aniq bir makon va zamonda muayyan shaxs tomonidan yuzaga chiqariladi. Boshqa vaqtida, boshqa makonda aytilgan xuddi shu jumla oldingisiga aynan o'xshamaydi. Shuning uchun u betakrorlik xususiyatiga ega bo'ladi.

Ko'pchilik an'anaviy tilshunoslik tarafdarlari o'rtasida til va nutqni farqlashning lingvistika uchun nima ahamiyati bor degan savol tug'llishi mumkin. Alan Gardiner bu savolga birinchi darajali ahamiyatiga ega deb javob beradi.¹

Uning fikricha, har qanday real gapda ikki qatordagi hodisa mavjud bo'ladi. Ulardan birinchi qatordagisi so'zlovchi shaxsga qadar uning til xotirasida mavjud bo'lgan lug'aviy birliklar va grammatik sxemalardir. Bular «til» dalili hisoblanadi. Ayni paytda har bir real gap ma'lum so'zlovchi subyektning ijod mahsuli va u ma'lum maqsadda muayyan bir makonda va zamonda bayon qilinadi. Gapda o'z ifodasini topgan ana shu belgilar «nutq» dalili sanaladi.

Shunday qilib, «til» va «nutq» zidlanishi o'zida mohiyat-hodisa dialektikasini namoyon etadi va til sistemasining barcha sathlarini qamrab oladi.

Alan Gardiner «til» va «nutq» o'zaro farqlanishi bilan birga, ularning bir-birisiz mavjud bo'lmasligini, ular o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ham alohida ta'kidlaydi. Nutq tilsiz yuzaga chiqmasligi, til nutq orqali funksiyalashuvi, tilning ana shu maqsadni amalga oshirish uchungina mavjud bo'lishi bayon qilinadi. «Agar men muayyan matndagi ma'lum hodisani tilga emas, nutqqa xos, desam, u holda matndan til elementi deb hisoblangan barcha an'anaviy elementlar chiqarib tashlangandan so'ng, so'zlovchining o'zi bilan bog'liq bo'lgan qoldiq nutq elementi sanaladi».

U til va nutqni o'zaro izchillik bilan farqlagan holda lingvistik atamalarni ham ana shunga mos holda ziddlash zarurligini bayon qiladi. Xususan, u tilshunoslarning «gap» atamasini bir vaqtning

¹ Gardiner A. O'sha asar, 15-bet.

o‘zida ham til, ham nutq dalili uchun qo‘llashlarini tanqid qiladi. Uning fikricha, til va nutq atamalari bir-birini rad qiladi. U yoki bu atama yo tilga, yoki nutqqa xos bo‘ishi lozim. Bir vaqtning o‘zida ikki yo‘ldan ketish munikin emas.

L. Yelmslev ham F.de Sossyurning til va nutq dixotomiyasiga yuqori baho beradi. Uning fikricha, Sossyur ta’limotining mohiyati til va nutqni farqlashdir. Boshqa barcha nazariyalar mantiqan ana shu assosiy tezisdan keltirib chiqariladi.

Sossyurgacha bo‘lgan lingvistika individuum xulqiga tayandi, nutqiy faoliyat individual aktlar yig‘indisi sifatida tasavvur qilindi.

Xuddi mana shu yerda yangi lingvistik nazariya bilan an‘anaviy nuqtayi nazarning prinsipial farqlamishi va, ayni paytda, tutash nuqtasi kuzatiladi. F.de Sossyur so‘zlashish jarayonidagi individuning ahamiyati va limgistik o‘zgarishlarda uning roliga katta e’tibor berdi. Ana shu yo‘l bilan an‘anaviy tilshunoslik bilan struktur tilshunoslik o‘rtasiga ko‘prik o‘matdi. Shu bilan bir vaqtda an‘anaviy tilshunoslikdan jiddiy farq qiladigan tamoyilni — an‘anaviy tilshunoslikni o‘zgartirish yoki to‘ldirish lozim bo‘lgan struktur lingvistikani yaratish tamoyilini shakllantirdi.

L. Yelmslevning fikriga ko‘ra, lingvistikaga strukturlik tamoyili kiritilgan hozirgi kunda bu tamoyildan har xil mantiqiy natijalar olish uchun katta hajmdagi ishlarni amalga oshirish lozim.¹

Tilning sistema ekanligi

F.de Sossyurning tilshunoslik oldidagi katta xizmati shundaki, u tilni substansiya emas, balki shakl ekanligini e’tirof etdi va bu bilan tilshunoslik tarixida til-nutq zidlanishini birinchi planga olib chiqdi. Tilshunoslар diqqatini nutqiy qurshovdan holi bo‘lgan mohiyatiarni o‘rganishga jalb qildi va tilning sistema ekanligini e’tirof etdi.

U tilda sinxron va diaxron holatlarni farqlar ekan, tilning sinxron holati uchun sistema xarakterli ekanligini ta’kidlaydi.

¹ Ельмслев Л. Язык и речь. – Звегинцев В.А. История языкоznания. с. 58.

F.de Sossyur sistemaning ikki muhim xususiyatini ko'rsatadi:
a) sistemaning barcha a'zolari tenglikka ega; b) sistema yopiq hisoblanadi. Lekin keyinchalik til sistemasida ochiq sistemalar ham borligi aniqlandi.

F.de Sossyur konsepsiyasida sistema atamasi bilan birgalikda struktura atamasi ham muhim ahamiyatga ega. Struktura atamasi ostida sistema a'zolarining munosabat tiplari tushuniladi.

E.Benvenist turli sistemalarni tahlil qilish natijasida til shakllari ma'lum strukturaga ega, degan xulosaga keladi va uning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatadi:

1) u qismlari ustidan hukmronlik qiladigan ma'lum butunlikning birligi sanaladi;

2) bu birliklar ma'lum barqaror tamoyillar asosida shakliy tartibga solingandir;

3) butunning barcha qismlari u yoki bu vazifani bajarganligi tufayligina struktura xarakteriga ega bo'ladi;

4) bu qismlar ma'lum sathning har bir birligi boshqa yuqoriroq sathning kichik birligi, ya'ni butunning bo'lagi bo'lishi mumkin.

Munosabatlar yig'indisi tilning aloqa vositasi sifatida amal qilishini belgilaydi. Bu esa uning sotsialligini ko'rsatadi. Lekin tilning boshqa sotsial hodisalardan, xususan, siyosiy, huquqiy hodisalardan farqi nimada, degan savolga F.de Sossyur: «*Til g'oyalarni ifodalovchi belgilar sistemasidir*», deb javob beradi. Shuning uchun Sossyur lingvistik ta'limotida lingvistik belgi masalasi markaziy o'rinni egallaydi.

Tilning belgilar sistemasi ekanligi

F.de Sossyur lingvistik konsepsiyasining yana bir muhim jihatni tilning belgilar sistemasi ekanligi haqidagi qarashidir.

Til kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. U obyektiv borliqdagi ma'lum voqeа-hodisa haqida axborot tashuvchi asosiy vositadir. Bundan axborot tashishning boshqa yo'llari ham borligi ma'lum bo'ladi. Masalan, yo'l harakatidan ma'lumot beruvchi vositalar, yo'ldan o'tish-o'tmaslik xabarini beruvchi vositalar va boshqalar. Bu jihatdan til ham axborot berish uchun xizmat

qiladigan yuqoridagi vositalar sirasida turadi. Ularning hammasi uchun umumiy narsa, avvalo, o‘zi haqida va shu bilan birga borliqdagi boshqa ma’lum narsa-hodisalar haqida ma’lumot berishdir. Bunday vositalar **b e l g i l a r** deb nomlanadi.

Inson o‘zini qurshab turgan olamni bilish jarayonida olam unsurlarini obrazlar orqali ongida aks ettiradi va bu ongda aks etgan olam unsurlari belgi orqali ifodalanadi. *Sotsial axborotning har qanday moddiyiy ifodalovchilari b e l g i hisoblanadi.*

Tilning belgilari sistemasi ekanligi uning asosiy xususiyati va universal tomonidir.

XIX asr oxiriga qadar belgi nazariyasi bilan asosan faylasuflar shug‘ullandilar. Faqat XIX asr oxiridan boshlab bu masala ruhshunoslarning hani diqqatini jalb qildi.

Belgi haqidagi falsafiy nazariya o‘zining uzoq tarixiga ega.

Qadimgi ellinlar narsaning mohiyati va ularning nomlanishi yuzasidan ilmiy bahslaridayoq yashirin holda belgi tushunchasiga asoslangan edilar.

Faylasuflar ta’sirida XIX asrdan ooshlab tilning umumiy nazariyasiga bag‘ishlangan deyarli barcha lingvistik asarlarda so‘z ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lgan belgi sifatida talqin qilina boshiadi. V. Gumboldt, Shleyxer, Shteyntal, L. Breal, A. Meye, F. Fortunatov, I.A. Boduen de Kurtene, N. Krushevskiy asarlarida so‘zga belgi nuqtayi nazaridan yondashiladi. Lekin F.de Sossyur tilning belgili tabiatini aniq-ravshan yoritib berdi. Hatto belgi nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi alohida fan – **semioziya** fani mayjud bo‘lishini va lingvistika ham semiologiya tarkibiga kirishi lozimligini ta’kidladi.


Bir tomonidan, strukturalizmning muvaffaqiyati, ikkinchi tomonidan, semiotika fanining rivojlanishi tufayli 50-yillardan boshlab belgi muammosiga qiziqish yanada ortdi. Lingvistik muammolarni semiotik aspektida o‘rganish lingvistikaning o‘zini ham o‘rnining o‘zgarishiga olib keldi. U ham inson bilimlari sistemasida markaziy o‘rin oluvchi fanga aylandi.

Hozirgi kunda belgining turli aspektlarini hisobga oluvchi turli ta’riflari mayjud. Uning hamma qirralarini hisobga olgan holda Yu.S. Maslov shunday ta’rif beradi: «*Belgi – bu idrok qilinadigan*

narsa bo'lib, idrok qiluvchiga o'zi haqida va ushbu belgidan tashqari bo'lgan boshqa narsa haqida ma'lumot beruvchi vositadir».

Belgini aniqlashda, odatda, uning ikki xususiyati ko'rsatiladi: belgining birinchi xususiyati idrok qilinishdir. Demak, u idrok qilinishi uchun ma'lum moddiy asosga ega bo'lishi kerak. Belgining moddiy asosi turlichcha bo'llshi mumkin; tovush (akustik), ko'rish (optik), maza (gustator) va boshqalar.

Belgining ikkinchi xususiyati o'zi haqida va boshqa obyekt haqida ma'lumot berishdir. Anglashiladiki, har qanday belgida o'zaro ma'lum munosabatda bo'lgan ikki obyekt mavjud bo'ladi. Obyektlar o'rtasidagi munosabat ikki xil: **sabab-natijali** munosabat va **shartli** munosabat. Sabab-natijali munosabatda o'zaro munosabatda bo'lgan obyektlar motivlangan, shartli munosabatda esa motivlanmagan bo'ladi. Obyektlar o'rtasidagi bu ikki munosabatni quyidagi sxemalar orqali ifodalash mumkin.



Demak, belgilar obyektiy reallikkagi o'zi aks ettirgan obyektga munosabatiga ko'ra motivlangan va motivlanmagan belgilarga bo'linadi. Masalan, tutunni ko'rib, yong'in yoki olov haqida, o'rik gullaganini ko'rib, bahor fasli haqida, suv jimirlaganini ko'rib, baliq haqida, tosh so'zini eshitib, qattiq jism haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Birinchi obyektlar (tutun, o'rik guli, suv jimirlashi, tosh so'zi), ikkinchi obyektlar (олов yoki yong'in, bahor, baliq, qattiq jism) haqida axborot berish uchun xizmat qilyapti. Bularдан dastlabki uch obyekt o'rtasida (tutun va olov, o'rik guli va bahor, suv jimirlashi va baliq) tabiiy bog'lanish, sabab-natijali munosabat, ya'ni obyektlar aloqasida motivlanish (motivatsiya) bor. Oxirgi obyektlar (tosh so'zi va qattiq jism) munosabatida esa tabiiy

bog‘lanish, sabab-natijali munosabat (motivatsiya) yo‘q. Ular o‘rtasidagi munosabat shartli.

Mashhur Amerika olimi K.Fon Frishning ma’lumotiga ko‘ra asalarilar o‘yini ham belgi vazifasini bajaradi. Asalari o‘yinining shakli va chastotasi ozuqa manbayining masofasi hamda yo‘nalishi haqida ma’lumot beradi. Doira shaklidagi o‘yini ozuqa manbayining asalari uyasidan uzoq emasligini, yuz metr atrofida ekanligini, sakkiz shaklidagi o‘yini esa birdaniga ikki axborot – ozuqa manbayining masofasi yuz metrdan ancha ortiqligi va yo‘nalishini bildiradi. Masofa ma’lum vaqt ichida bajarilgan o‘yin shaklining miqdoriga bog‘liq. Masofa uzunligi asalari o‘yini chastotasiga teskari proporsionaldir. To‘qqiz-o‘nta sakkizlik bo‘lsa, yuz metr atrofidagi masofani, yettita sakkizlik shakli 200 metr masofani, to‘rt yarim sakkizlik shakli bir kilometr masofani, ikki sakkizlik shakli esa olti kilometr masofani ko‘rsatadi. Masofa qancha uzoq bo‘lsa, o‘yin shuncha sekin bo‘ladi. Yo‘nalish esa «sakkizlik» o‘qining nisbatiga ko‘ra belgilanadi. Quyoshga nisbatan «sakkizlik» o‘qining o‘ngga yoki chapga burilish burchagi yo‘nalish tomonini aniq ko‘rsatadi.

Asalari o‘yinining shakli va chastotasi bilan ular ifodalagan axborot o‘rtasida ham shartli, motivlanmagan munosabat bor.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, biri ikkinchisi bilan almashinib keladigan har qanday ikki obyektning biri belgi bo‘lavermaydi. Faqat biri o‘rnida ikkinchisi muttasil almashinadigan va bu almashinuv (eng muhimi) inson ongida aks etganidagina belgilashadi. Masalan, tutun olovning belgisidir. Ammo uning belgiligi obyektlar o‘rtasidagi tabiiy sabab-natijali (sabab-olv, natija-tutun) munosabat emas, balki bu munosabatning inson ongida aks etganligi, konvensionalligi uchundir. Aks holda tabiatdagi har qanday sabab-natijali munosabatda bo‘lgan obyektlar o‘zlariga tabiiy ravishda belgi yaratib olardi.

Sabab-natijali munosabat (motivlangan) belgilar tabiatdagi obyektlar o‘rtasidagi munosabatni inson ongida aks etishidan vujudga keladi. Shartli munosabat (motivlanmagan) belgilarda esa obyektlar o‘rtasidagi munosabat inson tomonidan hosil qilinadi. Ana shu subyekтив hosil qilingan aloqa b e l g i m a z m u n i


(konsept yoki signifikat) hisoblanadi. Belgi orqali ifodalangan obyekt esa **denotat** yoki **referent** atamalari bilan nomlanadi.

F.de Sossyurning fikricha, til belgilari o‘z tabiatiga ko‘ra garchi psixik bo‘lsa ham, lekin u abstraksiya emas, balki jamiyat a’zolari til xotirasida joylashgan reallikdir.¹ U ayrim mualliflarning til alohida narsalarning nomlari yig‘indisi (nomenklaturasi) degan qarashlariga tanqidiy munosabatda bo‘ladi.

Uning fikricha, lingvistik belgi **narsa** va uning **nomi** o‘rtasidagi munosabatdan emas, balki **tushuncha** va **akustik obraz** o‘rtasidagi munosabatdan tashkil topadi. Akustik obraz deganda fizik holat, moddiy tovushlar yordamida ifodalananish emas, balki tovushlanishning psixik muhri, sezgi a’zolarimiz tomonidan tovush tomoni haqida tasavvur tushuniladi.

Akustik obrazlarning psixik xususiyatini o‘zimizning shaxsiy nutqiylar tajribamizda aniq kuzatishimiz mumkin. Labimizni ham, tilimizni ham qimirlatmasdan turib, ichimizda o‘z-o‘zimizga gapirishimiz yoki ma’lum she’riy parchani fikran o‘qishimiz mumkin. Til birligi bo‘lgan so‘zning tashqi tomoni akustik obraz bo‘lgani uchun ham uning tashqi tomoni tarkibiy qismlari haqida fikr yuritganda, «fonema» haqida gapirib bo‘lmaydi. Chunki bu atama fonatsiya jarayoniga, faqat real talaffuz qilimgan so‘zga taalluqlidir.

Shunday qilib, lingvistik belgi, F.de Sossyur talqiniga ko‘ra, ikki tomonlama psixik mohiyat bo‘lib, tushuncha va akustik obraz o‘rtasidagi munosabatdan tashkil topgan.



Bu ikki tomon o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini taqozo etadi.

¹ Sossyur F.de. O’sha asar, 53-bet.

F.de Sossyur o'zigacha bo'lgan olimlar belgi deganda faqat akustik obrazni tushunganiga tanqidiy yondashgani holda, lingvistik belgi tarkibiy qismlarini ifodalovchi tushuncha atamasini ifodalanmish atamasiga, akustik obraz atamasini ifodalovchi atamasiga o'zgartirishni tavsiya etadi. Bunday vaqtida ***lingvistik belgi*** atamasi butunni, keyingi ikki atama esa uning ikki tarkibiy qismini ifodalaydi. Keyingi ikki atamaning qulayligi shundaki, avvalo, butun tarkibidagi unsurlarning o'zaro zidlanishini, qolaversa, butun va bo'lak zidlanishini to'g'ri ifodalaydi.

Lingvistik belgi eng muhim ahamiyatga molik ikki xususiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Ularning birinchisi ***erkinlik*** (proizvolnost), ikkinchisi esa ifodalovchining ***ketma-ketligidir*.**¹

Lingvistik belgining erkinligi

F.de Sossyurning talqiniga ko'ra, har qanday lingvistik belgi ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi. Lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmishi o'rtaсидаги munosabat erkindir.

Masalan: *opa* tushunchasi *o-p-a* tovushlar ketma-ketligi bilan hech qanday ichki munosabatga ega emas. Bu tushuncha boshqa har qanday tovushlar ketma-ketligi asosida ham ifodalanishi mumkin. Bu turli tillarda mazkur tushunchaning turlicha ifodalanishi va turli tillarning mavjudligi bilan ham izohlanadi.

Bu o'rinda erkinalik atamasining ma'nosiga alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi. Garchi lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmish tomoni o'rtaсидаги munosabat erkin bo'lsa ham, lekin bundan so'zlovchi belgining ifodalovchi tomonini erkin tanlaydi, degan xulosaga kelmaslik lozim.

So'zlovchi lingvistik belgining jamoatchilik tomonidan qabul qilingan ifodalovchi tomoniga ozgina bo'lsa-da o'zgarish kirita

¹ Sossyur F.de. O'sha asar, 100-bet.

olmaydi. U o‘zining til xotirasida o‘zigacha bo‘lgan ifodalovchi va ifodalamanish munosabatidan tashkil topgan lingvistik belgini bir butun holda o‘zlashtiradi.

Lingvistik belgining erkinligi faqat uning ifodalovchi tomonining ifodalamanish tomoniga nisbatandir. Chunki bu ikki tomon o‘rtasida hech qanday tabiiy aloqa yo‘qdir.

Shu bilan birga, til sistemasida bu tamoyilga istisnolar ham uchraydi.

Xususan, F.de Sossyur tovushga taqlid so‘zlar bilan undov so‘zlarni ana shunday belgilar qatoriga qo‘sadi. Lekin ularning kam sonligi va til sistemasining «organik elementi» emasligi, shuning uchun bu holatlar lingvistik belgining erkinligi tamoyilini rad etolmasligini ta’kidlaydi.¹

Lingvistik belgi ifodalovchisining ketma-ketligi

Ifodalovchi o‘z tabiatiga ko‘ra eshitish sezgisi orqali qabul qilinish xususiyatiga ega bo‘lganligi tufayli vaqtida kengayib boradi. Shuning uchun u vaqt belgisiga ko‘ra tavsiflanadi: a) u cho‘ziqlik belgisiga ega; b) bu cho‘ziqlik bir o‘lchovga ega.

Lingvistik belgining bu belgisi tadqiqotchilar diqqatini kam jalb etadi. Chunki u aniqqa o‘xshab ko‘rinadi. F.de Sossyurning ta’kidlashicha, lingvistik belgining ketma-ketlik tamoyili xuddi birinchi tamoyil kabi muhimdir. Butun til mexanizmi bu tamoyill bilan bog‘langan.

Lingvistik belgining boshqa belgilardan, xususan, dengiz signallaridan asosiy farqi shundaki, u eshitish orqali qabul qilinadi va eshitilgan ifoda tomoni tovush ketma-ketligiga ega. Bir vaqtning o‘zida ikkita tovushni talaffuz qilib bo‘lmaydi. Bir element talaffuz qilingandan so‘ng, ikkinchisi talaffuz qilinadi. Ayniqsa, lingvistik belgining ifodalovchisi yozuv orqali ifodalanganda uning bu xususiyati yana ham ravshan namoyon bo‘ladi. Bir harfdan so‘ng ikkinchisi yoziladi.

¹ Sossyur F.de. O’sha asar, 102-bet.

Lingvistik belgining o'zgaruvchanlik va o'zgarmasligi

F.de Sossyur belgining «o'zgaruvchanlik va o'zgarmaslik» antinomiyasini belgining erkinligi tamoyilining amal qilish oqibati deb hisoblaydi.

Beglining o'zida erkinlik va majburiylik antinomiyasi amal qilishini ta'kidlaydi. Bir tomondan, o'zi ifodalagan tushunchaga nisbatan ifodalovchi erkin bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu belgilardan foydalanuvchi til jamoasi uchun ifodalovchi majburiydir. Chunki til oldingi davning merosi sifatida keyingi avlodlarga o'tadi. Ma'lum bir tushunchaning nomini har kim o'zi xohlaganicha o'zgartirilmaydi. Har bir jamiyat tilning oldingi davrdan meros bo'lib o'tadigan, qanday bo'lsa, shunday holda qabul qilinuvchi tayyor mahsulot ekanligini yaxshi biladilar.

Tilning muayyan bir davrdagi holati tarixiy omillarning mahsulidir. Bu esa belgining o'zgarmaslik sababini ko'rsatadi. Lekin til o'tmish merosi degan hukm bilan cheklansak, u tildagi o'zgarish jarayonlari haqida hech qanday tasavvur bermaydi.

Beglining erkinligi nazariy jihatdan uning moddiy tomoni bilan ma'no tomoni o'rtasidagi munosabatning erkinligini ta'minlaydi. Demak, belgi ostida birlashgan bu ikki tomon erkin ravishda yashaydi va muayyan kuchlar ta'sirida rivojlanadi. Evolutsiya yo tovush tomonini, yoki ma'no tomonini qamrab oladi. Bu evolutsiya muqarrardir. Undan holi bo'lgan birorta til uchramaydi. Ma'lum vaqt oralig'ida har bir tilda sezilarli ravishda o'zgarish ro'y beradi.

Beglining zamonda uzluksizligi va o'zgaruvchanligi umumiyligi semiologiya tamoyilidir. Buni yozuv sistemasida, kar-soqovlar tilida yaqqol kuzatish mumkin.


Beglining uzluksizlik sababi kuzatishga aniq beriladi. Lekin belgining zamonda o'zgarishi sababi haqida bunday fikrni aytib bo'lmaydi. Zamon har qanday narsani o'zgartiradi. Til ham bu umumiyligi qoidadan mustasno emas.

F.de Sossyur belgining «o'zgaruvchanlik va o'zgarmaslik» xususiyati haqida fikr yuritar ekan, quyidagi xulosaga keladi:

1. *Nutqiy faoliyatning* ikki tarkibiy qismdan (faktuer): *til* va *nutqdan* tashkil topganligi e'tirof etiladi. Sossyur uchun til – bu *nutqiy faoliyat minus nutqdir*.

U alohida shaxsning boshqalar fikrining tushunishi uchun imkon beradigan til ko'nikmalari yig'indisidir.


2. Lekin tilning bu ta'rifi uni sotsial reallikdan tashqarida qoldiradi. U faqat reallikning bir tomonini individual aspektinigina o'z ichiga oladi. Til bo'lishi uchun esa so'zlashuvchi jamiyatning bo'lmosg'i ham lozim. Til jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Chunki til semiologik hodisadir. Tilning sotsial tabiatи – uning ichki xususiyatlaridan biridir. Tilning to'liqroq ta'rifi ikki o'zaro bog'liq hodisalarni til va so'zlashuvchi jamoa o'rtasidagi munosabatni qamrab olishi lozim bo'ladi. U quyidagi sxema orqali ifodalanadi:



1-sxema.

1-sxema tilning hayotga qodirlik imkoniyatinigina ifodalaydi xolos. Hali bu sxema ostida berilayotgan til yashayotgan til emas. Chunki u faqat tilni sotsial reallik belgisinigina qamrab oladi xolos.

So'zlashuvchi jamoani zamondan tashqarida qarash sotsial kuchlarning tilga ta'sirini o'rganishga imkon bermaydi. Haqiqatga yaqinlashmoq uchun yuqoridagi sxemaga zamon harakatini ifodalovchi belgini qo'shish lozim bo'ladi, ya'ni



2-sxema.

2-sxemada zamon sotsial kuchlarning tilga ta'sir qilishiga imkon berishi aks etadi. Shunday qilib, tilning zamonda uzlusizligi e'tirof etiladi. Uzlusizlik esa ifodalovchi bilan ifodalanmish o'rtasidagi munosabatning davrlar o'tishi bilan ma'lum darajada o'zgarishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, F.de Sossyur ta'limotida tilning sotsialligi e'tirof etilishi bilan birga, uni individualik va sotsiallik, til hamda nutq, barqarorlik va o'zgaruvchanlik, erkinlik hamda majburiylik dixotomiyalari asosida o'rganish markaziy o'rinni egallaydi.

Lingistik qiymat tushunchasi

F.de Sossyur lingistik ta'limotida qiymat tuslunchasi muhim ahamiyatga ega. Hatto u til sof qiymatlar sistemasi deydi.¹ Olimning fikricha, bunga ishonish uchun uning ikki o'zaro munosabatda bo'lgan elementlarini: tushuncha va tovushlarni ko'rib chiqish kifoya.

Psixologik nuqtayi nazardan tafakkurimiz ifodalovchisidan ajratib olinganda, bo'laklarga bo'linmaydigan amorf massadan iborat. Faylasuf va lingvistlar e'tirof etadilarki, belgilar yordamisiz bir tushunchani ikkinchi tushunchadan aniq farqlash mumk'in emas. O'z holicha olingen tafakkur go'yo tumanlikka o'xshaydi.

Bundan farqli ravishda tovush tomoni aniq qismlarga bo'linadi. Bu fikr osongina quyiladigan tayyor shakl emas, balki o'zi alohida qismlarga bo'linadigan plastik massadir. Shuning uchun tilni qismlarga ketma-ket segmentlanadigan qator sifatida tasvirlashimiz mumkin.

Fikrga nisbatan tilning o'ziga xos roli moddiy tovush tomonini hosil qilish emas, balki fikr va tovush tomoni o'rtasida vositachi rolini o'ynashdir.

Til qismlarga bo'linuvchanlik xususiyatiga ega. Har bir til elementi bo'lingan segment hisoblanadi va unda tushuncha ma'lum tovushlar bilan bog'lanadi, tovushlar esa tushunchaning belgisiga aylanadi.

¹ Sossyur F. de. O'sha asar, 144-bct.

Shuning uchun lingvistik belgining ifodalovchi tomonini ajratish mumkin emas. Uni daftar varag'iga qiyoslash mumkin. Ma'no uning yuza tomoni, tovush esa teskari tomoni hisoblansa, bu ikki qismni alohida-alohida ikki bo'lakka ajratib bo'lmaydi. Demak, tilda ham ma'noni shakldan, shaklni esa ma'nodan ajratib bo'lmaydi.

Lingvistik ifodalovchi va ifodalanmish elementlari birlashgan chegara zonada ishlaydi. Ikki tomonning birlashuvi substansiyanı emas, balki formani hosil qiladi.

Bu holat lingvistik belgining erkinligini yana yaxshiroq tushuntirishga imkon beradi.

Belgining erkinligi esa ijtimoiy holat bilan, til sistemasi sotsial hayot bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Har bir belgi ma'lum qiymatga ega. Uming qiymati boshqa belgilarni munosabatida namoyon bo'ladi. Lisoniy birlikning qiymati ijtimoiy hayot bilan ham bog'liq. Qiymatni jamiyat belgilaydi. Aloida shaxs o'z holicha hech qanday qiymatni belgilash xususiyatiga ega emas. Bu esa til sistemasi tarkibidagi u yoki bu a'zoning faqat ifodalovchi va ifodalanmishning oddiy birlashuvi deb e'tirof etish jiddiy adashish ekanligini ko'rsatadi.

Qiymat tushunchasi sistemada katta ahamiyatga ega bo'lsa ham, lekin uning talqini tilshunoslar o'rtasida bir xil emas.

F.de Sossyur ta'kidlashicha, til elementlari bir butunlikni tashkil etgan sistema ekan, uning tarkibidagi bir elementning qiymati bir vaqtning o'zida boshqasining mavjudligi bilan amiqlanadi.¹

Ayrim mualliflar so'zning qiymati haqidagi fikr yuritganda, eng avvalo, uning tushunchani ifodalashini nazarda tutadilar. Bunday holda, F.de Sossyur, qiymat bilan ma'no o'rtasida qanday farq bor, degan savolni qo'yadi.

Ma'no garchi qiymat bilan juda yaqin bo'lsa ham, lekin ular o'zaro ma'lum belgilari bilan farqlanadi.

Ma'no ifodalovchi va ifodalanmishning so'z doirasidagi o'zaro munosabati orqali namoyon bo'ladi. Ya'ni umi aniqlash uchun bir so'zni boshqa bir so'zga munosabatda ko'rish shart emas.

¹ Sossyur F.de. O'sha asar, 147-bet.

Lekin qiymat esa faqat bir birlikni ikkinchi birlikka nisbatlash orqali namoyon bo‘ladi.

Qiymatga konseptual nuqtayi nazardan yondashilganda, garchi ma’noning bir elementi bo‘lsa ham, lekin ular o‘rtasida yuqoridagi kabi farq mavjud.

Eng avvalo, qiymat haqida fikr yuritish uchun quyidagilar e’tiborga olinadi:

1) almashtirish mumkin bo‘lgan qandaydir o‘xshamagan boshqa narsaning mavjud bo‘lishi;

2) qiymati aniqlanayotgan narsani qiyoslash mumkin bo‘lgan unga o‘xshagan boshqa narsaning mavjud bo‘lishi.

F.de Sossyurning ta’kidlashicha, qiymatning mavjud bo‘lishi uchun yuqoridagi ikki omil zaruriy sanaladi. Masalan, 50 so‘mning qiymatini aniqlash uchun quyidagilarni bilish zarur bo‘ladi: 1) uni boshqa qanday narsalarga almashtirish mumkin, xususan, unga nechta non keladi? 2) boshqa qaysi pul birligiga qiyoslash mumkin? Xususan, tojiklarning necha somoniysiga, qozoqlarning necha tangasiga, ruslarning necha rubliga teng keladi?

Huddi shunga o‘xhash so‘zlar qiymati ham, bir tomonidan, boshqa o‘ziga o‘xshamagan so‘zlar bilan, ikkinchi tomonidan, o‘ziga o‘xshagan so‘zlar bilan qiyoslash yordamida aniqlanadi.

Shunday qilib, so‘z qiymatmi belgilash uchun uning ma’lum tushunchani ifodalashini aniqlash kifoya qilmaydi. Bundan tashqari uni o‘ziga o‘xhash boshqa so‘zga ham taqqoslash lozim bo‘ladi. Ko‘rinadiki, qiymat so‘zning tashqi munosabatlari orqali belgilanadi.

So‘z sistema tarkibiga kirib, ma’nodan tashqari qiymatga ham ega bo‘ladi. Ma’no sistemagacha so‘zda mavjud bo‘lsa, qiymat sistemada namoyon bo‘ladi.

Bu aytilganlar qiymatning konseptual tomoniga dahldordir.

Ulardan tashqari qiymatning moddiy tomoni ham mavjuddir.

Xuddi konseptual tomoni kabi, moddiy tomoni ham tilning boshqa elementlari bilan munosabati va farqlanishidan hosil bo‘ladi.

So‘zda bu so‘zni boshqa so‘zdan farqlaydigan tovush farqlanishlari muhimdir.

Erkinlik va **differensiallik** har qanday lingvistik belgining korrelyativ xususiyatidir. Masalan, *kitob* so‘zidagi son qiymati kitoblar so‘ziga qiyoslanganda aniqlanadi.

Qiymatning moddiy tomoni harflarga nisbatan olinganda yana ham ravshanroq namoyon bo‘ladi.

1) yozma belgilari erkin. Harf bilan u ifodalagan tovush o‘rtasida hozirgi kun nuqtayi nazardan hech qanday sabab-natijali munosabat yo‘q. Masalan *t* harfi bilan u ifodalagan tovush o‘rtasida. Shuningdek, bir tovush turli harflar bilan ifodalanishi, bir harf turli tovushlarni ifodalashi mumkin.

2) harflar qiymati differensial; *t* harfi turli kishilar tomonidan turlicha yozilishi mumkin. Ayrimlariniki *f* ga yaqin, ayrimlariniki *A* shaklida *a* ga yaqin. Lekin ular o‘xhash harflardan muhim belgisiga ko‘ra farqlanadi.

3) yozuvdagagi qiymat bir harfning harflar sistemasidagi boshqa harflarga nisbatan belgllanadi.

4) harfni nima vositasida yozish uning qiymatini belgilash uchun mutlaqo ahamiyatsizdir. Chunki u taxtaga bo‘r bilan, daftarga siyoh bilan, yerga cho‘p bilan yozilishi mumkin. Lekin ular grafik belgi ma’nosiga mutlaqo ta’sir etmaydi.

Lingvistik munosabatlar

F. de Sossyurning lingvistik birliklar o‘rtasidagi munosabatga jiddiy e’tibor berganligi qiymat tushunchasini belgilashda ham, tilning sistemaviy tabiatini belgilashda ham aniq ko‘rinib turadi.

Uning fikricha, tilning muayyan bir davrida har bir narsa munosabatlarga asoslanadi. Barqaror (uzual) munosabatlar yig‘indisi tilni tashkil etadi va uning funksiyalanishini belgilaydi. Shuning uchun sistemaning har bir a’zosi boshqa a’zolar bilan sintagmatik va assotsiativ munosabati orqali aniqlanadi. Munosabatlarning xarakteriga ko‘ra ikki guruhga ajratadi: a) sintagmatik munosabat; b) assotsiativ munosabat. Bu ikki munosabat aqliy faoliyatimizning ikki shakliga muvofiq keladi.

Sintagmatik munosabat ikki va undan ortiq munosabat a’zolarining aktual ketma-ketligiga asoslansa va in praesentia bo‘lsa,

assotsiativ munosabat bunday munosabat a'zolarini virtual, mnemonik qatorga birlashtiradi, ularning a'zolari doimo im avbsentia bo'ladi.¹

Sintagmatik munosabat

So'z nutq jarayonida o'zaro bog'lanib, ketma-ketlikka asoslangan munosabatga kirishadi. Ketma-ketlik xususiyati ikki elementning bir vaqtida talaffuz qilinishiga imkon bermaydi. Bu elementlar nutq oqimida biri ikkinchisi orqasidan teriladi. Ana shunday cho'ziqlikka ega bo'lgan bog'lamish F.de Sossyur fikriga ko'ra, sintagma sanaladi.

Sintagma doimo eng kamida ikkita ketma-ketlik birliklarining o'zaro munosabatidan tashkil topadi.

Sintagma a'zolari o'zidan oldin yo o'zidan keyin kelgan birliklarga yoki har ikkisiga zidlanishiga ko'ra ma'lum qiymatga ega bo'ladi.

Sintagma ikki va undan ortiq birliklarning erkin bog'lanishi natijasida hosil bo'lganligi uchun sintagmatik munosabatni ayrim mualliflar nutqqa xosligimi ta'kidlaydilar.

Lekin F.de Sossyur uning ham tilga, ham nutqqa dahldor ekanligini ko'rsatadi. Uning fikricha, sintagmaning tipik ko'rinishi gap bo'lsa ham, lekin bunday gap nutqqa xos bo'lganligidan kelib chiqib, sintagma faqat nutqqa dahldor bo'ladi, degan xulosaga kelmaslik kerak.

Nutqning xarakterli belgisi elementlarning erkin almashinishidir. Ana shundan kelib chiqib, sintagmaga yondashadigan bo'lsak, sintagmaga dahldor bo'lgan bir qator sintaktik qurilmalar barqarorlik xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Masalan, maqollar, frazeologizmlar va boshqalar. Bunday ifodalar nutq jarayonida hosil qilinmaydi, balki an'anaga ko'ra tayyor holda nutqqa olib kiriladi.

Bundan tashqari, ma'lum qoidalar asosida qurilgan barcha sintagmalarni ham nutqqa emas, balki tilga kiritish lozim, deydi. Chunki bunday qurilmalarning tilda tayyor namunalari mavjud

¹ Sossyur F.de. O'sha asar, 156-bet.

bo'ladi. Shuningdek, muayyan shablonlar asosida shakllangan birikma va gaplar haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Bunday shablonlar so'zlovchi xotirasida oldindan mavjud bo'ladi.

Sintagmatik butunlik

F.de Sossyur sintagmatik butunlik tushunchasiga ham e'tibor beradi. Uning ta'kidlashicha, barcha til birliklari yo nutq oqimidagi qurshovga yoki o'zini tashkil etgan elementlarga bog'liq bo'ladi. Bunga so'z yasalishining yaqqol misol bo'lishini ko'rsatadi. Masalan, ishla so'zi ikkita quyi birliklarga bo'linadi: ish-la. Lekin ular o'zaro oddiy bog'langan ikkita alohida-alohida qismlar emas, balki o'zaro bog'liq bo'lgan elementlarning butunlik tarkibida o'zaro hamkorligi tufayli muayyan qiymatga ega bo'lgan qismlardir:-la o'zicha mavjud bo'lmaydi. Tilda u tuz-la, yod-la kabi bir qator asos qismlarning mavjudligi hisobiga o'z o'rniga ega bo'ladi.

Shu bilan birga asos qism ham unga ergashib keluvchi sufikssiz ma'lum qiymatga ega bo'lmaydi. Butunlik qiymati uning qismlari asosida amiqlanadi. Qismlarning qiymati esa butunlik tarkibidagi o'rni bilan belgilanadi. Bundan esa qismning butunga bo'lgan munosabati butunning qismlari o'rtasidagi munosabat kabi katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Sossyur butun va bo'lak o'rtasidagi munosabatni ham sintagmatik munosabat hisoblaydi.¹

Ikki va undan ortiq elementlarning o'zaro bog'liq munosabatidan tashkil topgan butunlikni sintagmatik butunlik deb hisoblaydi va u tilning barcha qatlamlarga mansub ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tilda o'zining qismlari bilan ham, o'ziga o'xshash boshqa birliklar bilan ham sintagmatik munosabatga kirishmaydigan ayrim birliklar mavjudligini ta'kidlaydi.

Bunday birliklarga gap ekvivalenti bo'lib keladigan ha, yo'q, albatta, rahmat singari birliklar kirishi, lekin ularning mavjud

¹ Sossyur F.de. O'sha asar, 100-bct.

bo'lishi, tilning umumiy sintagmatik munosabat tamoyilini rad etmasligini ko'rsatadi.

Assotsiativ munosabat

So'z sintagmatik munosabatga kirishi bilan birga nutqiy jarayondan tashqarida boshqa so'zlar bilan umumiylig belgisiga ko'ra so'zlovchi til xotirasida assotsatsiyalashadi va bu assotsatsiyalashgan birliliklar xotirada muayyan guruhlarni hosil qiladi.

Guruh birliklari o'rtasida esa xilma-xil munosabatlar mavjud bo'ladi. Masalan, *ishla* so'zini aytishimiz bilan beixtiyor xayolimizga, bir tomondan, *so'zla*, *tuzla*, *muzla* singari so'zlar guruhi, ikkinchi tomondan, *ishchi*, *ishsiz*, *ishli* kabi so'zlar guruhi keladi.

Lisoniy birliklarning bunday munosabati yuqorida ko'rsatilgan sintagmatik munosabatdan tubdan farq qilishi ta'kidlanadi.

Bu munosabat sintagmatik munosabatdan farqli ravishda ketma-ketlikka asoslanmaydi. Balki so'zlovchi xotirasida o'zaro bog'langan holda joylashadi. Bunday munosabat assotsiativ munosabat deb hisoblanishini bayon qiladi.

Ongimizda hosil bo'lgan assotsiativ guruhalr ma'lum umumiy belgisiga ega bo'lgan munosabat a'zolarining yaqimlashuvi bilan chegaralanmaydi. Ong har bir munosabatda munosabat a'zolarini bog'lovchilar xarakterini ham qamrab oladi. Natijada nechta assotsiativ qator bo'lsa, shuncha farqli munosabatni hosil qiladi. Masalan, o'zakdoshlik asosida birlashgan so'zlar guruhi qo'shimchadoshlik asosida birlashgan so'zlar guruhi. Bundan tashqari assotsatsiya faqat ifodalanmish o'xshashligi asosida yoki faqat akustik obrazlar umumiyligi asosida ro'y berishi mumkin. Shunday qilib, assotsatsiya ham mazmun va ham shakl asosida, yoki faqat shakl, yo faqat mazmun asosida yuzaga kelishi mumkin. Har qanday so'z o'zi bilan assotsatsiya munosabatida bo'lishi mumkin bo'lgan so'zmi doimo esga soladi.

Sintagmatik munosabatda elementlar ketma-ketligi va o'zaro almashinishi haqida tasavvurga ega bo'lsak, assotsiativ guruh a'zolarining esa xotiramizda aniq miqdori va aniq ketma-ketligi mavjud bo'lmaydi.

Assotsiativ guruhning har bir a'zosini boshqa chegarasiz barcha a'zolarni kesishtiruvchi tayanch nuqta sifatida e'tirof etish mumkin.

Assotsiativ qatorlarning quyidagi ikki xususiyati mayjud:
a) tarkibning noaniqligi; b) miqdorning chegarasizligi.

Bu ikki xususiyatdan, F.de Sossyurning fikricha, birinchisi doimo mavjud, ikkinchisi esa ko'pincha bo'lmasligi mumkin. Masalan, so'z o'zgarishi qatori chegaralangan, kelishiklar miqdori aniq, lekin ularning paradigmadagi joylashish qatori tadqi-qotchining ixtiyoriga bog'liq. Demak, paradigma a'zolarining joylashish tartibi subyektiv, tasodifiydir. U yoki bu tartibda joylashishi mumkin.

Sinxroniya va diaxroniya

F.de Sossyurning tilni belgilar sistemasi sifatida e'tirof etishi, nutqiy faoliyatning til va nutq dixotomiyasidan iborat ekanligi, lingvistik belgida o'zgarmaslik va o'zgaruvchanlik dixotomiyasining mavjudligi, tilning ijtimoiyligi haqidagi g'oyalari, tabiiy ravishda, tilning vaqtga munosabati g'oyasini keltirib chiqardi. Natijada uning sinxroniya va diaxroniya dixotomiyasi haqidagi ta'lomi maydonga keldi.

F.de Sossyur lingvistik birliklar o'rtasidagi zidlanishlarni chorrahaga qiyoslagan holda, til va nutq dixotomiyasini tilshunos duch keladigan birinchi chorraha, sinxroniya va diaxroniya o'rtasidagi zidlanishni esa ikkinchi chorraha hisoblaydi. Ikkinchi chorrahadan kesishgan yo'llarning birinchisi sinxroniyaga, ikkinchisi esa diaxroniyaga yetaklashini ta'kidlaydi.¹

Uning fikricha, tilning bir necha qonunlari bo'lib, ularning barchasining negizida sinxroniya va diaxroniya yotadi.

Har qanday ijtimoiy qonunlar quyidagi ikki muhiin belgiga ega bo'ladi: a) imperativlik; b) umumiylilik. U barchaga majburiy va barcha holatlarda, muayyan makon va zamon chegarasida amal qiladi.

¹ Sossyur F.de. O'sha asar, 130-bet.

Ana shu nuqtayi nazardan tilga yondashilsa, sinxroniya va diaxroniya yuqoridagi talablarning faqat bittasiga javob beradi. Tilning sinxron holatidagi qoidalar ko'pincha umumiy bo'ladi, lekin hech qachon majburiy bo'lmaydi. Diaxron holatidagi qoidalar esa majburiy bo'ladi, lekin hech qachon umumiy bo'lmaydi.

Lingvistik belgining o'zgarmaslik va o'zgaruvchanlik belgisi diaxroniya va sinxroniya zidlanishini talab qiladi.

Til va til jamoasi o'rtasidagi munosabatga zamon belgisi qo'shilishi bilan diaxroniya va sinxroniya amal qila boshlaydi.

Zamon belgisining ishtirok etish-etmasligiga ko'ra fanlar ikkiga bo'linadi: vaqt belgisi muhim bo'limgan fanlar; vaqt belgisiga tayanuvchi fanlar.

Masalan, astronomiya, geologiya singari fanlarning o'rganish obyektlari sanaluvchi samoviy yoritkichlar va yerning holatlari vaqt nuqtayi nazaridan turli o'zgarishlarga uchrasa ham, lekin bu o'zgarishiar yuqoridagi fanlarning hozirgi astronomiya va tarixiy astronomiya, shuningdek, hozirgi geologiya va tarixiy geologiya fanlariga bo'linishiga olib kelmaydi.

Aksincha, huquq, iqtisod singari fanlar zamon belgisiga tayanadi va shu belgi asosida yuqoridagi fanlar ikkiga bo'linadi: 1) siyosiy iqtisod va 2) iqtisodiy tarix; 1) huquqshunoslik va 2) huquq tarixi. Fanning bu ikki yo'nalishi obyektni o'rganishda ikki xil asosga tayanadi. Birinchisi obyektning muayyan bir davrdagi holatini o'rganishga asoslansa, ikkinchisi shu obyektning ikki davr oralig'i-dagi o'zgarishini o'rganishga asoslanadi.


Shuningdek, lingvistika ham o'rganilayotgan obyektga qaysi nuqtayi nazardan yondashishga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) sinxron lingvistika va 2) diaxron lingvistika.

Sinxron lingvistika lingvistik obyektlarning statik holatini o'rganganligi uchun F.de Sossyur tomonidan *statik lingvistika* nomi bilan ham ataladi. Aksincha, diaxron lingvistika obyektning dinamik, evolutsion holatini o'rganadi. Shuning uchun uni *dinamik lingvistika*, *evolutsion lingvistika* degan atamalar bilan ham nomlaydi. Lekin *sinxron lingvistika diaxron lingvistika* atamalarini boshqalaridan ko'ra ma'qulroq ko'radi.¹

¹ Sossyur F.de. O'sha asar, 114-bet.

Sossyurning fikricha, tilshunoslikda xuddi siyosiy iqtisodda bo'lgani kabi, qiymat tushunchasiga duch kelinadi. Har ikki fanda turli tabiatga ega bo'lgan narsalar o'rtasidagi ekvivalentlik sistemasi haqida gap boradi: siyosiy iqtisodda mehnat bilan ish haqi o'rtasidagi ekvivalentlik, tilshunoslikda esa ifodalovchi bilan ifodalanmish o'rtasidagi ekvivalentlik haqida fikr yuritiladi.

Barcha fanlarda ikki o'qni farqlash lozim bo'ladi: 1) bir vaqtlik o'qi; 2) ketma-ketlik (turli vaqtlik) o'qi. Bir vaqtlik o'qini A va B nuqtalarini tutashtiruvchi chiziq bilan, turli vaqtlik o'qini esa S va D nuqtalarini tutashtiruvchi chiziq bilan ifodalagan holda, yuqoridagi ikki o'qni quyidagi sxenia bilan aks ettiriladi:



AB o'qi bir vaqtida hamkorlikda mavjud bo'lgan birliklarning o'zaro munosabatini ifodalaydi. Bu o'qda zamon ishtiroti istisno qilinadi. SD o'qida birdan ortiq birlikni bir vaqtida o'rganib bo'lmaydi. Unda birinchi o'qdagi har bir hodisa barcha o'zgarishlari bilan o'z ifodasini topadi.

Qiymat tushunchasiga tayanuvchi har qanday fan uchun bu farqlanish amaliy zaruriyatga, ayrim hollarda absolut zaruriyatga aylanadi.¹ Uning ta'kidlashicha, yuqoridagi fanlarda bu ikki o'qning mavjudligini e'tiborga olmasdan, qiymat sistemasini farqlamasdan va bu qiymatning muayyan bir vaqtidagi funksiyasiga tayanmasdan turib ilmiy tadqiqot olib borish mumkin emas.

Ayniqsa, lingvist uchun bu farqlanish katta ahamiyatga ega. Chunki til sof qiymatlar sistemasidan iboratdir. Qiymat bir tomonidan real narsalar va ularning tabiiy munosabatlari bilan bog'langan. Masalan, iqtisodiy fanlarda yer uchastkasining qiymati uning daromadliligi bilan proporsionaldir. Bu qiymat vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Ana shu o'zgarish jarayonining ayni bir

¹ Sossyur F.de. O'sha asar, 113-bet.

paytida qiymat sistemada u bilan munosabatda bo'lgan boshqa qiymatlarga bog'liq bo'ladi.

F.de Sossyur tildagi sinxroniya va diaxroniyani farqlar ekan, uni oson tushunish uchun bir qancha real narsalarga qiyoslaydi. Ana shulardan eng xarakterlisi shaxmat o'yinidir.

Shaxmat o'yinidagi pozitsiyalar ko'p jihatdan tilning holatiga o'xshaydi. Donalarning qiymati ularning o'yin jarayonining muayyan bir davrida taxtada tutgan holati bilan bog'liq. Bundan tashqari qiymat o'yin boshlangunga qadar shaxmatchilar ongida mavjud bo'lgan va o'yin jarayonidagi har bir yurishdan keyingi holatida amal qiladigan o'yin qoidasiga ham bog'liqdir. Shuningdek, tilda ham har bir elementning qiymati uning til sistemasidagi boshqa elementlar bilan zidlanishiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birgalikda xuddi shaxmatdagi qoida tilda ham mavjud bo'lib, u semiologiyaning barqaror tamoyili sanaladi.

F.de Sossyur sistemaning oniyligi va nisbiyligini bir holatdan ikkinchi holatga o'zgarib borishini ta'kidlaydi.

Bir sinxron holatdan ikkinchi sinxron holatga o'tish uchun bitta donani surish kifoya. Barcha donalarni birdaniga surish shart emas. Xuddi shu o'rinda diaxronik dalilning barcha xususiyatlari bilan namoyon bo'lishining guvohi bo'lamiz:

a) har bir shaxmat yurishi faqat bitta donani harakatga keltiradi. Shuningdek, tilda ham faqat alohida elementlar o'zgarishga uchraydi;

b) har bir yurish butun bir sistemaga ta'sir qiladi, o'yinchi har bir yurishning oqibatini oldindan aniq ko'ra olmaydi. Muayyan yurishdan so'ng barcha donalar qiymatining o'zgarishi o'yin holatiga qarab, juda katta yoki uncha sezilarsiz bo'lishi mumkin. Bitta yurish butun partiya taqdirini hal qilishi va u hali harakatga keltirilmagan donalarga ham ta'sir qilishi mumkin. Xuddi shunday holat tilda ham amal qiladi;

d) alohida donanining yurishi o'zidan oldingi va o'zidan keyin keladigan tenglik holatidan absolut farq qiladigan dalildir. Hosil bo'lgan o'zgarish yuqorida ko'rsatilgan har ikki holatga ham dahldor bo'lmaydi, biz uchun faqat holatgina ahamiyatli sanaladi.

Faqat tilning sinxron va diaxron holati bilan shaxmat holati o'rtasidagi qiyosning bitta o'rnidagina nomuvofiqlik kuzatiladi. Shaxmat o'yinida shaxmat taxtasidagi munosabatlar sistemasini o'zgartirib yuborish uchun oldindan o'ylangan va maqsadli yurish qilinsa, tilda esa uning «dona»lari, ya'ni birliklari stixiyali tarzda va tasodifan o'zgaradi.

F.de Sossyurning uqtirishicha, sinxron tilshunoslik tilni sistema sifatida o'rgansa, diaxron lingvistikaning obyekti sistemani tashkil etmaydi. Boshqacha aytganda, sinxron lingvistika til bilan, diaxron lingvistika esa nutq bilan ish ko'radi. Tildagi har bir o'zgarish individual bo'ladi va nutq dalili hisoblanadi. U tez-tez takrorlanib jamoa tomonidan qabul qilingach, til daliliga aylanadi.

Ko'rinaridiki, F.de Sossyur tomonidan sinxroniya va diaxroniyaning ajratilishi til va nutqning farqlanishi bilan bog'lanadi:

Tilning sistemaliligini ham u elementlarning sinxron munosabati orqali izohlaydi. Olimning bayon qilishicha, til barcha qismlari sinxron munosabatda bo'lgan sistemadir. F.de Sossyur tilni sinxron o'rganishni afzalroq ko'radi. Uning e'tirof etishiga ko'ra, sinxron lingvistika diaxron lingvistikadan muhiimroq sanaladi, chunki so'zlashuvchi omma uchun faqat tilning sinxron holatigina haqiqiy mavjudlik hisoblanadi.

F.de Sossyur sinxroniya va diaxroniya zidlanishidan quyidagi xulosalarga keladi:

1. Sinxroniyada bir kuch, diaxroniyada esa boshqa kuch amal qiladi. Bu kuchiarni ijtimoiy fanlardagi qonunlar kabi qonun deb bo'lmaydi. Chunki har qanday qonun umumiy va majburiy bo'lmoq'i lozim. Tilning sinxron holatidagi kuchlar, ya'ni qoidalar ko'pincha umumiy bo'ladi. Lekin hech qachon majburiy bo'lolmaydi. Diaxron holatidagi kuchlar esa ko'pincha majburiy bo'ladi, lekin hech qachon umumiy bo'lolmaydi.

2. Bir tilning sinxron plani o'zining o'tmish (diaxron) holatiga nisbatan boshqa bir tilning sinxron plani bilan yaqinroq keladi. Sossyurning bu ikkinchi xulosasi tillarning hozirgi holati va tarixiy taraqqiyotida o'z tasdig'ini topmaydi. Masalan, hozirgi o'zbek tilining sinxron holati eski o'zbek tiliga nisbatan, aytaylik, hozirgi rus tili yoki hozirgi tojik tilining sinxron holatiga yaqin deb bo'lmaydi.

Shuningdek, tilning sistemaviylik tabiatini faqat sixroniya bilan bog'lab qo'yish va sinxroniyani o'zgarmaslik tabiatiga ega ekanligini e'tirof etish ham uning nazariyasidagi ojiz tomonlardan biridir. Chunki dialektik nuqtayi nazaridan har bir sezgi a'zolarimizga berilayotgan obyekt ichki o'zgarishda va rivojlanishdadir. O'rganilayotgan obyektning hozirgi holati undagi dinamik jarayonning muayyan bir davridagi ko'rinishi sanaladi. Shunday ekan, har qanday sinxroniya diaxroniyaning muayyan bir davrdagi holati, uning uzviy bir qismi har qanday diaxroniya esa sinxron holatlar munosabatidan tashkil topadi.

Sinxroniya va diaxroniya o'rtasidagi munosabatni ochishda yuqoridagi kabi kamchiliklarga yo'l qo'yishidan qat'iy nazar, tilshunoslik tarixida tilning bu ikki holati va ularning bir-biridan farqini ochib berishining o'zi katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, F.de Sossyur tilning sistema ekanligi, uning belgilar sistemasi ekanligi, lingvistik belgining o'ziga xos xususiyatlari, uning o'zgarmaslik va o'zgaruvchanlik, dinamiklik va statiklik dixotomiyalari kabi masalalar yuzasidan izchil va ishonarli ma'lumotlar berdi.

F.de Sossyurning lingvistik ta'limoti dunyo tilshunosligiga katta ta'sir qildi va struktur tilshunoslikning turli yo'nalishlarining shakllanishiga nazariya asos bo'ldi.

Xullas, Boduen de Kurtene va F.de Sossyurlar struktur tilshunoslikka asos soldilar. Yuqorida ta'kidlanganidek, keyinchalik struktur tilshunoslikning turli maktablari maydonga keldi. Quyida ularning asosiylari haqida fikr yuritiladi.

Nazorat savollari

1. *F.de Sossyur tilshunoslik tarixiga qanday baho beradi?*
2. *Nima uchun F.de Sossyur tilni belgilar sistemasi deb hisoblaydi?*
3. *Lingvistik belgining o'ziga xos xususiyatlari sifatida nimalarni ajratadi?*
4. *F.de Sossyur nutqiy faoliyat, til va nutq haqida qanday fikrlar bildiradi?*
5. *Belgining o'zgarmaslik va o'zgaruvchanlik xususiyati deganda nimalarni e'tiborga oladi?*
6. *Tilning sinxron va diaxron holati deganda nimani nazarda tutadi?*
7. *Sossyur munosabatlarning qanday turlarini ajratadi?*
8. *Sossyurning tilshunoslikka qo'shgan xizmatlari nimalardan iborat?*

PRAGA STRUKTURALIZMI

Struktur tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishida Praga lingvistika maktabi alohida o‘rin egallaydi. Bu maktab negizida 1926- yilda mashhur chex tilshunosi V. Matezius (1882–1945) tashabbusi bilan tashkil etilgan Praga lingvistik to‘garagi a’zolarining qarashlari yotadi. Praga lingvistik to‘garagining nazariy qarashlari 1929- yilda Pragada bo‘lib o‘tgan slavyanshunoslarning I xalqaro syezdida tavsiya etilgan «Praga lingvistik to‘garagi tezislari»da bayon qilingan.

Praga lingvistik maktabining o‘ziga xos xususiyati **strukturlik** va **funktionallik**dadir. Bu maktab vakillari tilning strukturligiga tayanish bilan birga, til va uning birliklarining vazifasiga jiddiy e’tibor beradilar.

Praga lingvistik maktabining funksionalligi 1958- yilda bo‘lib o‘tgan slavyanshunoslarning xalqaro IV syezdida B.Gavranek, K.Goralek, V.Skalichka va P.Trostlar tomonidan tavsiya etilgan tezislarda aniq o‘z ifodasini topdi.

Unda ta’kidlanishicha, Praga maktabi lingvistik konsepsiyanining ikki muhim jihat mavjud. Ularning har ikkisi Praga maktabining lingvistikaga olib kirgan yangilik uchun bir xil qimmatga ega. Bu muhim ikki jihatning birinchisi **strukturallikdir**. Praga lingvistlari lingvistik muammolar qatoriga struktura muammosini, ya’ni tilning struktur xarakteri va uning qismlari o‘rtasidagi munosabat muammosini olib kiradi.

Ikkinci jihat shundan iboratki, Praga lingvistik maktabi **funktionaldir**. «Funksiya» atamasi bu o‘rinda tobelilik («зависимость») ma’nosida emas, balki vazifa ma’nosida qo’llaniladi.

Shunday qilib, strukturlik va funksionallik Praga lingvistik maktabining ikki muhim xususiyati hisoblanadi. Shuning uchun ham Praga lingvistik maktabi funksional lingvistika nomi bilan yuritiladi.

«Praga lingvistik to'garagi tezislari» da bayon qilinishicha, til inson faoliyatining hosilasi bo'lishi bilan birga, ma'lum maqsadga yo'naltirilganlik xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun lingvistik tahlilga funksional nuqtayi nazardan yondashmoq lozim. Ana shu jihatdan til muayyan maqsadga xizmat qiluvchi ifoda vositalari sistemasi hisoblanadi.¹

Tezisda tildagi hech bir hodisa shu til mansub bo'lgan sistemani hisobga olmasdan turib to'g'ri tushunilishi mumkin emasligi, shuning uchun tilga funksional sistema sifatida yondashish lozimligi ta'kidlanadi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, Praga lingvistik maktabi tilni struktur tushunishga va shunga muvofiq ravishda lingvistik tadqiqotning struktur metodlariga tayanadi. Lekin strukturalizm tushunchasining o'zi xilma-xil bo'lganidek, tilni struktur o'rganish metodlari ham bir-biridan farq qiladi.

Xususan, Kopengagen strukturalizmi bilan Praga funksional maktabi o'rtasidagi farq Vladimir Skalichka tomonidan ko'rsatib berildi.

Uning ta'kidlashicha, barcha struktur yo'nalishlarning tayanch nuqtasi F.de Sossyurning «Umumiyl lingvistika kursi» hisoblanadi.

F.de Sossyuning yuqorida ko'rsatilgan asarida uchraydigan ziddiyat keyingi struktur yo'nalishlarning ana shu ziddiyatli fikrlarning qaysi biriga tayanishiga bog'liq holda, ular o'rtasidagi qarashlarning farqlanishiga olib keldi.

L. Yelmslev o'z qarashlarida Ferdinand de Sossyurning tilshunoslikka kiritgan, to'g'rirog'i, tilshunoslikka qaytargan ikkita zidlanishga doimo murojaat etadi. Bu zidlanishlarning birinchisi Langue va parole (til va nutq) o'rtasidagi zidlanish bo'lsa, ikkinchisi significant va signifie (ifodalovchi va ifodalanish) o'rtasidagi zidlanishdir.

¹ Тезисы Пражского лингвистического кружка. – Звегинцев В.А. История языкоznания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. –М., 1960, с. 69.

V. Skalichka bu zidlanishlarning hamma tilshunoslar tomonidan bir xil e'tirof etilishini tan oladi. Ayni paytda bu zidlanishlarning talqinida Sossyurning o'zida qator noaniqliklar, noizchillik mavjudligini taassuf bilan qayd etadi. Buning sababini «Umumiy lingvistika kursi» kitobini Sossyurning o'zi nashrga tayyorlamaganligida va yuqoridagi zidlanishlar haqidagi qarashiarning keyingi avlodlar tomonidan bunchalik keng tahlil etilishini oldindan ko'rolmaganligida deb blladi.

Bunday noaniqlik va noizchillik, eng avvalo, Langue va parole zidlanishi izohida ko'rinishini ta'kidlaydi. Bir o'rinda til (Langue) – bu «ko'nikmalarimiz yig'indisi» (30-bet) sifatida izohlansa, boshqa yerda til – bu «substansiya emas, balki shakldir» (138-bet) deyiladi.

Shuningdek, ifodalovchi va ifodalanmish zidlanishida ham ana shunday noaniqlikka yo'l qo'yiladi. Sossyurning fikricha, ifodalanmish – bu narsa (lackose) emas, balki faqat tushuncha (Le concept)dir (85-bet). Natijada belgining borliqqa munosabati noaniq bo'lib qoladi.

Sossyurning g'oyalari keyinchalik strukturalizm deb nomlanuvchi yo'naliishlar tomonidan rivojlantirildi. Fonologiya, ya'ni struktural fonetika tezda barcha tilshunoslar tomonidan tan olingan fanga aylandi.

V. Skalichkaning fikriga ko'ra, tilshunoslik uchun fonologiyaning ahamiyati va unga nima bergenini tushuntirib o'tirishga ehtiyoj yo'q. Aksincha, uning tilshunoslik uchun nima bermagani haqida to'xtalish zarur.

Uning bayon qilishicha, fonologiya funksional xarakterga ega. Lekin u semosiologik masalalarni hal etishda deyarli hech narsa bermaydi. Bu tabbiy bir hol. Chunki fonema yuqori sath birliklari bo'lgan morfema, so'z, gaplardan farqli ravishda, ma'noga ega bo'limgan birlikdir. Fonemaning funksiyasi morfema, so'z, gaplarni hosil qilish, to'g'rirog'i, moddiy jihatdan shakllantirishdan iboratdir. Shuning uchun fonologiya ifodalovchi (significant) muammosi asosiga qurilgandir. Bu o'rinda belgining butun muammolari chetga suriladi.

Shu bois strukturalistlar o'rtasida fonologiya yuzasidan qarashlarda nisbiy umumiylilik mavjud.

Fonologiyadan tilning boshqa sathlariga o'tish bilan tilshunoslar o'rtasida bunday umumiylig yo'qola boradi.

Praga tilshunoslari o'zlarining yangi lingvistik nazariyasini yaratar ekanlar, bir tomondan F.de Sossyur qarashlariga, ikkinchi tomondan, I.A.Boduen de Kurtene qarashlariga tayanadilar va ularni rivojlantirdilar.

Matezius Praga lingvistlarining funksional va struktural konsepsiysi Boduen de Kurtene va F.de Sossyur g'oyalariga asoslanganligini e'tirof etadi.¹

Praga strukturalistlari garchi F.de Sossyur va I.A.Boduen de Kurtenening g'oyalariga asoslangan bo'lsalar ham, lekin ular bu g'oyalarga ijodiy yondashdilar va yuqoridagi olimlarning cheklangan tomonlarini bartaraf qilishga harakat qildilar.

Xususan, F.de Sossyur tilning sinxron va diaxron holatini ajratar ekan, sistemaviylik faqat sinxroniyaga dahldor ekanligini ta'kidlagan edi.

Praga tilshunoslari esa F.de Sossyurning sinxroniya va diaxroniya zidlanishi haqidagi yuqoridagi fikriga e'tiroz bildirganlari holda, ular o'rtasida o'tib bo'lmas jarlik yo'qligimi, o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar.

Xususan, «tezislar»da Jeneva maktabi vakillari bayon qilganliklari kabi sinxron va diaxron metod o'rtasida katta chegara yo'qligini bayon qiladilar. Ularning fikricha, sinxron lingvistikada sistema elementlariga funksiya nuqtayi nazaridan yondashilsa, tilda bo'lgan o'zgarishlar diaxron metod orqali o'rganiladi. Diaxron yondashuv sistema va funksiyani rad etmaydi, balki bu tushunchalarni e'tiborga olmasdan turib tadqiqot chala bo'lishini ko'rsatadilar.²

Praga tilshunoslari sistemaviy, struktur tahlil diaxron yondashuv uchun ham zarur ekanligini ta'kidlaydilar. Shunga qaramasdan, ko'pchilik chek tilshunoslari tilning hozirgi holatini o'rganish bilan cheklandilar.

¹ Матезиус В. Куда мы пришли в языкоизнании. — Звегинцев В.А. История языкоизнания....с. 146.

² Тезисы Пражского лингвистического кружка. — Звегинцев В.А. История языкоизнания XIX—XX вв. в очерках и извлечениях. Ч. II. — М., 1960, с.70.

Shuningdek, Praga tilshunoslari F.de Sossyurning til va nutq konsepsiyasini qabul qildilar va rivojlantirdilar.

F.de Sossyurning fikricha, til (la langue) muayyan jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lgan umumiy barqraror narsadir. Nutq (la parole) esa undan farqli ravishda doimo aniq va ma'lum makon va zamon bilan bog'liq bo'ladi.

N.S. Trubetskoy esa til va nutq dixotomiyasini c'tirof etgani holda, nutqiy jarayonning bu ikki aspekti o'rtasida katta tafovut mavjudligini, shuning uchun nutqiy jarayonning tovush tomonini turli fanlar o'rganishi lozimligini ko'rsatadi.

Ana shu asosda N.S. Trubetskoy til tovushlari va nutq tovushlarini ajratadi. Uning fikricha, nutq tovushlari haqidagi ta'limot aniq moddiy hodisalar bilan ish ko'rganligi tufayli tabiiy fanlarning tekshirish metodi bilan ishslash lozim bo'lsa, til tovushlari, aksincha, sof lingvistik metod bilan ish yuritadi. Shunga ko'ra nutq tovushlari haqidagi ta'limotni **fonetika**, til tovushlari haqidagi ta'limotni esa **fonologiya** deb nomlanishini ta'kidlaydi.¹

Grammatika sohasida F.de Sossyurning til va nutq dixotomiyasini V.Skalichka qo'llab-quvvatladi. U grammatika atamasi ostida til doirasiga mansub bo'lgan barcha sohalarni (fonologiyadan tashqari) tushunadi. Skalichkaning fikricha, til o'zining struktur grammatika deb yuritiluvchi maxsus o'rganish obyektiga ega.

Bu bilan struktur grammatika nutq bilan ish ko'rvuchi tavsifiy grammatikadan farq qiladi.

Lekin Korjinek grammatick sathda til va nutq munosabatini boshqacha tushunadi. Uning fikricha, til va nutq o'rtasidagi munosabat, bir tomondan, ilmiy-tahlil, abstraksiya, sintez, tasniflash, ya'ni dalillarni ilmiy tavsiflash, ikkinchi tomondan, bu tahlil uchun obyekt bo'lib xizmat qilgan borliqning ma'lum hodisalari o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Praga maktabi vakillari qarashlarining shakllanishiga I.A. Boduen de Kurtenening tilning funksionalligi va uni sinxron tahlil etishning muhimligi haqidagi g'oyalari ham katta ta'sir qildi.

¹ Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М., 1960, с.15.

Tilshunoslikka funksionallik tamoyilini, ya’ni til vositalarini ularning bajarayotgan vazifasiga qarab baholash tamoyilini dastlab I.A.Boduen de Kurtene kiritgan edi.¹

Funksiya tushunchasini Praga lingvistlari tilni funksional sistema sifatida talqin etishda rivojlantirdilar.

Boduen de Kurtene tashqi va ichki lingvistikani bir-biridan ajratar ekan, tilni tildan tashqaridagi borliqdan ajratib o‘rganishga qat’iy qarshi chiqadi. Shuning uchun u adabiy til bilan xalq shevalari o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishga alohida ahamiyat beradi.

Praga lingvistlari Boduenning bu qarashlarini rivojlantirdilar. Ular hech qanday til bo‘shliqda yashamasligi, uning til jamoasi o‘rtasida mayjud bo‘lishini, jamoaning kommunikativ va ekspressiv ehtiyojini qondirish uchun yashashini ta’kidlaydilar. Ana shundan kelib chiqib, Praga tilshunoslari nutqiy faoliyatni ikki asosiy funksiya bajarishini ko‘rsatadi: 1) *sotsial funksiya* (individlar o‘rtasidagi munosabat); 2) *ekspressiv funksiya* (hayajon, ifodalash, so‘zlovchiga ta’sir etish).

Nutqiy faoliyatning sotsial funksiyasi, o‘z navbatida, yana ikki guruhga ajratiladi: 1) *axborot funksiyasi*. Bunda so‘zlovchining butun e’tibori ma’lum axborotni uzatishga qaratiladi; 2) *poetik funksiya*. Bunda asosiy e’tibor axborotni uzatish shakliga qaratiladi. Ya’ni nimani ifodalash bilan birga, qanday ifodalashga asosiy e’tibor qaratiladi.

Tildan kommunikativ funksiyada foydalanish jarayonida unga tilga yondosh (ekstralolingvistik) hodisalar ham yordamga keladi. Bunday hodisalar qatoriga imo-ishoralar, mimika, nutq vaziyati singari hodisalar kiradi.

Bunday tilni Praga tilshunoslari *amaliy til* deb hisoblaydilar va uni ma’lum nutqiy vaziyatdan holi bo‘lgan sistemadan iborat *nazariy tilga* qarama-qarshi qo‘yadilar. Nazariy til amiq va to‘liq, ko‘pincha grafik belgilari va simvollar orqali ifodalangan bo‘ladi. Xususan, ilmiy uslub orqali namoyon bo‘lgan til ana shunday xususiyatga ega bo‘ladi.

¹ Лешка О. К вопросу о структурализме. — ВЯ, 1963, № 5, с. 89.

Praga tilshunoslari funksiyaga alohida e'tibor bergenliklari holda, nutqiy faoliyatning turli funksiyalari mavjud ekanligi, ularning har biriga turli funksional tillar to'g'ri kelishi lozimligini ta'kidlaydilar.

Ular adabiy til va funksional til o'rtaida quyidagicha munosabat mavjud ekanligini ko'rsatdilar:

Nº	Adabiy til funksiyalari	Funksional tillar
1.	Kommunikativ	So'zlashuv
2.	Amaliy ixtisoslashgan	Ish yuritish
3.	Nazariy ixtisoslashgan	Ilmiy
4.	Estetik	Poetik

Til funksiyalari nazariyasi va u bilan bog'liq adabiy tilning funksional farqlanishi masalasi Praga lingvistik maktabi vakillarining ilmiy va amaliy faoliyatida muhim o'r'in egallaydi.

Praga tilshunoslari tilning barcha sath birliklarini funksional o'rGANISHGA alohida ahamiyat berdilar.

«Praga lingvistik maktabi tezislari»da bayon qilinishicha, tovushlarni bir tomondan, obyektiv moddiy dalil sifatida, ikkinchi tomondan esa funksional sistemaning a'zosi sifatida bir-biridan farqlash zarur.

Tovushlarning akustik-artikulatsion xususiyatlarini ma'lum asboblar yordamida aniqlash katta ahamiyatga ega. Lekin bu obyektiv dalil lingvistika uchun nisbiy munosabatga egadir. Ularni lingvistik qiymatga tenglashtirish mumkin emas.

Shu bilan birga, subyektiv akustik-artikulatsion belgilar ma'no farqlash funksiyasini ham bajaradi. Ana shu ma'no farqlash funksiyasi lingvistik sistema uchun katta ahamiyatga ega. Fonologik sistemaning struktur tamoyiliga ko'ra fonologik elementlarning moddiy tomoni emas, balki sistema ichidagi a'zolarning o'zaro munosabati muhim sanaladi.

«Tezis»da sinxron fonologiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etildi:

1. Ma'lum bir tilda fonemalar miqdori (ro'yxati)ni belgilash. Buning uchun fonologik korrelatsiyalarni belgilash zarur bo'ladi. Fonologik korrelatsiyalar esa fonologik zidlanishlar qatori bilan aniqlanadi;

2. Ma'lum bir tilda uchraydigan fonemalar birikuvini aniqlash;

3. Fonemalar va ularning birikuvining qo'llanish darajasi, ya'ni fonemalar birikuvining funksional yukini aniqlash;

4. Lingvistikaning muhim vazifalaridan biri fonologik farq-lanishiarning morfologik qo'llanilishimi, ya'ni morfonologiya (morfologiya) muammolarini o'rganishdir. Morfonologiya birligi bo'lgan morfonemalarni belgilash ham ana shu muammo tarkibiga kirishi belgilanadi.

Praga lingvistlari so'zni o'rganishga alohida ahamiyat berdilar. So'zga funksional yondashgan holda, uni nominativ lingvistik faoliyat natijasi sifatida qaraydi va uni sintagmatik faoliyat bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.¹

Nutqiy faoliyatni mexanik xarakterdagи obyektiv dalil sifatida tahlil etuvchi tilshunoslik ko'pincha so'zning mavjud ekanligini rad qiladi. *Lekin Funksional nuqtayi nazardan so'zning mustaqil ravishda mavjudligi* aniq bo'lib qoladi. U turli tillarda turlicha namoyon bo'ladi. Nominativ faoliyat vositasidan nutqiy faoliyat borliqni lingvistik aniqlash mumkin bo'lgan qismlarga bo'ladi.²

Tezisda ta'kidlanishicha, har bir til o'ziga xos nominatsiya sistemasiga ega. Ular har xil nominativ shakllardan (so'z yasash, so'z qo'shish va boshq.) foydalanadilar.

Nominatsiya nazariyasi ko'pincha an'anaviy so'z yasalishi ta'limoti, so'z turkumlari va so'z shakllari haqidagi ta'limotni ham o'z ichiga oladi.

Praga tilshunoslari *sintagmatik usul* nazariyasiga ham alohida ahamiyat berdilar.

Nutqiy faoliyat jarayonida so'zlarning erkin birikishi *sintagmatik faoliyat* natijasida yuzaga chiqadi. Asosiy sintagmatik faoliyat

¹ Тезисы Пражского лингвистического кружка. — Звегинцев В.А. История языкоznания XIX—XX вв. в очерках и извлечениях. Ч. II. — М., 1960, с. 73.

² Тезисы Пражского лингвистического кружка. — Звегинцев В.А. История языкоznания XIX—XX вв. в очерках и извлечениях. Ч. II. — М., 1960, с. 73.

predikatsiya orqali ifodalanishi ta'kidlanadi. Shuning uchun funksional sintaksis grammatik gapning funksiyasi va shaklimi e'tiborga olgan holda, eng avvalo, ***kesim tiplarini*** o'rganishni o'zining bosh maqsadi deb biladi.

Shu bilan birga, Praga tilshunoslari gapning kommunikativ bo'linishi bilan sintaktik bo'linishini ham farqladilar. Kommunikativ *tema* bilan sintaktik bo'lak hisoblangan ega, kommunikativ *rema* bilan sintaktik *kesim* o'rtaсидagi munosabatni yoritishga alohida ahamiyat berdilar.

Praga lingvistik maktabida grammatika masalalari

Praga tilshunoslari tilshunoslik bo'limlarini ham o'zlariga xos tasnif qildilar. Ular tilshunoslikning fonetika, leksikologiya, grammatika (morfologiya va sintaksis) kabi odatdagি bo'limlari o'rnida quyidagi bo'limlarni tavsiya etdi: a) lingvistik nominatsiya nazariyasi; b) sintagmatik usullar nazariyasi.

So'z va barqaror so'z biriknialari, so'z turkumlari, so'z yasalishi singari masalalar lingvistik nominatsiya nazariyasida o'rganilishi ta'kidlandi.

Grammatika sohasida Matezius, V.Skalichkalarning xizmati katta bo'ldi. V.Skalichkaning ta'kidlashicha, tilning grammatik sistemasi tablili shu tilning boshqa tillar o'rtaсидagi o'rnini ko'rsatib bermog'i lozim. Shuning uchun u grammatik sistemaga yondashuvining umumiy tamoyilini aniqlash bilan birga, muayyan til grammatik sistemasini o'rganish asnosida shu tilning boshqa tillar o'rtaсидagi o'rni masalasini yoritishga alohida ahamiyat berdi.

V.Skalichka grammatika atamasini juda keng ma'noda qo'llaydi. Uning fikricha, grammatika tilning fonologiyadan boshqa barcha tomonlarini qamrab oladi. R.Yakobson esa grammatika belgilar bilan, fonologiya uning qismlari bilan shug'ullanishini ta'kidlaydi.

Professor V.Skalichka mifemaga Boduen de Kurtene tomonidan berilgan va PLK tomonidan qabul qilingan «*boshqa*

mayda morfologik birliklarga bo‘linmaydigan morfologik birlik» degan ta’rifga ham o‘zining tanqidiy munosabatimi bildiradi.

Uning fikricha, agar «morfologik birlik» ni grammatik birlik deb tushunsak, u holda bu birlikni bo‘linmas degan qarashga qo‘silib bo‘lmaydi. Masalan, Ingl. *Hand – hand-s* va *foot-feet: rex. Vojak/O-Vojak/i.*

Bu misollarda grammatik ma’noning shakliy ifodasi faqat morfemaning bir qismiga tegishlidir.

Praga lingvistik maktabi vakillari ma’lum bir tilni o‘rganishda lingvistik funksiya va ularning shakllarini e’tiborga olish lozimligini ta’kidlaydilar. Aks holda har qanday tilning tavsifi, xoh u simxron nuqtayi nazardan, xoh diaxron nuqtayi nazardan bo‘lishiga qaramasdan, to‘g‘ri bo‘lmasligini ko‘rsatadilar.¹

Praga tilshunoslarining fikricha, morfologiya so‘z shakllari sistemasi haqidagi nazariya bo‘lib, mustaqil mavjud emas, balki nominatsiya nazariyasi bilan ham, sintagmatik usuliar nazariyasi bilan ham tutashib ketadi.

Praga lingvistik maktabining grammatika sohasida qo‘lga kiritgan yutuqlaridan yana biri fonologiyada ishlab chiqilgan tadqiq usullarining grammatik tadqiqotlarga tatbiq etilishidir. Xuddi fonologiyaning asosiy tushunchasi fonemalarning ma’no farqlash funksiyasi hisoblangani kabi, grammatik tadqiqotlarning asosi grammatik ma’nolarni o‘rganish, deb qaraldi.

V.Skalichka «Venger tili grammatikasi haqida» (1935) kitobida grammatik hodisalarни fonologiyada sinalgan metodlar asosida o‘rganishga harakat qiladi. U grammatik sistemaning asosini tashkil etgan minimal birliklarni aniqlashni bosh maqsad qilib oldi.

V.Skalichkaning fikricha, grammatika uchun morfemani bo‘linmas butunlik deb hisoblab bo‘lmaydi. Masalan, rus tilidagi **печки** so‘zidagi **-у** morfemasi faqat ko‘plik ko‘rsatkichigina emas, balki tushum kelishigi ko‘rsatkichi hamdir. Ana shular asosida u grammatikada mayda, bo‘laklarga bo‘linmas birliklar

¹ Тезисы Пражского лингвистического кружка. — Звегинцев В.А. История языкоznания XIX—XX вв. в очерках и извлечениях. Ч. II. —М., 1960, с. 75.

mavjudligini va bunday birlik *sema* ekanligini bayon qiladi. *Sema*, odatda, fonemalarning uzluksiz qatori, ya’ni morfema orqali ifodalanadi. Uning ta’kidlashicha, *sema – bu ham shakliy va ham funksional, boshqacha aytganda, grammatik element sanaladi*.

Ko‘philik tilshunoslar esa sema til grammatik qurilishining asosiy elementi emas, balki morfema mazmuniy mundarijasining bir komponentidir, deb hisoblaydilar. Shuning uchun uni morfemaga emas, balki fonemaning farqlovchi belgilariga qiyoslaydilar.

Grammatikada farqlovchi belgilarga asoslanish R. Yakobsonning «Kelishik haqidagi umumiy ta’limot ocherki» (1936) asarida yorqin o‘z ifodasini topdi. Bu asarda kelishiklar sistemasi kelishikning umumiy ma’nosini liosil qiluvchi uchta farqlovchi belgining yig‘indisi sifatida talqin etiladi.

U kelishiklarning quyidagi belgilarini ajratadi:

1) harakatning yo‘nalganlik-yo‘nalmaganlik belgisi. Bu belgi harakatning predmetga yo‘nalganligini (jo‘nalish, o‘rin, tushum kelishiklari) yoki predmetdan yo‘nalganligini (chiqish kelishigi) yoki yo‘nalish belgisining yo‘qligini (bosh, qaratqich kelishiklari) ifodalarydi;

2) harakatning hajmligi-hajmsizligi belgisi. Bu belgi muayyan kelishik shaklida turgan predmetning turli liajmdagi harakatda qatnashish mumkin ekanligini bildiradi. Masalan, o‘zbek tilida chiqish, bosh va tushum kelishiklari: *uzumni ye, uzum ye, uzumdan ye*;

3) harakatning chegaralilik-asosiylik belgisi. Bu belgi ma’lum kelishik shaklidagi predmetning muayyan jumla tarkibida qanday rol o‘ynashini ifodalarydi. Masalan, rus tilidagi **Я читал вчераом книгу** jumlasida bosh mazmuniy urg‘u harakat obyektiga, ya’ni **книгу** so‘ziga tushadi. Shuning uchun bu so‘zdagi tushum kelishigi shakli asosiy, qolgan kelishiklar esa chegara, asosiy bo‘lmasan belgini ifodalarydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, Praga tilshunoslari o‘rtasida fonologiya va grammatikani yagona tadqiq usullari yordamida o‘rganish yuzasidan hamfikrlik mavjud emas.

Praga lingistik məktəbida fonologiya va morfonologiya masalası

Praga lingistik məktəbi vakilləri tılning quyi səthida Sossyurning til-nutq dixotomiyasiga qat'iy amal qilar ekanlar, Boduen de Kurtene tomonidan təvsiya etilgan tovush va fonema zidlamışığa jiddiy e'tibor berdilar. Natijada nutq tovushi bilan til tovushini o'zaro farqladılar.

Real talaffuz qilingan va sezgi a'zolarımızga bevosita ta'sir etuvchi eng kichik moddiy birləşmələrə təvushi hisoblanadı və uni tekshirishdə tabiiy fanlar metodlarından foydalananıldı.

Fonologiya yo'nalişining asoschisi N.S.Trubetskoy nutq tovushlarını o'rGANUVCHI fan fonetika, til tovushını o'rGANUVCHI fan esa fonologiya hisoblamışını ta'kidlaydı.¹

U fonetika bilan fonologiya o'rtasidagi farqqa to'xtalar ekan, fonetika o'rganılıyotgan tovush yoki tovush kompleksinin ma'noga munosabatını nazardan soqit qiladi, deydi. Shuning uchun fonetikani inson nutqining moddiy (tovush) tomoni haqidagi fan sifatida izohlaydi.

N.S. Trubetskoyning ta'kidlashicha, fonologiya tovushlarining ma'no bilan munosabatını o'rganishga asosiy e'tiborini qaratadi. Ya'ni ma'lum bir tildagi qaysi tovush farqlanishlari ma'no farqlanishlariga olib kelishiga diqqat qilinadi. Shu sababli fonologiya uchun tovushlarning farqlovchi belgilari muhim sanaladi. Farqlovchi belgilari esa tovushlarning ma'noli birliliklər tərkibidagi fuksiyasiga ko'ra aniqlanadi.

Fonologiya tovushlarning funksiyasını o'rGANAR ekan. N.S.Trubetskoy bu funksiyalarning uch turini ko'rsatadi:

a) *kulminativ funksiya* (cho'qqi hosil qılısh funksiyasi). Tovushlarning bu funksiyasi gap tərkibida necha so'z ishtirok etayotganiga ishora qiladi. Ya'ni so'z bir bosh urg'u ostida fonetik jihatdan bir butun bo'lib birlashadi;

b) *delimitativ* (ajratish, chegaralash) *funksiya*. Bunday funksiya ikki birlilik o'rtasidagi chegarani ko'rsatishda amalga oshadi.

¹ Трубецкой Н.С. Основы фонологии. —М., 1960, с. 9.

Masalan, o'zbek tilida so'z urg'usi so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi va bu urg'u so'zni fonetik jihatdan uyushtirish (kulminativ) va so'zni so'zdan ajratish (delimitativ) funksiyasini bajaradi. Oldingi so'zning oxirgi bo'g'im kuchli, keyingi so'zning birinchi bo'g'ini kuchsiz talaffuz qilinganligi uchun ikki so'z o'rtasida ohang jihatidan chegara bilinib turadi. Ana shu chegaraga ishora qilganligi uchun bu funksiyani delimitativ funksiya deyiladi;

d) *distinkтив* (ma'no farqlash) *funksiya*. Ma'noli birliklarni farqlash vazifasi distinkтив funksiya sanaladi. N.S.Trubetskoy tovushlarning bu funksiyasiga alohida ahamiyat beradi. Chunki ma'noli birliklarni ajratishda eng muhim belgi tovushlarning ana shu distinkтив belgisi asos bo'lib xizmat qlladi.

Tovushlarning bu uch funksiyasiga muvofiq ravishda, N.S. Trubetskoy sinxron fonologiyani ham uch qismga bo'ladi: a) *kulminativ funksiya haqidagi ta'limot*; b) *delimitativ funksiya haqidagi ta'limot*; d) *distinkтив funksiya haqidagi ta'limot*. Distinkтив funksiya haqidagi ta'limot o'zining hajmi va mohiyati jihatidan boshqa ikki funksiyadan alohida ajralib turadi.

Tovushlarning ma'no farqlash funksiyasi haqidagi ta'limot

Ikki ma'noli birlikni bir-biridan farqlash uchun ularni bir-biriga zidlash kerak bo'ladi. Shuning uchun N.S.Trubetskoy zidlanish (oppozitsiya) tushunchasiga alohida ahamiyat beradi.

U zidlanishlarni, avvalo, ikki guruhga ajratadi: a) fonologik muhim (relevant) yoki *fonologik*; b) fonologik nomuhim (irrelevant) yoki *fonologik bo'lmagan zidlanishlar*.

*Ma'lum bir tildagi ikki so'zni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiluvchi tovush zidlanishlari **fonologik** (fonologik-distinkтив yoki ma'no farqlash) zidlanish sanaladi. Bunday funksiyani bajar-maydigan zidlanish esa **fonologik bo'lmagan yoki fonologik nomuhim zidlanish hisoblanadi.¹***

¹ Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М., 1960, с. 38.

Har bir nutq tovushi bir qancha artikulatsion va akustik belgilarga ega bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida *b* tovushini talaffuz qilish uchun bir qancha artikulatsion harakatlarni bajarish kerak bo'ladi. Hususan lab labga tegadi va o'pkadan chiqayotgan havo bu to'siqni yorishi natijasida to'siq ochiladi. Bundan tashqari, yuqoridaqgi har bir artikulatsion harakatga akustik belgi ham qo'shiladi. Lekin bu artikulatsion va akustik «atom»larning hech birini fonologik birlik sifatida qarab bo'lmaydi. Chunki bu «atom»larning barchasi birgalikda vazifa bajaradi. Shuning uchun *b* barcha artikulatsion-akustik belgilarni o'zida mujassam etgan bir butunlik sifatida fonologik birlik sanaladi.

Fonologiyaning o'rganish birligi fonemadir. N.S.Trubetskoyning fikricha, *muayyan til nuqtayi nazaridan ketma-ket boshqa mayda fonologik birlikka bo'linmaydigan fonologik birlik fonema hisoblanadi.*¹

Strukturalizm g'oyasi dastlab Praga tilshunoslari vakillari tomonidan fonetik taddiqotlar jarayoniga qo'llanildi. Tilning tovush tomonini strukturalizm tamoyillari asosida o'rganish fonologiya nomi bilan yuritiladi. Strukturalistlar eng avvalo sistema ichida mavjud bo'lgan munosabatlarga e'tibor qaratdilar.


Struktura tushunchasi ostida butun tarkibidagi elementlarning o'zaro shartlangan munosabati yotadi, ya'ni butun tarkibidagi har bir element boshqalari bilan shartlangan bo'ladi. Struktura elementlarining o'zaro bunday munosabatini tushunish uchun tilning tashqi belgilarini soqit qilish kerak bo'ladi.

Til strukturasi – bu bevosita kuzatishdan yashiringan va ilmiy, struktur tahlil asosida tiklanadigan tilning ichki asosidir. L.Novak ana shu tamoyil asosida fonemaning quyidagi talqinini beradi: «Fonema» boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan va shu tilning barcha ichki funksiyalarining o'zaro kesishishi tufayli aniqlanadigan eng kichik elementdir».²

Ana shu nuqtayi nazardan rus tilidagi *m* fonemasining fonologik belgilarini quyidagi aloqalar orqali aniqlanadi:

¹ Трубецкой Н.С. Основы фонологии. – М., 1960, с. 42.

² Пражский лингвистический кружок. Сб. статей. – М., 1967, с. 97.



T fonemasi bu sxemada belgilarning o'xshashligi va farqlanishi asosidagi o'zaro kesishishi orqali aniqlanadi. Ya'ni *n-m-k* munosabati asosida artikulatsiya o'rniga bog'liq belgi aniqlanadi. *T-T_i*, munosabatida qattiqlik-yumshoqlik belgisi *m-c* akustik to'siq xarakteri (portlovchilik-sirg'aluvchilik belgisi), *m-d* munosabatida akustik belgi (jaranglilik-jarangsizlik belgisi), *m-c* ziddigi orqali esa soddalik-qorishiqlik belgisi aniqlanadi. Ana shular asosida bu fonema strukturasi til oldilik, jarangsizlik, portlovchilik, qattiqlik, soddalik belgilaringin o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida talqin etiladi.

N.S.Trubetskoy fonema va variantni bir-biridan farqlaydi. Uning ta'kidlashicha, real talaffuz qilinayotgan va eshitilayotgan har qanday tovush fonologik muhim belgilari bilan birga, bir qancha fonologik nomuhim belgilarga ham ega bo'ladi. Shuning uchun hech bir tovushni fonema sifatida e'tirof etib bo'lmaydi. Bunday tovushiar muayyan fonemaning turlicha voqelanishi sanaladi. Demak, har qanday fonema bir qancha tovushiar orqali voqelanadi. Nutqiy akt esa tovushiardan tashkil topadi. Bir umumiylon fonemaning nutqiy jarayonda turli tovushlar orqali voqelanishi fonemaning variantlari hisoblanadi.¹

Praga tilshunoslarining fonologik nazariyadagi katta xizmatlari shundaki, ular qanday qilib fonema bilan uning variantini farqlash qoidalarini ko'rsatib berdilar. Ular to'rtta qoidani ajratadilar:

Birinchi qoida. Ma'lum blr tilda ikki tovush bir fonetik sharoitda ma'noga ta'sir etmagan holda o'zaro erkin almashina olsa, bunday

¹ Trubetskoy N.S. O'sha asar, 42-bet.

tovushlar bir umumiy fonemaning turli fakultativ variantlari sanaladi. Masalan, *opa*, qo'qon shevasida *apa*.

Ikkinci qoida. Ma'lum bir tilda ikki tovush bir fonetik sharoitda ma'no yoki fonetik qiyofasini topib bo'lmas darajada o'zgarishiga olib kelmagan holda biri o'rnida ikkinchisi kela olmasa, bunday tovushlar ikki fonemaning vakillari sanaladi. Masalan, o'zbek tilida *ot* va *it* so'zlarida *o* va *i* tovushlarining o'zaro almashinishi so'zlarining ma'no o'zgarishiga olib keladi. Demak, ular ikki fonemaning vakillari sanaladi.

Uchinchi qoida. Agar ikki akustik (yoki artikulatsion) o'xshash tovush bir xil fonetik sharoitda hech qachon kela olmasa, ular bir fonemaning kombinator variantlari hisoblanadi.

To'rtinchi qoida. Agar ikki tovush uchinchi tovushga muvofiq kelsa-yu, lekim nutqiy zanjirda tovush birikmasi hosil qilgan holda ketma-ket kelolsa, ularning bir-biriga variant deb hisoblab bo'lmaydi.

Praga tilshunoslarining yana bir yutug'i shundan iboratki, ular fonologik zidlamishlarni mantiqiy jihatdan tasnif qildilar.

Fonologik zidlanishlar tasnifi uchun **fonologik mundarija** tushunchasiga tayandilar. **Fonologik mundarija atamasi ostida fonemaning barcha fonologik muhim belgilari yig'indisi**, ya'mi shu fonemaning barcha variantlari uchun umumiy bo'lgan belgilar tushuniladi. Masalan, o'zbek tilidagi *D* fonemasining fonologik mundarijasi «til oldilik», «portlovchilik», «jaranglilik» belgilarini o'z ichiga oladi. Fonologik zidlanishlar esa fonemalarning ana shu belgilariga asoslanadi.

N.S.Trubetskoy fonologik zidlanishlarni quyidagi belgilarga ko'ra tasnif etadi:

- A. Zidlanish sistemasiga ko'ra;
- B. Zidlanuvchi a'zolar o'rtasidagi munosabatga ko'ra;
- C. Zidlanuvchi a'zolarning ma'no farqlash kuchiga ko'ra.

A. Zidlanish sistemasiga ko'ra zidlanish turlari

Bu belgiga ko'ra zidlanishlar bir o'lchovli va ko'p o'lchovli, ajralgan va proporsional zidlanisblarga bo'linadi.

Zidlanishlar zidlanuvchi a'zolarni farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarnigina emas, balki har ikki zidlanayotgan a'zolar uchun umumiy bo'lgan belgini ham taqozo etadi. Bunday belgilar «qiyoslash uchun asos» bo'lib xizmat qiladi.

Qiyoslash uchun asos belgiga ega bo'lмаган ikki narsa o'zaro zidlanishi mumkin emas. Qiyoslash uchun asos bo'lgan belgiga ko'ra zidlanishlar ikki turli bo'ladi: 1) *bir o'lchovli*, 2) *ko'p o'lchovli*.

Bir o'lchovli zidlanishiar zidlanuvchi a'zolarning zidlanishlari uchun asos bo'lgan belgi faqat shu zidlanish uchungina xos bo'lib, zidlanish sistemasining boshqa a'zolarida uchramaydi. Masalan, lotin grafik sistemasidagi *E* va *F* harflari zidlanishini olib ko'raylik. Bu harflarning zidlanishi bir o'lchovlidir. Chunki bu ikki harf o'rtasidagi o'xhash belgilar yig'indisi (vertikal chiziq va ikki gorizontal chiziq) lotin alifbosidagi boshqa hech qaysi harfda uchramaydi. Aksincha, *P* va *R* harflari zidlanishi esa *ko'p o'lchovlidir*. Chunki bu harflar o'rtasidagi o'xhash (qiyosga asos bo'lgan) belgilar (vertikal chiziq va uning ustiga o'ng tomondan chizilgan yarim doira) faqat shu juftlikdagina emas, balki boshqa harflarda ham mayjud (masalan, *B* harfida).

Bir o'lchovli va ko'p o'lchovli zidlanishlarning ajratilishi tilshunoslikda juda katta ahamiyatga ega. Bunday zidlanishlar tilning barcha satrlarida uchraydi.

Bundan tashqari birinchi belgiga ko'ra zidlanishlarning proporsional va ajralgan turlari ham mayjud.

Ma'lum bir zidlanish a'zolari o'rtasidagi munosabat til sistemasining boshqa zidlanish a'zolari o'rtasidagi munosabat bilan bir xil bo'lgan zidlanishlar proporsional zidlanish hisoblanadi. Masalan, o'zbek tili fonologik sistemasidagi *k-g* fonemalarining zidlanishi proporsionaldir. Chunki bu zidlanish a'zolari o'rtasidagi munosabat, ya'ni jarangsizlik, portlovchilik belgisi asosida umumiylikni hosil qilishi faqat shu juftlik uchungina emas, balki *p-b*, *t-d* kabi juftllklar uchun ham xosdir. Ma'lum bir zidlanish a'zolari o'rtasidagi qiyos uchun asos bo'lgan belgi til sistemasidagi zidlanishlarning hech qaysisida uchramaydigan zidlanish ajralgan zidlanish sanaladi. Masalan, *b* va *l* juftliklari o'rtasidagi zidlanish ajralgandir.

Chunki bllabiallik va labiodentallik belgilari boshqa hech bir juftlikda qiyos uchun asos bo‘lmaydi.

B. Zidlanish a’zolari o’rtasidagi munosabatga ko‘ra zidlanishlari

Zidlanish a’zolari o’rtasidagi munosabatga ko‘ra zidlanishlar *privativ* (qiyosga asos bo‘lgan belgi birida bor, ikkinchisida yo‘q bo‘lgan zidlanish), *darajali* (gradual) va *teng qimmatli* (ekvipotent) zidlanishlarga bo‘linadi.

Zidlanuvchi a’zolarining birida zidlanish uchun asos bo‘lgan belgining mavjudligi, ikkinchisida esa yo‘qligiga asoslangan zidlanish *privativ* zidlanish hisoblanadi. Zidlanuvchilarning belgiga ega bo‘lgan a’zosi belgili (markirlangan), kuchli, belgiga ega bo‘lmagan a’zosi esa belgisiz (markirlanmagan), kuchsiz a’zo deyiladi.

Masalan, *t-d*, *k-g* undoshlari zidlanishlari *privativ* sanalib, zidlanuvchi juftliklarning har birida birinchi a’zo «ovoz» (jarang) belgisining yo‘qligi, ikkinchisi esa borligi bilan xarakterlanadi. Bunday zidlanishlarning grafik ifodasi uchun kuchsiz a’zoga «—», kuchli a’zoga «+» belgisi qo‘yiladi. Masalan, so‘z turkumlari sistemasida ot bilan fe’l o’rtasida qiyos uchun asos bo‘lgan belgi «harakat» sanalib, birinchisi bu belgining yo‘qligi (–), ikkinchisi esa borligi (+) bilan xarakterlanadi.

Zidlanuvchi a’zolar bir belgining turli darajasini (gradatsiyasini) ko‘rsatuvchi zidlanish *darajali* zidlanish hisoblanadi. Masalan, unlilarda og‘iz ochilishining turli darajasini ko‘rsatuvchi *u-o ‘-o*, *i-e-a* o’rtasidagi zidlanish.

Darajali zidlanish ko‘p a’zoli bo‘lib, darajalanish silsilasidagi birinchi va so‘ngi a’zo *chegara* a’zolar, ular o’rtasidagi a’zolar esa *oraliq* a’zolar sanaladi.

Chegara a’zolar zidlanishning ikki qutbini tashkil etadi va maksimal zidlanish hosil qiladi.

Zidlanuvchi a’zolarning har ikkisi mantiqan teng bo‘lgan, ya’ni belgining ikki darajasini ham, bor yoki yo‘qligini ham bildirmaydigan zidlanishlar *teng qimmatli* (ekvipotent) zidlanish hisoblanadi. Masalan, opa-singil, ota-onal zidlanishi.

Shuni ta'kidlash kerakki, zidlamishlarning yuqoridagi turlarini ajratish til sistemasining aniq shart-sharoiti bilan bog'liq. Bu sistemaning aniq shart-sharoitidan ajratib olingan ayni bir zidlanish privativ ham, darajali ham bo'lishi mumkin.

Masalan, *u-o* o'rtasidagi zidlanish og'izning ochilishi darjasida olinsa, privativ ziddiyat bo'ladi. Zidlanuvchilardan biri og'iz ochilishining «nul» darjasida sifatida qabul qilinadi. Bu vaqtida *u* (ochiq enias), *o* esa «ochiq», yoki u «yopiq», *o* esa «yopiq enias» tarzida zidlanadi. Xuddi shu belgiga ko'ra til sistemasidagi *u* ga nisbatan ochiqroq unli *o*' e'tiborga olinsa, *u* bilan *o* o'rtasidagi zidlanish darajali zidlanishga aylanadi. Bu vaqtida *u* va *o* zidlanishning chegara a'zolari, *o*' esa oraliq a'zo bo'lib qoladi. Shunday qilib, u yoki bu zidlanishni privativ, darajali va teng qimmatli zidlanish sifatida baholanishi bizning qanday nuqtayi nazardan yondashuvimizga bog'liq.

Lekin bundan u yoki bu zidlanishni belgilash sof subyektiv xarakterga ega degan xulosaga kelmaslik kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, zidlamishning o'zida uni ma'lum bir turga kiritish uchun asos bo'ladigan qandaydir belgi mavjud bo'ladi. Tilming sistemaviy tuzilishining o'zi va uni funksiyalashuvi ko'p hollarda zidlanishning obyektiv va aniq turini ajratishga imkon beradi.

Yuqorida ko'rib o'tgan *u* va *o* fonemalari o'rtasidagi munosabat privativ zidlanish sifatida ham, darajali zidlanish sifatida ham tasavvur etilishi mumkin. Lekin amalda ularning qaysisi reallashayotgani shu fonologik sistemaning tuzilishi va qo'llanishi bilan bog'liq bo'ladi.

D. Zidlanuvchi a'zolarning ma'no farqlash kuchiga ko'ra zidlamish turlari

Zidlanuvchi a'zolarning ma'no farqlash kuchiga ko'ra zidlanishlar *doimiy* va *mo'tadillashgan* turlarga ajratiladi. Zidlanishlarning bunday tasnifi til sistemasining aniq sharoitda yuzaga chiqishiga-funksiyalashuviga asoslanadi. Sistema-funksiya tamoyiliga amal qiladi.

Til sistemasidagi zidlanuvchi a'zolar nutq jarayonida muayyan sintagmatik munosabatga kirishganda ham zidlanishga asos bo'lgan belgini saqlab qolsa, *doimiy* zidlanish, aksincha, saqlab qolmasa, *mo'tadillashgan* zidlanish sanaladi. Masalan, o'zbek tilida so'z oxiri jarangli va jarangsiz undoshlar zidlanishi uchun kuchsiz vaziyat sanaladi. Ana shu vaziyatda zidlanuvchi a'zolar zidlanish belgisini yo'qotadi, mo'tadillashadi: Masalan, *bob-bop*, *tog-toq*.

Mo'tadillashgan zidlanish ham barcha zidlanishlar kabi faqat fonologik sath uchungina xos emas. Ularning barchasi tilning hamma sathlarida uchraydi. Jumladan, birlik va ko'plik morfemalari o'rtaсидаги zidlanish hurmat ma'nosini ifodalaganda mo'tadillashadi.

Nazorat savollari

1. *Praga lingistik matabining asoschiları kimlar?*
2. *Praga lingistik matabining o'ziga xos xususiyati nimada?*
3. *Praga lingistik maktabi nima uchun funksional lingvistika nomi bilan yuritiladi?*
4. *Praga lingvistika maktabi vakillari kimlarning g'oyalariga asoslanadilar?*
5. *Tilning kommunikativ va ekspressiv funksiyalari haqida qanday fikr bildiradilar?*
6. *Praga lingvistlarining grammatika yuzasidan qarashlari qanday?*
7. *Praga lingvistika matabining fonetika va fonoliyiha haqidagi qarashlari qanday?*
8. *Tovushlarning qanday vazifalari ajratiladi?*
9. *Fonologik zidlanishlar yuzasidan qanday fikr yuritiladi?*
10. *Fonologik zidlanishlarni qanday tasnif qildi?*
11. *Praga tilshunoslari fonemaga qanday yondashadi?*
12. *Fonema va uning varianti qanday qoidalar asosida ajratiladi?*
13. *Fonema mundarijasi deganda nimani tushunadi?*
14. *Praga tilshunoslaring gapning aktual bo'linishi haqidagi fikrlari qanday?*
15. *Funksional lingvistikaning tilshunoslik tarixidagi xizmati qanday?*

GLOSSEMATIKA

Struktur lingvistikaning muhim tarmog‘i glossematikadir. Bu yo‘nalish F.de Sossyur konsepsiysi asosida, lekin uning qarashlariga bir tomonlama yondashgan holda maydonga keldi.

Glossematika yunoncha **glossa** «til» so‘zidan olingan bo‘lib, bu yo‘nalish tarafdarlarining e’tirof etishiga ko‘ra, obyektni o‘rganishda o‘ta subyektivizmga yo‘l qo‘yan va shuning uchun noilmiy bo‘lgan an’anaviy tilshunoslikka qarama-qarshi ravishda paydo bo‘ldi.

Glossematikaning asosiy tamoyillari V.Brendalning «Struktural lingvistika», L. Yelmslevning «Til nazariyasi tezislari», «Boshqaruv tushunchasi», «Lingvistikada struktur tahlil usuli», «Til va nutq» singari bir qator asarlarida bayon qilingan.

V.Brendal yuqorida ko‘rsatilgan asarida struktural lingvistikaning paydo bo‘lish sabablari haqida yozar ekan, bu yo‘nalish niaydonga kelgunga qadar bo‘lgan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, yosh grammatikachilar qo‘llagan tekshirish metodlariga baho beradi. Adabiy oqimlarning naturalizm va realizm davriga xos eng kichik dalillarni amiq va sinchkovlik bilan tahlil etish tamoyilidan ilhomlangan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sof pozitivistik xususiyatga ega bo‘lgani, u bevosita kuzatishga beriluvchi hodisalarini, ya’ni tovushli nutqni o‘rganish bilan cheklanganligiga tanqidiy baho beradi.

Pozitivism yosh grammatikachilar davrida ham amal qilgani ta’kidlanadi.

XX asrda ko‘zga ko‘ringan gnoseologlar pozitivistik nuqtayi nazarming kuchsiz tomonlarimi ochib tashladi. Bunday konsepsiya hozirgi fanning ravnaqi uchun endi xizmat qilolmasligi aniq bo‘lib qoldi.

Natijada barcha fanlarda, shuningdek, tingvistikada ham antipozitivistik ruh kuchaydi.¹

Ana shunday sharoitda struktur tilshunoslik paydo bo‘lganligini ta’kidlaydi.

Strukturalizm nomi bilan ma’lum bo‘lgan yangi nuqtayi nazarning xarakterli belgisi, uning fikricha, butunlik tushunchasiga ta’kid berishdir.

Glossematikaning asosiy tamoyillari uning yirik vakili bo‘lgan L.Yelmslev asarlarida yorqin o‘z ifodasini topgan.

«Boshqaruv tushunchasi» asarida struktural lingvistika endigina shakllanayotgani, hozirgi kunda u amal qiladigan dastur haqida gapirish ham hali erta ekanligini ta’kidlagan holda, bu tilshunoslikning muhim jihatni tilga struktura sifatida yondashuv ekanligini bayon qiladi».²

Uning fikricha, struktura o‘z ichki tartibiga asoslangan iyerarxiya ekanligi va yagona tayanch nuqtaga egaligi bilan xarakterlanadi. Bu iyerarxiyani faqat deduktiv yo‘l bilan yoritishi mumkin.

Xuddi shunday iyerarxiyani o‘rganishga mo‘ljallangan deduktiv metodni esa *empirik* yoki *immanent-semiologik* metod deb hisoblaydi.

Empirik yoki immanent-semiologik metod belgilarni funksiyasini lingvistik tadqiqotlarning asosiy predmeti deb hisoblaydi. Bu metod, L.Yelmslev ta’biri bilan aytganda, semiologik hodisalar bilan semiologik bo‘limgan hodisalarini farqlamasdan, ularni aralashgan holda o‘rganuvchi har qanday metoddan afzallikka ega. Empirik metod bu *soddalik* tamoyiliga asoslangan metoddir.

K.Xansenning fikriga ko‘ra, matematikaga tilshunoslikni yaqimlashtirish, hamma joyda sistemani ko‘rishga intilish, o‘scha davr fizikasi ta’sirida materianing mavjudligini rad etgan holda tilni aniq tadqiq etishda sof lingvistik predmet-immanent tushunchalarga tayanish L.Yelmslev qarashlarining negizidir.³

¹ Брендаль В. Структуральная лингвистика. — Звегинцев В.А. История языкоznания..., с. 40–41.

² Ельмслев Л. Понятие управления. — Звегинцев В.А. История языкоznания..., с. 47.

³ Хансен К. Пути и цели структурализма. — ВЯ, 1959, № 4, с. 94.

Uning ta'kidlashicha, semiologik funksiya yangi tushuncha emas. Yangilik semiologik funksiyani birinchi planga olib chiquvchi struktural yondashuvdir. Struktural metod tufayligina lingvistika subyektivlik va noamiqlikdan, intuitiv va sof shaxsiy xulosalardan holi bo'lgan chinakam fanga aylandi.

Struktural lingvistika tilshunoslikda yangi yo'naliш sanalib, uning metodi bir vaqtning o'zida *deduktivlik* va *empirik* tamoyilga asoslanishini bayon qiladi.

«Tilshunoslik va struktur tahlil usuli» asarida hozirgi tilshunoslikning asoschisi ko'p jihatdan F.de Sossyur hisoblanishi, chunki u birinchilardan bo'lib, tilni struktur o'rganishga, ya'mi til birliklarini bevosita nutq jarayonida qanday voqelanishidan qat'iy nazar, ular o'rtasidagi munosabatni o'rganishga da'vat etganimi bayon qiladi.

Ana shundan kelib chiqqan holda, u real til birliklari tovush yoki harf va ma'nolar emas, balki tovush yoki harf va ma'nolar yordamida gavdalangan *munosabat elementlaridir*, degan xulosaga keladi. Muhim narsa tovush yoki harflardan emas, balki nutq zanjirida va grammatikadagi paradigmalarda mavjud bo'lgan *munosabatlardir*. Xuddi ana shu munosabat til sistemasini tashkil etadi. Xuddi ana shu ichki sistema ma'lum bir tilni boshqa bir tildan farqlab turuvchi xarakterli belgi sanaladi.

Shuning uchun munosabatlar tugunini o'rganish lingvistikating bosh maqsadi bo'lishi kerakligini, bu munosabatlar tugunining konkrent namoyon bo'lishi til uchun muhim emasligini bayon qiladi. Uning fikricha, ma'lum bir qiymat turli tanga, qog'oz pul, cheklar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Lekim ular qanday gavdalishidan qat'iy nazar qiymat o'zgarmaydi.

Shu sababli L.Yelmslev tilni *immanent* o'rganishni talab qiladi va bunday o'rganishni o'zigacha bo'lgan o'rganish usuli, narsalarning o'zgaruvchan belgilarini farqlamasdan o'rganuvchi *transcendent* bo'lishga qarama-qarshi qo'yadi. Uning fikricha, shu kungacha til transcendent bilish, ya'mi tilga yondosh hodisalarini bilish vositasi bo'lib keldi. Masalan, klassik filologiya, eng avvalo, tildan ko'ra adabiyot va madaniyatni; qiyoziy tilshunoslik, eng avvalo, tarixni o'rganish bilan shug'ullanib keldi. Aslida lingvistik nazariya tilni tildan tashqaridagi hodisalar (fizik, fiziologik, psixologik

va boshq.) bilan aralashgan holda emas, balki o‘z ichidagi yaxlit strukturani o‘rganish lozimligimi ko‘rsatadi.

U o‘zi mansub bo‘lgan struktur tilshunoslikka izoh berar ekan, tilga o‘zaro munosabatlar sxemasi sifatida yondashish menin bosh vazifam, deb bilaman, deydi.¹

U fikrini davom ettirar ekan, menin butun urinishlarim tilni (langue) amaliy qo‘llanishga bog‘liq bo‘lмаган holda sof forma yoki sxema tarzida o‘rganishga qaratilgandir, deydi.² Bunday qarash F.de Sossyurming bosh g‘oyasi hisoblangan «lingvistikaning yagona va haqiqiy o‘rganish obyekti «o‘zi va o‘zi uchun» tarzida qaraluvchi til, ya’ni tilning ichki tuzilishi bo‘lishi kerak, degan g‘oya ta’sirida maydonga kelganligini qayd etadi.

Empirik tamoyil

Yuqorida L. Yelmslevning tilni o‘rganish tamoyili empirik tamoyil ekanligini ta’kidlagan edik.

L.Yelmslev «Til nazariyasi tezislari» («Прологомены к теории языка») nomli asarida o‘zining asosiy nazariy qarashlarini bayon qiladi. U o‘z qarashlarini an’anaviy tilshunoslikning kamchiliklarini fosh qilishdan boshlaydi. Uning fikricha, an’anaviy tilshunoslik til tabiatini bilishdan ko‘ra til egalarining tarixgacha va tarix davrida bo‘lgan sotsial sharoiti va xalqlar o‘rtasidagi aloqasini bilishga ko‘proq e’tiborni qaratdi. Bu tilshunoslik tildan tashqaridagi hodisalarga ko‘proq e’tiborni qaratganligi uchun transsidentlik xususiyatiga ega bo‘ldi. *Transsident* atamasi o‘zgaruvchan, ikkinchi darajali, o‘tkinchi kabi ma’nolarni bildiradi.

L.Yelmslevning ta’kidlashicha, haqiqiy ilmiy tilshunoslik *immanentlik* xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. Uning ma’nosi shuki, tilshunoslik tilning ichki xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanishi kerak.

Shuning uchun lingvistik nazariya tildan tashqaridagi hodisalarga bog‘liq bo‘lмаган, tilni til qilib turgan *barqaror* birliklarni

¹ Ельмслев Л. Метод структурного анализа в лингвистике, с. 52.

² Yelmslev L. O‘scha asar, 33-bet.

qidirishdan iborat bo‘lishi lozim. Ana shu *bargaror* birliklarni ajratish va tavsiflash tamoyilini L.Yelmslev *empirik tamoyil* deb hisoblaydi.

Uning fikricha, bu tamoyilda lingvistik birliklar tavsifi har qanday *ziddiyatlardan holi*, *to‘liq* va juda *sodda* bo‘lmog‘i lozim.

Chex tilshunosi V. Skalichka L. Yelmslevning matnni tahlil etishda tadqiqotchilar oldiga qo‘ygan uch talabni quyidagicha ifodalaydi: 1) ziddiyatsizlik; 2) tavsifning to‘liqligi; 3) soddalik.¹

L. Yelmslevning empirik tamoyilidagi bu uch talab izchillik, ketma-ketlik xususiyatiga ega. Ziddiyatsizlik to‘liqlikdan oldin, to‘liqlik soddalikdan oldin keladi. Yuqorida uch talab, chex tilshunosi B.Trnkaning ta’kidlashicha, matematik nazariyadan olingan.

Bundan *ziddiyatsizlik* talabi nazariyaning o‘zida tekshiriladi. Chunki matematikada ziddiyatli teoremlarning bo‘lishi mumkin emas.

To‘liqlik talabiga X. Uldall izoh berar ekan, agar o‘rganilgan narsalarning belgilari qoldiqsiz tavsiflangunga qadar, ya’ni narsa bir butun holda ko‘rilayotgan *tipga* birlashtirilgunga qadar tavsiflansa, u to‘liqlik talabiga javob beradi.

Bu o‘rinda tip tushunchasi ham muhim ahamiyatga ega. Glossematiklar tip atamasi ostida bevosita kuzatishda turlicha namoyon bo‘luvchi hodisalarning barchasi uchun xos bo‘lgan qandaydir umumiylikni tushunadilar.

Soddalik talabi haqida fikr yuritganda, shuni ta’kidlash kerakki, bu atama glossematiklar tomonidan «*oddiylik*» ma’nosida emas, balki tushunish va bajarishning yengilligi ma’nosida qo‘llanilgan.

X.Uldallning izohiga ko‘ra, o‘rganilayotgan narsaning imkon qadar oz miqdordagi birliklardan tashkil topganligini to‘liq ochib bergen tavsif soddalik belgisiga ega bo‘ladi. Ana shu soddalikdan obyektivlik, izchillik, to‘liqlik kabi ilmiy ideallar kelib chiqadi.²

L.Yelmslev pozitsiyasining tavsifi uchun eng muhimi ikkinchi band, ya’ni tavsifning to‘liqligi hisoblanadi.³ V.A. Skalichkaning

¹ Скаличка В. Копенгагенский структурализм и «Пражская школа». — Звегинцев В.А. История языкоznания..., с. 93.

² Березин Ф.М. История лингвистических учений. — М., 1975, с. 236.

³ Скаличка В. Копенгагенский структурализм и «Пражская школа». — Звегинцев В.А. История..., с. 93.

ta'kidlashicha, agar tilga har qanday sotsiallikdan uzilgan, boshqa struktur shakllanishlar bilan munosabatidan mahrum qilingan mustaqil struktura sifatida qaralganda, bu talab tabiiy hisoblanadi.

L.Yelmslev uchun empirik tamoyil induksiyami bildirmaydi. Aksincha, u induksiyani keskin tanqid qilgan holda, deduksiyani targ'ib qiladi.

Deduksiya atamasini ostida butundan bo'lakka tamoyilini, ya'ni butun matndan abzasga, abzasdan gapga, gapdan so'zga, so'zdan tovushga o'tish tamoyilini tushunadi.

An'anaviy tilshunoslik tushunchalarni hosil qilishda soddalikdan murakkablikka (alohida tovushlardan fonemalarga, xususiy ma'nolardan umumiy ma'nolarga va boshq.) tomon yo'nalgan, *induktiv* bo'lgan bo'lsa, glossematik nazariya, aksincha, umumiylidkan xususiylikka, sinfdan uning qismlariga qarab yo'naladi va deduktiv hisoblanadi. Shuning uchun L.Yelmslev o'z metodini *empirik* va *deduktiv* ekanligini ta'minlaydi.

Uning fikricha, bu nazariya har qanday tildagi har qanday matnni tavsiflash va oldindan aytish imkoniyatiga ega. Shuning uchun u bu nazariyameng universal mohiyat kasb etishiga umid qiladi.

F.M.Berezinning fikricha, L.Yelmslevning bu nazariyasi tabiiy tillarning ichki o'ziga xos xususiyatlarini yo'qqa chiqaradi va shuning uchun tilning tabiatini o'rganishda vosita sifatida bu metoddan foydalanish mushkuldir.¹

Invariant-variantlilik

L.Yelmslev F.de Sossyurning til-nutq dixotomiyasiga yuqori baho berar ekan, bu farqlanish bevosita shakl va substansiya o'rtasidagi farqlanishga asoslanganligini ta'kidlaydi. U F.de Sossyurning lingistik qarashlari «Umumiy lingistikha kursi»da izchil va aniq ifodasini topmaganligi, shuning uchun ziddiyatlarga boy ekanligini bayon qilgan holda, substansiya va shakl haqidagi qarashlarini bunga misol qilib keltiradi.

¹ Berezin F.M. O'sha asar, 238-bct.

Bir o'rinda F.de Sossyur til (langue) ni substansiya emas, shakl ekanligini aniq ifodalaydi. Bu, darhaqiqat, uning umumiy qarashlariga to'g'ri keladi. Lekin mazkur farqlanish kitobning oxiriga qadar izehil olib borilmaydi. Shu bilan birga yuqoridagi atamalar turli ma'nolarda qo'llaniladi. Lekin F.de Sossyur tadqiqotida eng muhim yangi narsami ajratish mumkin, deydi L.Yelmslev. «*Bu tilni sof munosabatlar strukturasi* sifatida tushunishdir».¹

L.Yelmslev F.de Sossyurning «Til bu shakldir» degan g'oyasini mahkam ushladi. Shuning uchun uning lingvistik konsepsiyasida shakl abstrakt mohiyat sifatidagi qandaydir barqarorlik tushuniladi. Uning ta'kidlashicha, har qanday shakl bevosita kuzatishda xilma-xil moddiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ma'lum mohiyatning ana shu xilma-xil moddiy ko'rinishlari substansiya sanaladi. Masalan, *Uyga ketmoq* ma'nosini turli-tuman tashqi ifodalarga ega. Tovushlar ketma-ketligi yordamida (fonetik vosita), harflar ketma-ketligi yordamida (grafik vosita), telegraf orqali Morze alifbosi yordamida, imo-ishoralar yordamida (paralingvistik), daftarga o'yish orqali (ko'zi ojizlar vositasi) va boshq. Bir umumiy mohiyatning ana shu xilma-xil gavdalaniishlari substansiya hisoblanadi.

Glossematiklar shakl va substansiyani o'zaro farqlash bilan birga, mazmun va ifodani ham farqladilar. Aslida lingvistik belgining ikki tomonlamaliligi F.de Sossyur tomonidan ko'rsatilgan edi. Glossematiklar uning bu dixotomiyasini shakl va substansiyaga ham nisbat berdilar.

Tilni shakl va substansiya, mazmun va ifoda dixotomiyalari asosida to'rt qatlamda o'rganish ham glossematikaning o'ziga xos xarakterli belgisidir.

Ana shunday bo'linishga asoslanib, glossematiklar ifoda shakli va ifoda substansiyasi, mazmun shakli va mazmun substansiyasi kabi tushunchalarini farqlaydilar.

Tilda o'zining ifodasini topgan borliq dalili, tafakkur orqali shakllangan borliq, tushuncha **mazmun substansiyasi**, til yordamida sistemalashtirilgan tovushlar zanjiri esa **ifoda substansiyasi** hisoblanadi.

¹ Ельмслев Л. Метод структурного анализа в лингвистике. – Звегинцев В.А. История языкоизучения..., с. 52.

Buni L.Yelmslev *Berlin* so'zi orqali tushuntirib beradi. Uning fikricha, yuqoridagi so'zda biz bir xil ifoda substansiyasiga (tovush zanjiriga) ega bo'lamiz. Lekin bu ifoda substansiyasi turli tillarda turli xil ko'rinishda bo'ladi: ingl. ba:'lin, nem. ber'lin, yapon. Iberulinul kabi. Lekin mazmun substansiyasi (Berlin haqidagi tasavvur) o'zgarmaydi. Aksincha, bir xil ifoda substansiyasiga ega bo'lgan ingl. got «oldim», nem. Goot «xudo», daniyacha godt «yaxshi» so'zlarni talaffuz etganimizda turli mazmun substansiyasiga (obyektiv borliq ma'lumotlari) ega bo'lamiz.

Bir xil substansiyaning turlicha ifodalamish imkoniyati boshqa misollar bilan ham dalillanadi. Masalan, *Bilmayman* jumlasida mavjud bo'lgan fikrni ifodalash kerak bo'lsin. Bu fikr L.Yelmslevning ta'kidlashicha, mazmun substansiyasi hisoblanadi. U barcha tillarda bir xil bo'lsa ham, lekin xilma-xil ifodasiga ega.

L.Yelmslev tilda mazmun plani va ifoda planini ajratish bilan birga, ularning har biri o'z shakli va substansiyasiga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Mazmun shakli birligi *plerema* (yunon. «to'liq»: ya'ni «mazmuniy parcha»), bularni o'rganuvchi bo'lim esa plerematika sanaladi.

Ifoda shakli birligi *kenema* (yunon. «bo'sh»), bularni o'rganuvchi bo'lim *kenematika* hisoblanadi.

Shakl substansiyaga nisbatan belgilovchi va barqaror xususiyatga ega bo'lganligi tufayli, u glossematiklarning asosiy o'rganish obyektiga aylanadi. L.Yelmslev shaklning substansiyadan to'liq avtonomligini ta'kidlagan holda, tilshunoslik shakllarni o'rganmog'i lozimligini bayon qiladi.

L.Yelmslevning bayon qilishicha, mazmun plani va ifoda o'zaro **kommutatsiya** munosabati orqali bog'langan.¹ Buning ma'nosi shuki, ifoda planidagi o'zgarish mazmun planida ham o'zgarishga olib keladi. Masalan, tol so'zining ifoda planidagi oxirgi tovushni o'zgartirsak, ma'no planida ham o'zgarish ro'y beradi: *tol* so'zidan *tosh* so'zi hosil bo'ladi.

¹ Ельмслев Л. Можно ли считать, что значение слов образуют структуру? — Новое в лингвистике. II. — М., 1962, с. 117.

Agar ifoda planidagi o'zgarish mazmun planidagi o'zgarishga olib kelmasa, bu hodisa **substitutsiya** hisoblanadi. Masalan, *kel* so'zining boshidagi *k* undoshini *g* undoshiga almashtirsak ham so'zning mazmun planida o'zgarish ro'y bermaydi.

Kommutatsiyada ifoda plani elementi bilan mazmun plani elementi sistemaning mustaqil elementi sifatida qaraladi. Ular o'zaro almashinish xususiyatiga ega bo'ladi. Bunday elementlar invariant hisobianadi. Substitutsiya munosabatida bo'lgan elementlar bir invariantning variantlari sanaladi.

L.Yelmslevning fikricha, matnning ko'pgina joylarida bir xil qo'shma gaplar, bir xil sodda gaplar, bir xil so'zlar va boshqalar uchraydi. Boshqacha aytganda, har bir qo'shma gapning, har bir sodda gapning, har bir so'zning ko'pgina namunalarini uchraydi. Bu namunalar *variant*, namunalar mohiyati esa *invariant* sanaladi.

Masalan, *Qachon u kelsa, men buni bajaraman* gapidagi *qachon u kelsa* qismini *qachon u aysa* bilan almashtirsak, ifoda plani elementlarining o'zgarishi ma'no planining o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun ular invariantlar sanaladi. *Qachon u kelsa, U qachon kelsa* jumllalari variantlar hisoblanadi.

Bundan ko'rindaniki, invariant-variantni belgilashda nutqiy jarayondagi real nutqiy birliklarni, ya'ni variantlarni muhim belgilariga ko'ra chegaralangan miqdordagi sodda elementlarga birlashtirish tamoyili muhim ahamiyatga ega. Bunga murakkab elementlarni izchil ravishda parchalash natijasida erishildi. Masalan, ifoda planimi parchalash (matn-pariodlar -gap – so'z – bo'g'in – fonema), shuningdek, mazmun planini parchalash natijasida oxir oqibat bo'laklarga bo'linmas birlikni ajratishga erishiladi. Mazmun planidagi ana shunday eng kichik birlikni L.Yelmslev *figura* atamasi bilan nomlaydi.

Figuralar lingvistik belgi tarkibiga kiruvchi, belgi bo'lmanan qismi sanaladi. Ular belgilar sistemasiga belgining qismi sifatida kiradi.

Uning fikricha, til shunday shakllanganki, bir siqim figuralar va uning yangi-yangi joylashuvi orqali qator belgilar hosil qilinishi mumkin. Figuralar L.Yelmslev tushunchasiga ko'ra, eng kichik mazmuniy birlik bo'lib, ularning kombinatsiyasi belgining

mazmuniy tomonini hosil qiladi. Masalan, *yigit* so'zining mazmuniy tuzilishidan quyidagi figuralarini ajratish mumkin: «shaxs», «yosh», «erkak». Keyingi figuraning o'zgarishi esa qiz belgisini beradi.

L.Yelmslevning ta'kidlashicha, tilshunoslikka figura tushunchasining kiritilishi tilning ichki tuzilishini yoritishga qulay imkoniyat yaratadi.

Uning figura haqidagi ta'lomoti Praga lingvistik maktabi vakillari: N.S. Trubetskoyning fonologik sathda farqlovchi belgilar, V. Skalichkaning grammatick sathda sema (eng kichik grammatick birlilik) tushunchalari bilan hamohang sanaladi va u til semantik tuzilishidagi eng kichik birlikni ajratish yuzasidan qilingan harakatning natijasidir.

L.Yelmslev substansiyani lingvistikaning o'rganish obyektidan chiqaradi va lingvistik birliklarning yagona tahlil usuli lingvistik birliklar o'rtasidagi munosabatni o'rganish, deb hisobiaydi.

Lingvistik birliklar o'rtasidagi tobe munosabatni ifodalash uchun u **funksiya** atamasini qo'llaydi. Funksiya a'zolarini ifodalash uchun esa **funktiv** atamasidan foydalanadi. Funktiv sifatida *barqaror* (konstanta) va o'zgaruvchan birliklar qo'llanilishi mumkin. Funksiya doirasida qo'llanilishi zarur bo'lgan funkativ *barqaror*, zarur bo'lmagan funkativ esa o'zgaruvchan hisoblanadi.

Konstanta va o'zgaruvchanlik asosida L.Yelmslev uchta muhim munosabatni ajratadi:

1)interdependensiya; 2) deatamatsiya; 3) konstellatsiya.

Interdependensiya atamasi ostida ikki konstanta o'rtasidagi o'zaro tobelilik, ya'ni biri ikkinchisining bo'lishini taqozo etishi tushuniladi. Bunday munosabatda biri ikkinchisisiz mavjud bo'lmaydi. Masalan, lisoniy birliklarning ma'no plani bilan shakl plani o'zaro shunday munosabatda bo'ladi. Yoki unlilar va undoshlar o'rtasidagi, jaranglilar va jarangsizlar, qaratqich va qaralmish o'rtasidagi munosabat interdependensiya sanaladi.

Konstanta va o'zgaruvchan birliklar o'rtasidagi bir tomonlama munosabat **deatamatsiya** hisoblanadi. Bu munosabatda bir a'zo ikkinchisining bo'lishini taqozo etadi. Sifatning aniqlovchi vazifasida kelishi uchun aniqlanmishning bo'lishi zarur. Uning bo'lishi taqozo

ctiladi. Lekin aniqlanmish vazifasidagi ot aniqlovchisiz ham qo'llanilaveradi. Shuningdek, bosh va ergash gaplar ham o'zaro deatamatsiya munosabatida bo'ladi (bundan xavola bo'lakli qo'shma gaplar mustasno).

Funksiya a'zolarining biri ikkinchisini taqozo etmasa, bunday munosabat **konstellatsiya** sanaladi. Masalan, ravish bilan fe'l o'rtasidagi munosabatda birining bo'lishi ikkinchisiga bog'liq emas.

L.Yelmslevning til sistemasida mavjud bo'lgan xilma-xil munosabatlarni bu uch munosabat ostiga birlashtirishi uning tilni o'rghanishda deduktiv tamoyilni amalga oshirish harakatimng ifodasidir.

L. Yelmslevning til va nutq zidlanishi haqidagi qarashlari

L.Yelmslevning fikriga ko'ra, lingvistikaga strukturlik tamoyili kiritilgan hozirgi kunda bu tamoyildan har xil mantiqiy natijalar olish uchun katta hajmdagi ishlarni amalga oshirish lozim.¹

U F.de Sossyur tomonidan «Kurs...»da kiritilgan «til» va «nutq» atamasi turli xil izohga yo'l qo'yishi, bu holat esa tilshunoslar o'rtasida «til» va «nutq» dixotomiyasiga turli xil qarashiarning tug'ilishiga sababchi bo'lishini ta'kidlaydi.

Xususan, «til» talqiniga nazar tashlansa, quyidagilarga guvoh bo'larmiz: a) sotsial shart-sharoit va moddiy ifodalanishga bog'liq bo'limgan sof shakl sifatida tushunish; b) turli moddiy ifodalamishga bog'liq bo'limgan, lekin ma'lum sotsial reallik bilan bog'langan moddiy shakl sifatida tushunish; d) turlicha moddiylashish xususiyatiga ega bo'luvchi va ma'lum sotsial jamoa tomonidan qabul qilingan ko'nikmalar yig'indisi sifatida tushunish.

L.Yelmslev «til»ga bunday uch xil yondashuvni qat'iy farqlash lozimligini ta'kidlaydi va bu uch xil yondashuv uchun uchta atamani qo'llaydi: a) **sxema** – til birligi sof shakl sifatida izohlansa;

¹ Ельмслев Л. Язык и речь. – Звегинцев В.А. История языкоznания..., с. 58.

b) ***me'yor*** — til birligi moddiy shakl sifatida izohlanganda;
d) ***uzus*** — til birligi ko'nikmalar yig'indisi sifatida izohlanganda;

Shunday qilib, F.de Sossyurning «til-nutq» dixotomik bo'lishining noaniqligi, nomukammalligini e'tiborga olib, o'ziming to'rt a'zoli bo'linishini tavsiya etadi. To'rtinchi a'zo sifatida nutqni e'tirof etadi va uni nutq akti hisoblaydi.

Sxema, norma, uzuslar til birliklari sanalib, nutq birligi sanaluvchi nutq aktiga qarama-qarshi qo'yiladi.

Sxema atamasi ostida sotsial qo'llanishi va moddiy shakllanishi bilan bog'liq bo'limgan sof shakl sifatida til ifodalanadi.

Norma atamasi ostida sotsial qo'llanish bilan bog'liq, lekin moddiy shakl bilan bog'liq bo'limgan til tushuniladi.


Uzus atamasi ostida til ma'lum jamiyat tomonidan qabul qilingan va ma'lum moddiy shakllanish bilan shartlangan ko'nikmalar yig'indisi sifatida tushuniladi.

Nutqiy akt esa so'zlashish, individual nutqiy jarayonini ifodalandi.

L.Yelmslev bu a'zolar o'rtasida o'zi umumlashtirgan uch turdag'i munosabatni yoritadi: norma uzus va nutqiy aktning bo'lishimi taqozo etadi. Darhaqiqat, nutqiy akt va uzus mantiqan va amalda ham normadan oldin keladi. Norma bilan uzus va nutqiy akt o'rtasida deatamatsiya munosabati mavjud bo'ladi. Deatamatsiyani strelka ishorasi bilan ifodalagan holda, bu uch a'zo o'rtasidagi munosabatni quyidagicha ko'rsatadi:

***norma* → *uzus* → *nutqiy akt*.**

Uzus bilan nutqiy akt o'rtasida interdependensiya munosabati mavjudligini ta'kidlaydi. Chunki ularning har qaysisi bir-birining bo'lishini taqozo etadi. Buni grafik sifatida quyidagicha ko'rsatadi:



L.Yelmslevning ta'kidlashicha, faqat nutqiy akt va sxema bilan birga uzus lingvistik reallikni aks ettiradi. Norma esa uzusdan sun'iy ravishda olingan abstraksiya ekanligini ta'kidlaydi.

F.M.Berezin F.de Sossyurning til-nutq dixotomiyasida ikki asosiy nuqtaga tayanganini bayon qildi: a) sotsiallik va individuallik belgisi; b) farqlovchilik va farqlamaslik belgisi.

Yelmslev esa sotsiallik va individuallik belgisini soqit qiladi. U faqat tilning o'zidagi munosabatlarni o'rganishga asosiy e'tiborni qaratganligi uchun ikkinchi zidlanish, ya'ni farqlovchi va farqlamaydigan belgilar zidlanishi asosiy tayanch nuqta hisoblanadi, deydi.

Xullas, til-nutq dixotomiyasida tilm «narsa o'zida» sifatida uning ichki strukturasini o'rganishda L.Yelmslevning xizmati katta bo'ldi.

Ayniqsa, uning empirik tamoyili til birliklarini belgllash uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Til birliklarini modellashtirishda uning bu tamoyili hali ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q.

Shu bilan birga tilni sof forma, substansiya emas degan g'oyaga amal qilishi bilan u tilni moddiylikdan uzib qo'ysi. Shuning uchun V.A.Zveginsev L.Yelmslev nazariyasini «tilsiz nazariya» («теория без языка»), deb baholaydi.¹

Fransuz strukturalisti A.Martine esa bu nazariyaning amalda qo'llash uchun noqulay bo'lган «fil suyagidan yasalgan minora» ekanligini, unga javob berish, ya'ni uning kamchiliklarini bartaraf etish uchun «fil suyagidan yangi minora qurish» kerakligini bayon qiladi. K.Xansen glossematika nazariyasiga baho berar ekan, L.Yelinslev o'z nazariyasining universalligini ta'minlash uchun shu darajadagi yuqori abstraksiyaga erishdiki, u aniq til hodisalarini tadqiq etishda keraksiz bo'lib qoldi.²

Nazorat savollari

1. *Glossematikaning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?*
2. *Glossematika amal qilgan deduktiv usul qanday usul?*
3. *Empirik yoki immanent-semiologik usul deganda nima tushuniladi?*

¹ В.А.Звегинцев. Глоссематика и лингвистика. — Новое в лингвистике. с. 223.

² Хансен К. Пути и цели структурализма. — ВЯ, 1959, № 4, с. 94.

4. *Munosabatlar tuguni deganda nimani tushundingiz?*
5. *Empirik tamoyil deganda nimani tushundingiz?*
6. *Glossematiklar shakl va substansiya atamalari ostida nimalarни tushunadilar?*
7. *Mazmuniy eng kichik birlikni glossematiklar qanday atama bilan nomlaydilar?*
8. *L. Yelmslev lingvistik munosabatlarni qanday tasnif qiladi?*
9. *L. Yelmslev til-nutq zidlanishi haqida qanday fikr bildiradi?*
10. *Glossematikaning tilshunoslik tarixida tutgan o'rni qanday?*

AMERIKA STRUKTURALIZMI

Struktur tilshunoslikning uchinchchi yirik tarmog'i deskriptiv lingvistika nomi bilan yuritiluvchi Amerika strukturalizmidir.

Deskriptiv lingvistika F.Boas (1808–1942), E.Sepir (1884–1939) va L.Bluemfeld (1887–1949)lar nomi bilan bog'liqdir.

V.A.Zveginsevning ta'kidlashicha, Amerika strukturalizmi to'g'ridan-to'g'ri F.de Sossyur ta'llimotidan kelib chiqqan emas. U Amerika hindularining tilini o'rganish jarayonidagi amaliy ehtiyoj zamirida vujudga keldi.¹

Mashhur lingvist va antropolog F.Boas Amerika hindulari tilini o'rgamish bilan shug'ullanar ekan, barcha tillar uchun umumiyl bo'lgan tekshirish tamoyillaridan voz kechish, uning o'rniga o'rganilayotgan aniq tilning ichki xususiyatiga asosiy e'tiborni qaratishga, deduksiya asosida emas, balki induktiv usul bilan o'rganishga da'vat etadi.

Amerika hindulari tilini o'rganish chog'idagi o'z tajribasiga suyangan holda, F.Boas himd-ovro'pa tillari materiallari asosida maydonga kelgan tadqiq metodlarini bu tillarga qo'llash mutlaqo mumkin emasligini asoslashga harakat qildi.

Amerika hindulari tili, birinchidan, hind-ovro'pa tillaridan farq qiluvchi o'ziga xos kategoriyalarga ega. Ikkinchidan, tarixiy taraqqiyotining oldimgi davrlari haqida guvohlik beruvchi yozma manbalariga ega emas. Uchinchidan, ularning dunyodagi qaysi tillar bilan qarindoshligi hali noma'lum. Bu omillar esa, F.Boasning fikricha, Amerika hindulari tilining tashqi, formal tomoniga asoslangan obyektiv tekshirish metodlarini ishlab

¹ Звегинцев В.А. Дескриптивная лингвистика. — Глисон Г. Введение в дискриптивную лингвистику. — М., 1959, с. 6.

chiqishga ehtiyoj tug'diradi.¹ Ana shunday tekshirish metodi sifatida deskriptiv (tavsifiy) metod paydo bo'ldi.

Deskriptiv metodni targ'ib qiluvchi tilshunoslarning fikriga ko'ra, tilshunoslikning bosh vazifasi tilni tavsiflash, ya'ni til dalillarini tushuntirish, izohlash emas, balki ro'yxatga olishdan iboratdir. Ana shu vazifadan kelib chiqqan holda bunday tadqiqot metodi deskriptiv (ingl.to describe-«tavsiflash») metod nomini oldi.

Bu usul haqida G.Glison quyidagilarni yozadi: «Tilning shunday tomoni mavjudki, shu kunga qadar uning bu tomoniga kam e'tibor berildi. Bu alohida ilmiy yo'nallsh bo'lgan deskriptiv lingvistika tomonidan o'rganiluvchi tillarning ichki strukturasidir».²

Boas an'anasini Sepir va Blumsildlar davom ettirdilar. Sepirning ko'proq tilning madaniyat bilan munosabati, til hodisalari bilan sotsial jihatlarning o'zaro aloqasi, tillarning tipologik tasnifi singari masalalar e'tiborini tortdi. Uning qarashlari «Til» (1921), «Til» (1933) kitoblari, «Lingvistikaning fan sifatidagi holati» (1929) maqolasi va boshqa asarlarida o'z ifodasini topgan.

Sepir til va madaniyat munosabati haqida fikr yuritar ekan, til qurilishi bilan madaniyatning to'g'ridan-to'g'ri muvosifqligini topish mumkin emasligi, xalq madaniyati uning tilidagi lug'at tarkibi bilan bog'liq ekanligini bayon qiladi. Uning til va madaniyat yuzasidan olib borgan kuzatishlari keyinchalik tlining xalq madaniyati, urf-odatlari bilan munosabatini o'rganuvchi alohida lingvistik yo'nalish – etnolingvistikaning shakllanishida asos bo'lib xizmat qildi.

Sepirning fikricha, inson ma'lum darajada o'zi mansub bo'lgan til hukmronligida yashaydi... «real borliq» ma'lum darajada shu jamiyatning til me'yorlarida o'z tuzilishini aks ettiradi. Natijada u tilning qaysi shaklda ekanligi obyektiv borliqning qanday bo'linishiga olib keladi, degan g'ayrillmiy xulosaga keladi. Xuddi ana shu g'oya «Sepir-Uorf gipotezasi» nomi bilan mashhur bo'lgan gipotezada ham o'z ifodasini topdi.

¹ Glison G. O'sha asar, 7-bet.

² Glison G. O'sha asar, 27-bet.

Bu gipotezaning Sepir va Uorf nomi bilan yuritilishining sababi shundaki, Sepir bayon qilgan yuqoridagi g'oya B.Uorf (1897–1941) tomonidan ham olg'a suriladi.

Sepir tillarning o'zigacha bo'lgan tipologik tasnifiga tanqidiy munosabatda bo'ldi. U tillarmi morfologik jihatdan flektiv, agglutinativ, o'zakli va ajralgan tillarga bo'linishini rad etgan holda, har bir tilning morfologik jihatdan shakllangan ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun u yoki bu tilni qaysi shakliy belgining rivojlanishiga qarab tasnif etishni ma'qul ko'radi va tillarni turli tipdagi tushunchalarni ifodalash, grammatikada simtezlashtirish darajasiga ko'ra tasnif etishni tavsiya etadi.

Boas qarashlarini boshqa yo'nalishda Blumfild davom ettirdi.

L.Blumfild deskriptiv lingvistika sistemasining bevosita yaratuvchisi sanaladi. Yu.D.Apresyanning ta'kidlashicha, Amerika lingvistik maktabining vujudga kelishi E.Sepir va L.Blumfildlar nomi bilan bog'liqdir. Ularning ta'limotlari asosida Amerika lingvistikasining ikki tarmog'i maydonga keldi. Ularning biri Sossyur strukturalizmining davomchilari bo'lib, L.Blumfild qarashlari, ikkinchisi esa E.Sepir qarashlari asosida shakllandi.¹ L.Blumfild ta'limoti Sossyur strukturalizmining bir ko'rinishi sifatida maydonga keldi. E.Sepir qarashlari asosida maydonga kelgan ikkinchi tarmoq esa Sossyur strukturalizmidan birmuncha chetga chiqadi. Chunki bu ta'limotda tilning struktur tahlili natijalari shu til egalari bo'lgan xalqning moddiy va ma'naviy madaniyati struktur tahlili natijalari bilan taqqoslanadi.

Yu.D.Apresyanning fikriga ko'ra, L.Blumfild ma'lum ma'noda E.Sepirga tamoman qarama-qarshi turadi. Garchi E.Sepir hayron qolarli darajada lingvistik intuitsiyaga, juda e'tiborli taxminlar chiqarish qobiliyatiga ega bo'lsa ham, lekin u bu g'oyalarni bayon qilish shakliga jiddiy e'tibor bermadi. Sepir lingvistikasining tili g'oyat noaniqdir. Aksincha, Blumfildning undan oddiyroq gipoteza va g'oyalari o'sha yillarda lingvistikada ilmiy aniqlikning namunasiga aylangan tilda bayon qilindi.²

¹ Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. – М., 1966, с. 37.

² Apresyan Yu.D. O'sha asar, 42-bet.

L.Blumfild dastlabki tadqiqotlarida V.Vundtning «xalq psixologiyasi»ga tayangan bo'lsa, 1926-yildan boshlab o'z tadqiqotlarining falsafiy asosi sifatida inson xulqini o'rganuvchi bixevoirizm tamoyillariga tayanadi. Uning bixevoiristik qarashiari 1933- yilda nashr etilgan «Til» asarida yorqin o'z ifodasini topdi. U tilshunoslikda psixologizmga qarshi chiqqan holda tilni ongdan ajratadi va uni signallar sistemasi sifatida o'rganadi.

Bu kitobning II bobida tilning umumiy nazariyasi haqida fikr yuritib, mentalingvistik nazariyaga tanqidiy baho beradi va materialistik (yoki mexanistik) nazariyaga moylligini bildiradi.

Uning fikricha, materialistik nazariya inson xulqining variativligi moddiy omillar asosida emas, balki har bir shaxsda mavjud bo'lgan ruhiy omillar yordamida tushuntiriladi. Mentalistik nazariyaga ko'ra, ruh moddiy obyektlardan tubdan farq qiladi. Shuning uchun u butunlay boshqa sabably aloqalarga bo'ysunadi.

Materialistik nazariyasiga ko'ra esa inson xulqi variativligi, shu jumladan, nutq variativligi, inson organizmning murakkab sistemaliligi bilan bog'liqdir.¹

Nutqiy aloqa jarayoni, Blumfildning fikricha, «stimul» (ta'sir) va «reaksiya» (aks ta'sir) munosabatidan tashkil topadi. Til suhbatlashuvchilarning ikki asab sistemasi o'rta sidagi ko'priq sanaladi. Aytigan so'z reaksiya tomonidan almashuvchi, eshitilgan so'z esa «almashtirilgan stimul» hisoblanadi. Ana shu asosda Blumfild tilshunoslikning nazariy muammolarini hal etadi va ilmiy tadqiqot metodlarini ishlab chiqadi.²

L.Blumfild o'z oldiga yagona, konstruktiv va izchil qurilgan tushunchalar sistemasini ishlab chiqishni bosh maqsad qilib qo'ydi. Garchi bu sistemaning bir qator jihatlari tarixiylik uchun qiziqish uyg'otsa ham, lekin umuman u bir butun holda hanuzgacha o'z qimmatini yo'qotgan emas.

Bu sistemaning bir qator tamoyillari tilshunoslikning keyingi rivoji uchun muhim rol o'ynadi. Ular qatoriga quyidagi omillarni kiritish mumkin:

¹ Блумфилд Л. Язык. — М., 1968, с. 47.

² Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. — М., 1979, с. 155.

1. L. Blumfild xuddi F.de Sossyur kabi «til» atamasi ostida ifodalananadigan murakkab hodisa tarkibida sof lingvistika obyektini ajratib olishga harakat qildi. Uning fikricha, lingvistika obyekti bir-biriga bog‘lanmagan alohida tovush va ma’nolar emas, balki «ma’lum tovushlarning muayyan ma’nolar bilan bog‘lanishi» bo‘lishi kerak. Tovush tilshunosni faqat ma’no farqlash nuqtayi nazaridan qiziqtiradi. Tovush (fonema)ning muhim belgisi ma’no farqlashidir.

Xuddi shuningdek, grammatika va leksikologiyada ham tilshunosni so‘z va shaklning aniq ma’nosi emas, balki ikki so‘z va shakl ma’nosi o‘rtasidagi farqlanish dalili qiziqtirmog‘i lozim. Shunday qilib, L. Blumfild tilshunoslikka differensial ma’no tushunchasini kiritdi. Uning bu tamoyili L. Yelmslevning «kommutatsiya» tamoyili bilan ekvivalentdir.

2. Ma’lum tovushlarning muayyan ma’no bilan bog‘langan shakllarni L. Blumfild til shakllari hisoblaydi va ma’no bilan bog‘lanmagan fonemalarga qarama-qarshi qo‘yadi. Fonemalarni til shakli sanamaydi.

Barcha til shakllarini, birinchidan, *bog‘liq* va *erkin*, ikkim-chidan, *murakkab* va *sodda* shakllarga ajratadi. Uning ta’kidlashicha, hech qachon alo‘ida qo‘llanilmaydigan (morfema va so‘zning boshqa qismlari) shakl bog‘liq shakl, boshqa shakllardan alohida qo‘llaniluvchi (so‘z, so‘z birikmasi) shakl esa *erkin* shakl hisoblanadi. Shuningdek, boshqa til shakhariga fonetik-semantik jihatdan qisman o‘xshash bo‘lgan shakllar (so‘z, so‘z birikmasi,gap) *murakkab*, bunday o‘xshashlikka ega bo‘lmagan shakllar (morfemalar) *sodda* shakl sanaladi. Ana shu ikki tasnidan u o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan barcha lingvistik tushunchalarni aniqlashga, xususan, uning lingvistik ta’limotida markaziy tushuncha bo‘lgan sinf va konstruksiyani belgilashga tayanch nuqta sifatida foydalanadi.

3. Ikki murakkab shakl uchun umumiylig qism sanalgan til shakli *konstituyent*, yoki shu murakkab shaklning qismi (komponenti) sanaladi. Konstituyentlar *bevosita ishtirokchilar va oxirgi* (atamaal) *ishtirokchilarga* bo‘linadi. Oxirgi ishtirokchi morfema sanaladi. Bevosita ishtirokchilar tushunchasi Sossyurning sintagma

tushunchasiga yaqin bo'lib, quyidagi misol asosida tushuntiriladi: Poor John ran away («Bechora Djon uzoqqa qochdi»); Bu gap ikkita bevosita ishtirokchiga bo'linadi: *Poor John* va *ran away*. Ularning har qaysisi, o'z navbatida yana ikkita yangi bevosita ishtirokchiga bo'linadi: *Poor* va *John, ran* va *away*. Shunday qilib, alohida morfemalar ajratilgunga qadar bevosita ishtirokchilar tushunchasi ostida qismlarga ajratila beradi.

Bevosita ishtirokchilar tushunchasi keyinchalik formal sintaktik tadqiqotlarning rivojlanishini belgilab berdi va deyarli 30 yillar o'tgach, mashina grammatikasi va tilning matematik modellarini hosil qilishda keng qo'llanildi.

4. L. Blumfield, shuningdek, tilshunoslikka *substitut* tushunchasini olib kirdi. Uning fikricha, ma'lum sinfiga mansub bo'lgan bir shaklning muayyan bir sharoitda boshqasi bilan almashinib kelishi *substitut* sanaladi. Substitutlar shakllarning sinfini hosil qiladi.

5. Tarkibidagi bevosita ishtirokchilarning hech qaysisi bog'liq shakl bo'lmanan til shakli *sintaktik konstruksiya* sanaladi. Sintaktik konstruksiyalarning ikki turi ajratiladi: **ekzosentrik** va **endosentrik**. Agar fraza uning bevosita ishtirokchilari shakli sinfiga mansub bo'lsa, u endosentrik sanaladi (qiyos, poor *John* *John* bilan almashinishi mumkin. Shuning uchun shu sinf shakliga mansubdir). Boshqacha aytganda, «harakat qiluvchi shaxsharakat» ni bildirib, gap shaklida ifodalangan sintaktik konstruksiya *ekzosentrik*, birikmani uning qismi bilan almashtirish mumkin bo'lgan konstruksiya esa endosentrik konstruksiya sanaladi. Masalan, «baho-predmet»ni bildiruvchi bechora Salim, chiroyli gul birikmalarining tarkibidagi Salim yoki gul bilan almashtirish mumkin bo'ladi va har ikki holatda ham bir xil funksiya bajaradi.

L. Blumfield tomonidan ishlab chiqilgan lingvistik tushunchalar sistemasi asosan ana shulardan iborat.

Bu tushunchalarning bir qanchasi, xususan, *bevosita ishtirokchilar, substitutsiya, ekzosentrik* va *endosentrik konstruksiyalar* kabi tushunchalar struktur tilshunoslikdan boshqa tilshunoslik yo'nalişlarida ham e'tirof etildi.

L.Blumfild o‘z nazariyasini aniq bo‘lmog‘i uchun matematik usullardan foydalanadi. Uning fikricha, har qanday jumla matematiklar tili bilan aytganda, *kontinuum* sanaladi. Uni xohlagan miqdordagi qismlarga bo‘lish mumkin bo‘ladi.¹

Uning ta’kidlashicha, lingvistik tadqiqotlarning asosiy obyekti jumlalar orqali ifodalangan ***nutq parchasidir***. Chunki nutq parchasi, nutqiy akt bixevoiristik qatorning markaziy bo‘g‘ini sanaladi va u nutqiy faoliyatning *so‘zlovchi – jumla – tinglovchi* mexamizmini ochib beradi. Ana shu asosda tilga jamiyat tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jumlalar yig‘indisi sifatida qaraladi va natijada tilning sistemaviy tabiatni amalda nazardan chetda qoladi.

Boshqacha aytganda, L.Blumfild lingvistik tahlilni faqat kuzatish bosqichida olib borishni bosh maqsad qilib qo‘yadi va umumlashtirish bosqichi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsalarni soqit qiladi. Bunday o‘ziga xos lingvistik pozitivizm bixevoirizm nazariy asosining ta’siri sanaladi va ayni paytda Sossyurning til haqidagi ta’limotigagina emas, balki Ovro‘pa tilshunosligining yetakchi struktur yo‘nalishiga ham qarama-qarshi turgan ta’limot sanaladi.²

L.Blumfildning tilni obyektiv tahlil etishdagi muhim tamoyil-laridan biri tavsifni formallashtirishdir. Uning fikricha, tilning faqat shakliy tomonigina ilmiy tavsif va tasnif obyekti bo‘lishi mumkin. «Til» asarida ma’noni bizning fan atamalari bilan amiq tavsiflab bo‘lmasligi ni bayon qiladi. Jumladan, morfemalarning to‘liq tavsifini berish mumkinligi, lekin uning ma’nosini tavsiflash mumkin emasligini ta’kidlaydi. Buning asosi sifatida u har bir ma’noning aniq vaziyat bilan bog‘liq ekanligini: ma’no – bu «*so‘zlovchi vaziyati nutq tinglovchi reaksiyasi*» ekanligini ko‘rsatadi. Har bir lingvistik shaklning aniq ma’nosimi berish uchun so‘zlovchi olamini to‘liq bilish kerak bo‘lishi, lingvistning bilimi undan chieklangan ekan, u ma’nomi o‘rganishni o‘zining tadqiqoti doirasiga kirita olmasligi bayon qilinadi.

¹ Блумфилд Л. Язык. – М., 1964, с. 74.

² Блумфилд Л. Ряд постулатов для науки о языке. – В кн: В.А.Звегинцев. История языкознания XIX–XX вв. в очерках и извлечениях. Ч. II. – М., 1960, с. 146.

Ko'rinadiki, L. Blumfeld amalda aniq vaziyat bilan bog'liq bo'lgan jumla mazmumi bilan til birligi ma'nosimi o'zaro qorishtiradi.

Blumfeld ta'limotida jumla tilshunoslikning asosiy tadqiqot obyekti sanalganligi tufayli, uning lingvistik tahlli metodikasida morfema grammatik shakllarning asosiy o'Ichov va qo'shilish birligi sifatida e'tirof etiladi. So'z esa til birligi sifatida tahlildan chetda qoldiriladi. Bunday yondashuv nafaqat L. Blumfeld, balki ko'pchilik deskriptivchilar uchun ham xarakterlidir. Morfemaning yetakchilik roli aynilsa jumlani bevosita ishtirokchilar metodi asosida qismlarga ajratishda aniq o'z ifodasini topadi. Chunki u butunning qurilishi uchun asosiy element hisoblanadi. *Gap ma'lum qoidalar asosida tashkil topgan morfemalar ketma-ketligi* sifatida talqin qilinadi.

Morfemalar *erkin* va *bog'liq* morfemalarga bo'linadi. Uning fikricha, *jumla bo'lib kelish imkoniyatiga ega bo'lgan shakl erkin, erkin bo'lmagan shakl bog'liq* sanaladi. So'zning qismini tashkil etgan bog'liq shakl formant hisoblanadi.¹ Morfemalarning o'zaro qo'shluvidan tashkil topgan butunlik konstruksiya hisoblanadi. Konstruksiyalarning qanday morfemalardan tashkil topishiga ko'ra *morfologik* va *sintagmatik* konstruksiyalar turlari va ularni o'rganadigan grammatikaning morfologiya va sintaksis bo'limlari ajratiladi.²

L. Blumfeld fikriga ko'ra, tarkibida bog'liq morfema yetakchilik qilgan konstruksiyalar bevosita ishtirokchilari erkin morfemalardan tashkil topgan konstruksiyalardan tubdan farq qiladi. Birinchi tipdag'i konstruksiya morfologik konstruksiya sanaladi va u tilshunoslikning mustaqil bo'limi bo'lgan morfologiya bo'limida o'rganiladi.

L. Blumfeld tilning asosiy birlıkları sıfatıda fonema, morfemalarını e'tirof etadi. Uning fikricha, minimal shakl morfema, uning ma'nosı esa semema sanaladi. «Shunday qilib, — deydi u, — boshqa takrorlanuvchi ma'noli shaklga ajralmaydigan takrorlanuvchi shakl morfemadir. Demak, har qanday ma'noli qismlarga bo'lmaydigan so'z yoki formant morfemadir».³

¹ Блумфилд Л. Язык..., с. 195.

² Блумфилд Л. Ряд постулатов для науки о языке. — В кн: Звегинцев... с. 146.

³ Blumfeld L. O'sha asar, 147-bet.

Ovoz belgisining minimal o‘xshashligi fonema yoki *farglovchi tovush* hisoblanadi.

L. Blumfeld so‘zni konstruksiyalar qatoriga qo‘shtgan holda «minimal erkin shakl (morfema – A.N.) so‘z» ekanligini ta’kidlaydi.¹ Shunday qilib, alohida (ma’no bilan birligida) talaffuz qilinadigan va jumla vazifasida kelishi mumkim bo‘lgan minimal erkin shakl so‘z sanaladi.

Demak, ma’noli qismlarga bo‘linmaydigan *quick* shakli ham, *quick va-ly* qismlaridan tashkil topgan va keyingi qismini alohida qo’llash mumkin bo‘lmagan *quickly* shakli ham so‘z sanaladi.²

Uning bayon qilishicha, morfologiya ostida bevosita ishtirokchilar sifatida bog‘liq morfemalar xizmat qiladigan konstruksiya tushuniladi. Morfologiya so‘z tuzilishi va uning qismlarini o‘rganadi. Sintaksis esa so‘z birikmalari konstruksiyalari bilan ish ko‘radi.

Bog‘liq morfemalardan foydalanish darajasiga ko‘ra tillarni analitik va sintetik tillarga bo‘ladi.

Bog‘liq morfemalar kam qo’llanadigan tillar sintetik tillarga kiritiladi.

Shuningdek, morfologik nuqtayi nazardan tillarning to‘rt guruhga bo‘linishida ham bog‘liq morfemaning qo’llanilish darajasi tayanch nuqta bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlanadi. Masalan, xitoy tili kabi bog‘liq morfemadan foydalanmaydigan tillar ajralgan tillar, turkiy tillar kabi bog‘liq morfema ketma-ket qo’llanadigan tillar agglutinativ, eskimos tili kabi mazmuniy muhim qism, masalan fe‘lning obyekt valentligi bog‘liq morfema orqali ifodalanadigan tillar polisintetik tillar, bir necha ma’no elementlari bir bog‘liq morfema orqali ifodalangan tillar flektiv tillar sanaladi.

Bevosita ishtirokchilarining hech qaysi biri bog‘liq morfema bo‘lmagan konstruksiyalar sintaktik konstruksiya sanaladi.

L. Blumfeld erkin morfemalarni leksemaga tenglashtiradi. Uning ta’kidlashicha, tilning barcha morfemalar zaxirasi shu tilning

¹ Blumfeld L. O’sha asar, 146-bet.

² Blumfeld L. O’sha asar, 195-bet.

leksikoni hisoblanadi.¹ *man* «*odam*», *cut* «*kesmoq*», *run* «*yugurmoq*», *red* «*qizil*» tipidagi bitta erkin morfemadan tashkil topgan birliklar so‘z-morfema hisoblanadi.²

So‘z-morfemalarni L. Blumfild birlamchi va ikkilamchi turlarga ajratadi. Uning ta’kidlashicha, nol belgiga ega bo‘lgan bir morfemali so‘zlar ikkilamchi so‘z – morfema sanaladi. Masalan, *men* «*odamlar*»-*man* «*odam*» zidligida «*ko‘plik son*» ma’nosiga ega bo‘lgan birinchi a’zo, *song* «*kuyladi*»-*sing* «*kuylamoq*» zidligida «*zamon*» ma’nosiga ega bo‘lgan birinchi a’zo L. Blumfild tomonidan ikkinchi a’zo negizida hosil bo‘lgan ikkilamchi so‘z-morfema hisoblanadi.

So‘zlarni birlamchi va ikkilamchi turlarga ajratar ekan, barcha ikkilamchi so‘zlar birlamchi so‘zlar asosida kelib chiqishini va ularning barchasi bir erkin morfema asosida bir paradigmani hosil qilishini bayon qiladi. Bu paradigmada ikkilamchi so‘zga asos bo‘lgan qism ham paradigma a’zosi bo‘lishini ko‘rsatadi. Ikkilamchi so‘zlearning asos bo‘lib xizmat qilayotgan qism bilan munosabatiga ko‘ra uch guruhi ajratiladi: *so‘z o‘zgarishi*, *so‘z yasalishi* va *so‘z qo‘shilishi*. So‘z o‘zgarishi va so‘z yasalishi uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qilgan, ya’ni bog‘liq morfemalarni o‘ziga qabul qiluvchi qism *asos* (stem) yoki *yadro* (kernel) sanaladi.

L. Blumfildning ma’noli birliklar uchun qo‘llagan atamalar sistemasi ham o‘ziga xosdir.

U til signallarining eng kichik ma’noli birligi uchun *glossema*, *glossemaning* ma’no tomonini ifodalash uchun noema; leksik ma’noli birlik uchun *morfema*, morfemaning ma’no tomoni uchun semema, grammatik ma’noli birlik uchun tagmema, tagmemaning ma’no tomoni uchun episemema atamalarini tavsija etadi.³

L. Blumfild ijodida substitut, susbstitutsiya atamalari ham markaziy o‘rinni egallaydi. Uning «Til» asarida substitutsiyaga bag‘ishlangan alohida bob ajratiladi. Ma'lum bir sharoitda biri

¹ Blumfield L. O’sha asar, 170-bet.

² Blumfield L. O’sha asar, 225-bet.

³ Blumfield L. O’sha asar, 290-bet.

o‘rnida ikkinchisi qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan lisomy shakllar substitutlar, ana shunday hodisa esa substitutsiya sanaladi.¹

O‘zaro substitutsiya munosabatida bo‘lgan birliklar bir sinfning, bir paradigmaning a’zolari hisoblanadi. Demak, paradigma yoki sinf a’zolarini belgilashda substitutsiya yordam beradi.

L.Blumfild sintaktik birliklarga ham xuddi morfologik birliklar kabi konstruksiya sifatida yondashadi va uning tarkibiy qismlarini bevosita ishtirokchilarga ajratish yo‘li bilan tahlil etadi. Demak, konstruksiya tarkibini o‘rganish morfologik sathda ham, sintaktik sathda ham bir xil tamoyilga asoslanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, sintaktik qurilmalarni talaffuz qilish jarayonida til birliklarining sintagmatik munosabatidan tashqari, bu birliklarning ustiga qo‘yilgan ustsegment birliklar ham qo‘shiladi. Ya’ni matn tarkibidagi gaplar bir-biridan ohang va pauza bilan ajralib turadi. Gap tarkibidagi bo‘laklar ham ana shunday ajralish xususiyatiga ega. Shuningdek, har bir so‘z ham o‘zining bosh urg‘usi ostida tarkibidagi bo‘g‘imlarmi birlashtiradi va bu bosh urg‘u boshqa shunday bosh urg‘uga ega bo‘lgan so‘zdan ajratib turishga xizmat qiladi.

L.Blumfild sintaktik qurilmalarning ana shu tomonlarini o‘rganadigan alohida yo‘nalish bo‘lishini tavsiya etadi va bu yo‘nalishni parataksis deb nomlaydi. Demak, sintaksis bir chiziqda o‘zaro ketma-ket bog‘langan segment birliklarmi o‘rgansa, parataksis segment birliklar ustiga qo‘yilgan va sintaktik birliklarmi izohiashga yordam beradigan ustsegment birliklarni o‘rganishini ta’kidlaydi.

Shuningdek, *til sathlari nazariyası* ham L.Blumfild nomi bilan bog‘liqdir. Uning fikricha, tilni tavsiflashni eng quyi sath bo‘lgan fonologik sathdan boshlash lozim. Unda fonemalar miqdori aniqlanadi va bu fonemalarning qo‘shilish imkoniyatlari belgilanadi. Fonologik sath tavsiflangandan so‘ng yuqori sath – semantik sathga o‘tiladi. Bu sath grammatika va leksikani o‘z ichiga oladi. N.Xomskiy esa lingvistik nazariyaning markaziy masalasi «Lingvistik sath nazariyası» ekanligini ko‘rsatadi.²

¹ Blumfild L. O’sha asar, 269-bet.

² Хомский Н. Синтаксические структуры. – Сб. Новое в лингвистике. – М., 1966. с. 415.

Shunday qilib, L. Blumfild tilni tadqiq etishning izchil sistemasini ishlab chiqdi.

Yu.D.Apresyanning e'tirof etishicha, L. Blumfild ishlab chiqqan sistema llingvistik tahlil texnikasini mukammallashtirishda metodologik asos rolini bajardi. O'tgan asrning 30-yillari oxiri, 50-yillari boshlarida shakllangan va Amerika strukturalizmning eng obro'li tarmog'i sanalgan distributiv llingvistikaning paydo bo'lishi uchun poydevor bo'hib xizmat qildi.¹

DESKRIPTIV LINGVISTIKANING TAHLIL METODLARI

Distributiv tahlil metodi

Deskriptiv tilshunoslik til tuzilishini ifoda va ma'nodan tashkil topgan butunlik, deb tushunadi va ifoda tuzilishini tilning bosh komponenti, deb hisoblaydi.² Mazmun tuzilishini esa ikkinchi muhim komponent sifatida baholaydi. Lekin mazmuniy tuzilishga munosabat Amerika tilshunosligida bir xil emas. Shuning uchun llingvistik ma'no va uning llingvistik tadqiqotlardagi o'rni masalasi Amerika tilshunosligining fundamental muammosiga aylandi.

Blumfild tilning ifoda va ma'no tomonini e'tirof etgan va ma'-noni aniq vaziyat bilan bog'liq ekanligini ko'rsatgan bo'lsa, Yel maktabini tashkil etgan shogirdlari va izdoshlari (J. Treyjer, Z. Xarris, B. Blok va boshq.) llingvistik tadqiqotlardan mazmuniy tomonni to'la chiqarib tashlash talabi bilan chiqdilar.

Lingvistik birliklarning ifoda va ma'no tomonini e'tirof etuvchilar bu ikki tomonning o'z tuzilish birliklari mavjud ekanligini ta'kidlaydilar va asosan ifoda tuzillish birliklari tahiiliga e'tiborini qaratadilar.

Deskriptiv tahlil obyekti muayyan bir tildagi alohida tugal jumla sanaladi. Jumla esa ma'lum shaxs nutqining ikki pauza orasidagi parchasi hisoblanadi. Lekin jumla bilan gapning bir-

¹ Apresyan Yu.D. O'sha asar, 44-bet.

² Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику, с. 33.

biriga teng emasligi, jumla bir so'zdan ham, so'z birikmasidan ham, tugallanmagan gapdan ham tashkil topishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Deskriptivchilarning bayon qilishlariga ko'ra, lingvistik tadqiqot ma'lum bir dialektdagi jumlalarni to'plashdan va to'plangan materiallarni tahlil qilishdan iborat bo'ladi.

To'plangan material, ya'ni matn elementlarga bo'linadi va bu elementlarning bir-biriga nisbatan distributsiyasi aniqlanadi.

Lingvistik elementlar sinfi substitutsiya eksperimental texnikasi asosiga quriladi. Elementlarning birikish qonunlari esa bevosita ishtirokchilar bo'yicha tahlil qilish asosida tiklanadi.

Deskriptivchilarning ta'kidlashtilaricha, ***segmentatsiya***, ***substitutsiya***, ***distributiv tahlit*** tilning har qanday aspektini tadqiq etishda qo'llanilishi mumkin. Bevosita ishtirokchilarga ajratish asosidagi tahlil esa faqat morfologiya va sintaksis doirasida qo'llaniladi.

Til tuzilishini ifoda va ma'no, ya'ni shakl va mazmun tuzilishi munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida e'tirof etuvchi deskriptivchilar ko'proq shakliy tuzilish birliklarimi o'rghanishga e'tibor qaratadilar.

G. Glisonning bayon qilishicha, tilning mazmuniy sistemasini o'rghanish shakliy sistemani o'rghanishga nisbatan birmuncha sekin amalga oshirildi va kam natijaga erishildi. Shu kungacha mazmuniy tuzilishni o'rghanish ilmiy asosda yo'lga qo'yilgan deb aytib bo'lmaydi. Deskriptivchilarning tilning ifoda tomonini o'rghanishdagi xatosi shunda bo'ladiki, mazmuniy tuzilish bilan shakliy tuzilish o'rtasidagi aloqani tushunmadi va shakliy tuzilishni o'rghanayotganda mazmumiyliz tuzilishni e'tiborga olmadi. Afsuski, mazmuniy tuzilishga faqat shakliy tuzilish orqali yondashish mumkin.

Mazmuniy tuzilishdan farqli ravishda, shakliy tuzilish bevosita sezgi a'zolarimizga beriladi va uni oson o'rghanish mumkin. Shuning uchun akustik va artikulatsion fonetikada tovushni o'rghanishda yuqori darajadagi aniqlikka erishildi.¹

¹ Глисон Г. Введение..., с. 45.

G.Glison ifoda planini qismlarga ajratar ekan, uning asosiy elementlari sifatida *fonema* va *morfemalarni* ajratadi.

Uning fikricha, fonema bir jumlanı ikkinchisidan farqlash uchun xizmat qiluvchi til ifoda sistemasining minimal birligi sanaladi.¹

Morfema ifoda sistemasining ikkinchi asosiy birligi sanaladi va uning ta’rifi ancha murakkab ekanligi ta’kidlangani holda, tilning mazmuniy sistemasi bilan bog‘liq qo’llaniladigan tilning ifoda sistemasi birligi hisoblanadi.²

Distributiv tahlilning birinchi bosqichi jumlanı eng kichik qismlarga ajratish-segmentlash va ularni daftarda simvollar bilan ifodalashdan boshianadi. Masalan, *kitobni o’qimoq* birikmasini erkin ravishda quyidagi segmentlarga ajratishimiz mumkin: *ki-tob-ni o’qi-moq*. Tadqiqotchi informantdan (talaffuz qiluvchidan) bu birikmaning talaffuzini takrorlashni iltimos qiladi yoki shu birikma boshqa informant orqali talaffuz qildiriladi.

Ikkinci marotaba talaffuz qilinganda, jumla tarkibidagi tovushlar oldingisidan bir oz farqlanishi mumkin. Masalan, *o* birida cho‘ziqroq, ikkimchisida qisqaroq talaffuz qilinishi mumkin. Lekin informantlar har ikki holatda talaffuz qilingan tovushlarni bir xil deb qabul qiladi. Chunki *o* ning cho‘ziq-qisqa talaffuz qilinishi informantlar uchun muhim bo‘lmaydi, ma’no farqlamaydi.

So‘ngra bu jumladan ajratilgan segmentlarni boshqa jumla tarkibiga qo‘yib informant uchun shunday qilish mumkin ekanligini tekshirib ko‘ramiz.

Ana shu asosda har bir tovush u yoki bu segmentning vakili ekanligini aniqlaymiz. Bir tovushni turli o‘rinlarda qo‘llab, ularning *qurshovi* belgilanadi. Elementning *qurshovi* yuqoridagi yo‘l bilan aniqlangan elementlar *qo’shnichiligidir*.

«Elementlar qo’slinichiligi» atamasi ostida bir elementning boshqa elementga nisbatan egallagan pozitsiyasi tushuniladi. Bir xil qurshovda turgan segment turli informant tomonidan turlicha talaffuz qilinib, ma’noga ta’sir etmasligi mumkin. Bunday holatda ular bir segmentning turli vakillari sanaladi. Lekin ma’no

¹ Glison G. O’sha asar, 41-bct.

² Glison G. O’sha asar, 43-bct.

o‘zgarishiga olib kelsa, bunday segmentlarni bir segmentning turli vakillari deb bo‘lmaydi. Masalan, tokning birinchi segmenti o‘rniga *n* segmentintini qo‘ysak, tamomila yangi ma’noli nok kelib chiqadi. Demak, *t* va *n* segmentlari boshqa-boshqa segmentlarning vakillari sanaladi.

Jumlalarni segmentlashi natijasida yuzlab ko‘rinishiarda talaffuz qilinuvchi **fonlar** ajratiladi. Bu segmentlarning nisbatan cheklangan miqdordagi sinflarga birlashtirilishi natijasida fonemalar aniqlanadi. Segmentlarni ana shunday guruhlarga — sinflarga birlashtirishda elementlar **distributsiyasi** (joylashish tartibi) xizmat qiladi.

Elementlar distributsiyasi atamasi ostida shu elementlarning barcha qurshovlari yig‘indisi tushuniladi.

Distributiv lingvistikada ikki tovush o‘rtasidagi uch xil munosabat ajratiladi. Bunday munosabat tiplari **distributsiya modellari** deyiladi.¹ Demak, distributsiya modellarining quyidagi turlari belgilanadi:

- a) kontrast distributsiya;
- b) qo‘srimcha distributsiya;
- c) erkin almashinish distributsiyasi.

Distributsiya modellarining bu turlari N.S.Trubetskoyning fonema va uning variantlarini belgilashning uch qoidasini eslatadi.²

Ikki element bir xil pozitsiya (qurshov)da biri o‘rnida ikkinchisi kelib, ma’noni farqlash vazifasini bajarsa, bu elementlar kontrast distributsiya munosabatida bo‘lgan hisoblanadi. Masalan, *tom*, *nom*, *jom* so‘zlarining birinchi segmentlari *t-n-j* bir xil pozitsiyada kelib, ma’no farqlash vazifasini bajarib, o‘zaro kontrast distributsiya munosabatidadir.

O‘zaro kontrast distributsiya munosabatida bo‘lgan elementlar ikki mohiyatning vakillari hisoblanadi.

Ikki element bir xil pozitsiyada biri o‘rnida ikkinchisi kela olmasa, bu elementlar o‘zaro qo‘srimcha distributsiya munosabatida bo‘lgan sanaladi. Masalan, **бил** so‘zi tarkibidagi **у** o‘rniga shu qurshovda **ы** ni qo’llab bo‘lmaydi, yoki **қиз** so‘zi tarkibidagi **о‘** o‘rniga shu qurshovda **ы** ni qo’llab bo‘lmaydi. Demak, **у** va **ы**

¹ Березин Ф.М. История лингвистических учений. — М., 1975, с. 257.

² Qarang. Shu kitobning «Praga strukturalizmi» bo‘limi.

tovushlari o‘zaro qo‘sishma distributsiya munosabatidadir. Qo‘sishma distributsiya munosabatida bo‘lgan ikki segment bir mohiyatning turli vakillari sanaladi. Fonologik sathda bir fonemaning ikki xil varianti hisoblanadi.

Ikki element bir xil pozitsiyada ma’nomi o‘zgartirmagan holda biri o‘rnida ikkinchisi erkin holda almashina olsa, bu ikki segment bir-biri bilan erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo‘ladi.

Masalan, gjida so‘zidagi portlovchi *dj* tovushi o‘rnida sirg‘aluvchi *j* tovushini almashtirish mumkin, lekin bu almashinish so‘zning ma’nosini o‘zgartirmaydi. O‘zaro erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo‘lgan ikki element bir mohiyatning ikki varianti hisoblanadi.

Lingvistik tahlilning fonologik sathdagi ana shunday texnikasi Xarris tomonidan morfologik sathga ham olib o‘tildi. Uning fikricha, tilning fonologik birliklarining pozitsiyalari orqali tilda ularning qanday kombinatsiyalari morfemani hosil qillshini hisoblash mumkin bo‘ladi. Morfologik birliklarni segmentlarga ajratish boshqa shunday birliklarga qiyoslash, taqqoslash metodi orqali amalga oshiriladi.

Xarris ma’noga murojaat qilishdan qochish maqsadida morfologiyada mazmuniy kriteriyani distributsiya kriteriyasi bilan almashtirishga harakat qiladi.

Morfema distributsiyasi deyilganda shu morfema qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan barcha kontekstlar yig‘indisi tushuniladi.¹

Morfologiyada ham xuddi fonologiyadagi kabi uchta distributsiya modeli ajratiladi. Ikki element bir xil qurshovda biri o‘rnida ikkinchisi almashinib, grammatik ma’noni o‘zgartirib yuborsa, bu ikki element o‘zaro kontrast distributsiya munosabatida bo‘ladi. Kontrast distributsiya munosabatida bo‘lgan ikki birlik ikki morfemaning ikki xil varianti – morfi yoki allomorfi sanaladi. Masalan, *kitob-im*, *kitob-ing* so‘zlaridagi *-im*, *-ing* shakllari bir xil pozitsiyada biri o‘rnida ikkinchisi almashinib kela oladi va bu almashinish ma’no o‘zgarishiga olib

¹ Glison G. O’sha asar, 96-bet.

keladi. Shuning uchun ular ikki morfemaning allomorflari sanaladi.

Og‘zaki so‘zlashuv nutqida *toqqa*, *eshikka*, *dalaga* singari so‘zlardagi ikkinchi ma’noli qismlarning hech biri shu qurshovda biri o‘rnida ikkinchisi kela olmaydi. Shuningdek, *toqqa*, *tog‘i* so‘zlarining birinchi ma’noli qismlari toq va tog‘ qurshovda biri o‘rnida ikkinchisi kela olmaydi. Ular qo‘srimcha distributsiya munosabatidadir. Shuning uchun bu shakllar bir morfemaning turli variantlari sanaladi.

Singli – singlisi, *manbayi – manbasi* singari so‘zlardagi -i va -si erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo‘ladi va shuning uchun ular bir morfemaning turli variantlari hisoblanadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan shu narsa ayon bo‘ladiki, distributsiya tahlili asosan segmentlarning shakhiy qurshoviga, distributsiyaga tayanadi. Shuningdek, distributiv tahlilda tayanch tushuncha bo‘lgan distributsiyaning o‘zi aniq izohini topmaydi.

F.M.Berezinning ko‘rsatishicha, agar distributsiyani shu element uchraydigan barcha qurshovlar yig‘indisi deb tushunadigan bo‘lsak, distributsiya element asosida izohianadi. Elementning o‘zi esa distributsiya asosida izohlanadi. Natijada «sehrli halqa» hosil bo‘ladi. Shuningdek, elementlar qurshovi tushunchasi ham aniq emas. Agar uni o‘rganilayotgan elementning ma’lum miqdordagi qurshovi deb tushunadigan bo‘lsak, bu tushunchaning unchalik aniq emasligini sezish qiyin emas. Uning fikricha, u yoki bu tilning xususiyatini bitta distributiv tahlil yo‘li bilan o‘rganish mumkin degan umumiylar qarash ham unchalik to‘g‘ri emas. Lekin shuni tan olish kerakki, distributiv tahlil lingvistik tahlilning obyektivligini aniqlashga sharoit yaratdi.¹

Bevosita ishtirokchilar metodi

Diskriptiv lingvistika vakillari jumlani eng kichik ma’noli qism-lariga ajratishda, ya’ni segmentlarga bo‘lishda **bevosita ishtirokchilar** (BI) asosidagi tahlilga ham tayanadilar.

¹ Березин Ф.М. История лингвистических учений. – М., 1975, с. 258.


Bu metodga isbora L.Bluemfeldning «Til» asarida uchrasa ham, uning aniq tamoyillari R.Uelz va Yu.Naydalar tomonidan ishlab chiqildi.

BI metodiga muvofiq, tayanch nuqta **konstruksiya** hisoblanadi. Konstruksiya tarkibidan **ishtirokchilar** va **bevosita ishtirokchilar** (BI) ajratiladi.

Konstruksiya atamasi ostida ma'noli qismalarning ketma-ket munosabatidan tashkil topgan butunlik tushuniladi. Ishtirokchilar deb kattaroq konstruksiya tarkibiga kirgan so'z yoki konstruksiya (yoki morfema)ga aytildi. Muayyan konstruksiyaning bevosita shakllanishida ishtirok etgan bir yoki bir necha ishtirokchilarga bevosita ishtirokchilar deyiladi.¹ Masalan, *Shabboda qurg'ur ilk sahar olib ketdi gulning totini*, (X.O.) jumlesi konstruksiya hisoblanadi. Uning tarkibida ishtirok etgan barcha ma'noli so'zlar ishtirokchilar, bevosita aloqaga kirishgan so'zlar esa bevosita ishtirokchilar (BI) sanaladi. Shabboda so'zi bilan totini so'zi o'rtasida ma'lum ma'noda bog'lanish (biri gapning boshlovchisi, ikkinchisi gapning yakunlovchisi) bo'lsa ham, lekin ular o'rtasida bevosita aloqa mavjud emas. Aksincha, *gulning so'zi totini* so'zi bilan *ilk sahar so'zi olib ketdi* so'zi bilan, *shabboda qurg'ur so'zi olib ketdi* so'zi bilan o'zaro zich bog'langandir.

Bunga muvofiq nutqning har bir mustaqil parchasi ikki qismdan tashkil topadi. O'z navbatida, har qaysi qism yana o'z ichida ana shunday qismlardan iborat bo'ladi. Ko'rinadiki, har bir konstruksiya binar tamoyilga ko'ra qismlarga bo'linadi va bu bo'linish konstruksiya doirasida graduallik (darajalanish) xususiyatiga ega bo'ladi.

Yuqoridagi gapni sxematik ravishda quyidagicha ko'rsatish mumkin:



¹ Глисон Г. Введение..., с. 190.

BI tahlilida, avvalo, so‘z birikmalari ajratiladi va ular bir gap ichida birlashtiriladi. Shuning uchun BI tahlilini birlashtirish, o‘rash deb ham yuritiladi.

Birlashtirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

1) bir vaqtning o‘zida ikkitadan ortiq bo‘lмаган elementlar birlashtiriladi. Masalan, birdaniga *olib ketdi gulning totini* tarzida birlashtirish mumkin emas. Avval *gulning* so‘zi *toti* so‘zi bilan birlashadi. So‘ngra *gulning totini* so‘zi *olib ketmoq* so‘zi bilan birlashadi;

2) bog‘lanmaydigan elementlarni birlashtirish mumkin emas. Xususan, yuqoridagi gapda *qurg‘ur*, *ilk* so‘zlarini birlashtirib bo‘lmaydi;

3) BI tahlilini qo‘llash tartibi qat’iy belgilangan bo‘ladi.¹

BI metodiga muvofiq, til grammatisasi shakliy to‘g‘ri gaplarni hosil qiluvchi (tug‘diruvchi) kibernetik qurilma hisoblanadi. Har bir tilning grammatisasi belgilarning yopiq (oxirgi) simvollar va bu simvollar zanjirining qayta kodlashtirish qoidalaridan iborat bo‘ladi. Qayta kodlashtirish qoidasi *X-Y* shakliga ega bo‘ladi. Bunda *X-Y* simvollar zanjirini ifodalaydi. Bir guruh simvollar so‘z va morfemalarni ifodalash uchun, boshqalari esa sintaktik guruh va gaplarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari *g‘shaklidagi alohida belgi* ham qo‘llaniladiki, *u* gapning boshlanishi va oxirini ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Har qanday gapning hosil qilish (tug‘dirish) qurilmasi quyidagicha amal qiladi. Gapni BIga ajratish uchun asos bo‘lgan har qanday gap zanjirini ifodalash uchun #S# belgisi qo‘llaniladi. Qayta kodlashning birinchi qoidasi #S# → #Y₁# qo‘llanilishi natijasida #Y₂# zanjiri hosil qilmadi. #Y₁# → #Y₂# qoidasining izchil amal qilinishi natijasida #Y₂# #Y₃# va boshqa. #Y₂#, → #Y₃# zanjirlari hosil qilinadi.

Bu jarayon qismlarini boshqa simvollar bilan ifodalash mumkin bo‘lмаган holatgacha olib boriladi va zanjir *atamaal zanjir* deb yuritiladi. Bunday zanjir #Y_p# belgisi bilan ifodalanadi. Undan hosil qilingan zanjirlar yig‘indisi #Y_p# ning derivatsiyasi deyiladi.


¹ Шаумян С.К. Теоретические основы трансформационной грамматики. –Новое в лингвистике. II. –М., 1962, с. 392.

Grammatik to‘g‘ri gaplarni hosil qilishning bunday jarayonini matematik shajara orqali ifodalash qabul qilingan. Masalan, quyidagi qoidalar berilgan bo‘lsin: 1) $C \rightarrow A+B$, 2) $A \rightarrow C$, 3) $B \rightarrow D+F$, 4) $C \rightarrow a$,

5) $D \rightarrow b$, 6) $F \rightarrow c$. Bu qoidalar asosida quyidagi derivatsiya hosil qilinadi:

#S#, #A + B, #C + B#, #C + D + F#, #a + D + F#,
#a + b + F#, #a + b + c#.

Bu derivatsiyani shajara tarzida quyidagicha ifodalash mumkin:



Agar A simvoli ism guruhini, B – fe'l guruhini, C – otni, D – fe'lni, F – to'ldiruvchini, a – o‘quvchi so‘zimi, c – kitobni so‘zini, b – o‘qidi so‘zini ifodalasa, unda yuqoridagi derivatsiya o‘quvchi kitobni o‘qidi gapining struktur tavsifini ifodalaydi.¹

BI metodiga asosan gaplarni qismlarga bo‘lish so‘z birikmalariga ajratishmi eslatadi va gap bo‘laklariga ajratishdan hech qanday farq qilmaydigandek ko‘rinadi.

Aslida esa BIga ajratish gapni bo‘laklarga ajratishdan tubdan farq qiladi. F.M.Berezinning fikricha, gap bo‘laklari bo‘yicha tahlil aniq javob berolmagan narsalarga BI metodi yo‘li bilan qilingan tahlil javob bera olishi mumkin.²

BI metodi asosan sintaksisda qo‘llaniladi. Sintaksisda obro‘-e’tibor qozongan bu metod keyinchalik morfologiya va fonologianing ayrim masalalarini hal etishda qisman qo‘llanila boshlandi.

BI metodi asosidagi fonologik tahlil Ch.Xokketning «Fonologiya bo‘yicha qo‘llanma» (1955) asarida aniq namoyon bo‘ldi. Fonologik

¹ Shaumyan S.K. O’sha asar, 392-bet.

² Berezin F.M. O’sha asar, 259-bet.

sathda ham BI asosidagi tahlil uchun zarur bo'lgan pog'onali (iyerarxik) munosabat ko'zga tashlanadi.

Ch.Xokket fonologik tahlilning asosiy nuqtasi deb jumlani bo'g'lnlarga ajratishni biladi. Har bir bo'g'in strukturasida uch element mavjudligi ko'rsatiladi: bo'g'in boshlanishi, bo'g'in cho'qqisi va bo'g'in oxiri.

Bu elementlar BI asosida tahlil etiladi. Masalan, o'zbek tilidagi tol so'zining bo'g'in boshlanishidagi tovushi birinchi BI sifatida ajratiladi. Qolgan bo'g'inning cho'qqisi va bo'g'in oxiri qismlari ikkinchi BI sifatida o'zaro birlashtiriladi.

Ya'ni t-o-l sxemasini oladi. Bo'linishning ikkinchi bosqichida bo'g'inning cho'qqisi va bo'g'in oxiri qismlari bir-biridan ajratiladi.

Til elementlarining ketma-ketligi va ular o'rtasidagi munosabatni o'rganishga qaratilgan BI metodi struktur tilshunoslikning dastlabki davrlarida ancha muvaffaqiyatga erishgan va tilshunoslarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etgan bo'lsa ham, lekin keyinchalik lingvistik tahlilning obyektiv va aniq bo'lmog'i uchun unda bir qator ojiz tomonlar mavjud ekanligi ma'lum bo'lib goldi.

S.K.Shaumyanning fikricha, bu metodning eng ojiz tomoni shundaki, BI metodi lingvistik tadqiqotlarda invariantlilik muammosini hal qilishda yetarli kuchga ega emas.

Quyidagi gaplarni qiyoslaymiz:

1. O'quvchi kitob o'qiyapti.
2. Kitobni o'quvchi o'qiyapti.
3. Kim kitob o'qiyapti?

Har qanday kishi birinchi gapning darak, ikkinchi va uchinchi gapning so'roq gaplar ekanligini yaxshi biladi. Lekin BI metodi bu gaplarni farqlashning formal o'Ichovlarini bermaydi. Agar formal o'Ichov sifatida so'z tartibini oladigan bo'lsak, birinchi va uchinchi gaplarni bir guruhg'a kiritishimiz kerak bo'ladi. Agar ohang asosida chegaralaydigan bo'lsak, ikkinchi gapdagi so'roq ohang uchinchi gapda boshqacha.

Shunday qilib, yuqoridaq usul bilan zidlanuvchi darak va so'roq gaplar asosida yotgan invariantni belgilash qiyin.

Yoki rus tilidagi quyidagi gaplar tashqi strukturasiga ko‘ra bir paradigmanni tashkil etadi. Ularning hammasi qaratqich-qaralmish munosabatini ifodalaydi.

1. Пение птиц.
2. Изучение языка.
3. Приглашение писателя.

Dastlabki ikki sintaktik qurilma mazmunan o‘zaro zid munosabatni ifodalaydi. Birinchi qurilmada qaratqich (родительный) kelishikdagi qush (птица) so‘zi kuylash (пение) harakatining bajaruvchisi sanalsa, ikkinchi qurilmada xuddi shu kelishikdagi языка so‘zi o‘rganmoq fe’lidan anglashilgan harakatning obyekti hisoblanadi. Uchinchi birikma esa mazmunan ikki ma’nolidir. Birinchi ma’noda taklif qilish (приглашение) harakatining bajaruvchisi yozuvchi (писатели), ikkinchi ma’noda yozuvchi (писатель) taklif qilinuvchi, ya’ni obyekt hisoblanadi.

O‘zbek tilidagi qaratqichli konstruksiyalarda ham ana shunday omonimlik xususiyati uchrab turadi. Masalan, uning imtihoni birikmasidan ikki ma’no ifodalanadi; 1) uning imtihon olishi; 2) uning imtihon topshirishi. Bu *U imtihon oladi* va *U imtihon topshiradi* gaplarining transformatsion o‘zgaruvidan tashkil topgan.¹

Lekin BI grammatikasi yuqoridagi konstruksiyalarning ko‘rsatilgan mazmuniy farqlarim simvollarim orqali ifodalay olmaydi.²

Bundan tashqari, F.M.Berezinning fikricha, BI metodi aktiv va passiv, tasdiq va inkor konstruksiyalar o‘rtasidagi aloqani ko‘rsatish imkoniyatiga ham ega emas. Shuningdek, bu metod sintaktik sathda eng kichik (elementlar) birlik nima, degan savolga ham javob bera olmaydi.³

Ana shunday kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida ishti-rokchilarining shakliy ko‘rsatkichlarini ifodalash uchun maxsus indekslardan foydalanish mumkm. Masalan, yuqorida keltirilgan uchta misoldagi qaratqich kelishigi uchun G, bosh kelishik uchun

¹ Bo‘ronov J. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – T., 1973, 42-bet.

² Shaumyan S.K. O’sha asar, 394-bet.

³ Berezin F.M. O’sha asar, 260-bet.

N simvollari bilan birgalikda, subyektni bildirayotgan qaratqich uchun G_1 , obyektni bildirayotgan qaratqich uchun G_2 singari indeksli simvollardan foydalamish va shu yo'l bilan BI usulidagi grammatik omomimiyani izohlashdagi kamchiliklarni bartaraf qilish mumkin. Lekin bunda yangi qiyinchilikka duch kelinadi. Grammatik omomimiyani bartaraf qilishga sun'iy harakat tufayli grammatik tavsif turli simvol va indekslar bilan o'ta murakkablashadi.

BI metodidagi yuqorida ko'rsatilgan ojiz tomonlar tadqiqotchilarini bundan ko'ra mukammalroq tahlil metodlarini qidirishiga undadi. Ana shunday obyektiv zaruriyat tufayli transformatsiya metodi (TM) maydonga keldi.

Transformatsiya metodi (TM)

Transformatsiya metodi dastlab deskriptiv lingvistika nazariyotchilaridan biri Z.S.Xerris tomonidan tavsiya qilingan edi.¹ Uning fikriga ko'ra, transformatsion tahlli (TT) BI metodi duch kelgan murakkabliklarning bir qancha qismimi bartaraf qilishga yordam beradi. TT ko'p jihatdan til tuzilish tahlilining algebraik usulini namoyon qiladi.²

Z.S.Xerris tomonidan tavsiya etilgan TM uning shogirdi N.Xomskiy tomonidan rivojlantirildi.³

L.S.Barxudarov TL ni ham o'z ichiga olgan generativ lingvistikani (GL) struktur lingvistikadan farqlagan holda, uni tilshunoslikning struktur lingvistikadan keyingi bosqich deb hisoblaydi.⁴

U tilshunoslik tarixini olamni bilishning dialektik nazariyasi belgilab bergen uch bosqichning qaysisiga tayanib ish ko'rish

¹ Хэррис З.С. Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре. –Новое в лингвистике. II. – М., 1962, с. 528.

² Xerris Z.S. O'sha asar, 529-bet.

³ Хомский Н. Синтаксические структуры. – Новое в лингвистике. II. –М., 1962, с. 412.

⁴ Бархударов Л.С. Истоки, принципы и методология порождающей грамматики (Введение). –Проблемы порождающей грамматики и семантики. –М., 1976, с. 5.

belgisiga ko‘ra uch bosqichga-uch grammatik nazariyaga bo‘ladi: a) an’anaviy, b) struktur, d) generativ (tug‘diruvchi) lingvistika.

L.S.Barxudarov fikriga ko‘ra, yuqoridagi uch tilshunoslik bilishining uch bosqichiga asoslanadi. Dialektik falsafa bilishning bevosita kuzatish, analiz va sintez bosqichlarini e’tirof etadi. An’anaviy tilshunoslik bilishning birinchi bosqichiga, struktur tilshunoslikning deskriptiv yo‘nalishi ikkinchi bosqichiga, struktur tilshunoslikning glossematika va TL yo‘nalishi esa sintez bosqichiga tayanadi.

XX asrning 50-yillarida shakllanib, rivojlanish bosqichiga o‘tgan struktur tilshunoslikning deskriptiv maktabi vakillari an’anaviy tilshunoslkning aniq lingvistik tadqiqot tamoyillari yo‘q ekanligini tanqlid qilgan holda, o‘z oldilariga tilni o‘rganishning formallashtirilgan tahlil tizimini ishlab chiqishni maqsad qilib qo‘ydilar. Ana shunday tahlil asosida tadqiqotchi obyektni o‘rganishda har qanday subyektivlikdan holi bo‘lgan obyektiv xulosaga kelishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Lekin struktur tilshunoslikning glossematika yo‘nalishida substansiyani shakldan ajratish shu darajaga yetdiki, natijada shakl o‘zining substansiysidan ajralib qoldi.

Bu esa struktur tilshunoslik bag‘ridan yangi yo‘nalish – generativ lingvistikaning o‘sib chiqishiga olib keldi.

Hozirgi kunda eimpirizm nomi bilan yuritilayotgan tilshunoslik yo‘nalishi L.Bluemfeld nomi bilan bog‘lansa, unga qutbiy ziddanishda turuvchi ratsionalizm yo‘nalishidagi generativ lingvistika N.Xomskiy nomi bilan bog‘liqdir. Bu ikki yo‘nalish o‘rtasidagi muhim farqlovchi belgilari empirizm va ratsionalizm,¹ mentalizm va antimentalizmdir. L.Bluemfeld ma’nodan holi bo‘lgan shaklni o‘rganishni targ‘ib qiladi. Shuning uchun uning g‘oyasi antimentalistik xarakterga ega.

TMga muvofiq, har qanday tilning sintaktik sistemasini yadro gaplar nomi bilan yuritiluvchi eng kichik (elementlar) gaplar tiplari yig‘indisi sifatida gavdalantirish mumkin. Yadro gaplar deb sodda,

¹ Звегинцев В.А. Язык и лингвистическая теория. – МГУ, 1973, с. 61.

yig‘iq, darak gap tushuniladi. Fe'l kesimli gap bo'lsa, kesimi aniq nisbatda turadi. Bu eng kichik gaplar har bir tilning sintaktik sistemasining asosini tashkll etadi.

Yadro gaplardan turli shakliy o'zgarishlar asosida asosiy ma'nomi saqlagan holda ikkilamchi sintaktik qurilmalarning hosil qilimishi transformatsiya hisoblanadi. Bu metod gapning shakliy va mazmuniy tuzilishlarining o'zaro munosabati zaminida vujudga keladi.¹

TM gapning ichki va tashqi strukturasi va bu struktura birliliklarining o'zaro munosabatiga tayanadi. Deskriptiv lingvistikada qo'llanuvchi ichki struktura gapdan anglashilgan ma'no tuzilishini, tashqi struktura esa muayyan mazmuniy tuzilishining shakliy, ifoda tomonini bildiradi.

V.S. Xrakovskiy ta'kidlagaridek, matn tarkibidagi har qanday gap (jumla) nutqiy faoliyatning yakuniy hosilasi sanalib, murakkab, ko'p qirrali xususiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun uni turli tomonidan turlicha o'rganish mumkin.²

Bir yo'naliш doirasida nutqiy jarayonda gap hosil qilishga oid masalalar asosiy o'rganish obyekti bo'lsa, ikkinchi yo'naliш doirasida gap modeilari ro'yxatini, inventarini belgilash bilan bog'liq sof lingvistik masalalar o'rganiladi. A.V. Isachenkoning fikriga ko'ra, sintaktik modellarning yakuniy modellarini izlash ilmiy sintaksisning birlamchi va asosiy vazifasidir.³ Lekin tadqiqot maqsadi faqat gap modellarining statistik tavsifi bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Sistemaviy sintaksis uchun sinxroniyadagi u yoki bu sintaktik modellar o'rtasidagi o'zaro munosabatni yoritish, statistik tavsifni dinamik tavsif bilan to'ldirish zarur bo'ladi.

Transformatsion tahlil ana shunday zaruriyatni qoplash vazifasini bajaradi. TM uchun **yadro gap, transformatsiya qoidasi** va **hosila gap** tushunchalari muhim sanaladi.

¹ Bo'ronov J. O'sha asar, 39-bet.

² Храковский В.С. Очерки по общему и арабскому синтаксису. – М., 1970, с. 5.

³ Исаченко А.В. Трансформационный анализ кратких и полных прилагательных. – Сб. Исследования по структурной типологии. – М., 1963, с. 61.

Yadro gap, ya'ni transformatsiya uchun asos bo'lgan gap *operand*, hosila gap *transform* yoki *transformand*, operanddan transformandni hosil qiluvchi vositani *transformatsiya operatori* deb yuritiladi.¹

Z. Xerrisning fikriga ko'ra, transformatsiya bir gapning ikkinchi gap shakliga shunday o'zgarishiki, unda asos gap hosila gap o'rtasida ham leksemalar tarkibi, ham ma'nosi nuqtayi nazardan bir xillik mavjud bo'ladi.² Demak, mazmuniy mundarija transformandlar uchun invariant sanaladi.

Operand bilan transformand o'rtasida transformatsiya munosabati mavjud bo'ladi. Ular ikkisi o'zaro transformatsiya munosabati bilan bog'langan bo'ladi.

Shunday qilib, o'zaro transformatsiya munosabatida bo'lgan gaplar bir xil leksik maqomga ega bo'lib, bir xil elementar ma'nolar kombinatsiyasidan tashkil topgan holda, turli xil grammatik (shakliy) maqomga ega bo'ladi.

Transformatsiya ***maxsus transformatsiya*** qoidalari orqali amalga oshiriladi. J.Bo'ronov ta'kidlaganidek, transformatsion qoida asosiy va hosilaviy modellar o'rtasidagi munosabatlarni topish usuli sana-ladi. Transformatsion qoida *Biga ajratish qoidasini, transformatsion modellar yaratish qoidasini* va *morfofonemik qoidalarni* o'z ichiga oladi. Transformatsion qoida bitta konstruksiya yoki gapning ma'nosini ochishda bir qancha hosilaviy konstruksiya yoki gaplardan foydalana oladi.³

Demak, transformatsiyaga asos bo'lgan konstruksiya va transformandlar bir umumiyligi ma'no va barqaror leksik birliklar zanjiri asosida birlashib, bir sintaktik paradigmami hosil qiladi va unda yadro gap paradigmanning bosh a'zosi sanaladi.

Ko'rindaniki, yadro gap modeli va uning turli hosilalari ro'y-xatining olinishi u yoki bu tilda muayyan axborotni turlicha ifodalash imkoniyatlarini ochib beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yadro gapning shaklimi o'zgartirish bilan uning turli transformandlarini hosil qilish ma'lum transformatsiya qoidalari asosida amalga oshiriladi.

¹ Эшиб У.Р. Введение в кибернетику. – М., 1963, с. 61.

² Xerris Z.S. O'sha asar, 540-bet.

³ Bo'ronov J. O'sha asar, 42-bet.

Ko‘pchilik mualliflar tomonidan transformatsiyaning to‘rtta qoidasi qayd etiladi:

1) o‘rin almashtirish transformatsiyasi yoki permutatsiya transformatsiyasi. Bunda yadro gap tarkibidagi sintaktik birliklarning o‘rni almashtiriladi. Lekin bu qoida amalga oshirilganda, sintaktik birlikning mohiyati o‘zgarmasligi kerak.

Masalan, Farhod keldi → Keldi Farhod;

2) *substitutsiya*, ya’ni yadro gap tarkibidagi bir elementni o‘zaro substitutsiya munosabatida bo‘lgan boshqa element bilan almash-tirish. Masalan, Men uning nima xohiashini bilaman Men buni bilaman;

3) adyunksiya, ya’ni yadro gap tarkibiga boshqa elementlarni qo‘sish. Masalan, Men o‘qidim → Men bu kitobni o‘qidim;

4) ellipsis, ya’ni yadro gap tarkibidan ayrim elementlarni soqit qilish. Masalan, Men keldim → Keldim.

TMning DMdan kuchli tomoni shundaki, DM 40–50- yillarda gacha faqat dalillarmi tahlil qilish bilan cheklangan bo‘lsa, TM tahlil metodlarini ishlab chiqishga asosiy e’tiborni qaratdilar.¹

Agar distributiv tahlil va BI metodlari jumla qanday mayda qismlardan tashkil topadi, degan savolga javob berishga harakat qilgan bo‘lsa, TM bu jumla qanday gapning transformatsion qayta shakllanishidan hosil bo‘lgan, degan savolga javob berishi lozim bo‘ldi. F.M.Berezin to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, TMning ojiz tomoni ana shunda namoyon bo‘ladi. Chunki TT bevosita lingvistik materialdan kelib chiqmaydi, balki dastlab sof empirik asosga quriladi, so‘ngra til materiali asosida tekshiriladi. Bundan tashqari TMning qo‘llanilish doirasasi va turli tillardagi yadro gaplar tiplarining miqdori aniq belgilanmagan.²

Bundan tashqari, sintaktik sathda transformatsiya bilan derivatsiya o‘rtasidagi o‘xshashlik va farq ochilmaydi. Yadro gapning mohiyatini o‘zgartirib yuboradigan shakliy o‘zgarishlar ham transformatsiya doirasida o‘rganiladi. Masalan, transformatsiya

¹ Основные направления структурализма. —М., 1964, с.191. Хомский Н. Синтаксические структуры. —Новое в лингвистике. Вып.2. — М., 1962, с. 459–460.

² Berezin F.M. O’sha asar, 263-bet.

qoidasi sifatida alohida tur qilib nominalizatsiya ajratiladi. Bunda yadro gap kesimidagi kesimlik shaklining yo'qotilishi transformatsiya vositasi hisoblanadi. Masalan, *Dars boshlandi* → *darsning boshlanishi*. Bu esa transformatsiya oldiga qo'ygan talabga javob bermaydi. Chunki transformatsiya yadro gapning gaplik holatini saqlab qolish doirasidagi turli ichki grammatik o'zgarishladir. Yuqoridagi holda esa yadro gap gaplik holatini yo'qotib, birikmaga aylanyapti.

TMdagi ana shu cheklangan tomonni e'tiborga olgan holda, V.S.Xrakovskiy sintaktik transformatsiya bilan sintaktik derivatsiyani bir-biridan farqlash lozimligini ta'kidlaydi.¹

S.D. Katsnelson gaplar o'zaro faqat transformatsiya munosabatida emas, balki derivatsiya munosabatida ham bo'lishini bayon qilgan edi.²

Shuning uchun V.S. Xrakovskiy sintaktik derivatsiya deb hosila gapning asos gapdan grammatik maqomi va mazmuni jihatidan farq qiladigan shakliy o'zgarishni tushunadi.³

Derivatsiyaning tarkibiy qismlarini ham transformatsiyaning tarkibiy qismlariga anologiya yo'li bilan quyidagicha belgilaydi: asos gap uchun operand, hosila gap uchun derivat, yasovchi vosita uchun esa derivatsiya operatori atamalarini qo'llaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan lingvistik tahlil metodlari Amerika deskriptiv lingvistikasining tulshunoslik nazariyasi uchun bergen eng qimmatli tomonlaridir. Bu metodlar garchi tilning qanday funksiallashuvi haqida savolga javob bera olmasa ham, lekin umi tavsiflash uchun katta xizmat qildi. Bu tahlil metodlarining ko'p jihatlari bugungi tilshunoslikning tahlil metodi uchun ham foydadan holi emas.

Nazorat savollari

1. Amerika strukturalizmi nima uchun deskriptiv lingvistika deb nomланади?
2. Deskriptiv lingvistika vakillari tilshunoslikning bosh vazifasi deb nimani tushunади?

¹ Xrakovskiy V.S. O'sha asar, 13-bet.

² Кацнельсон С.Д. Порождающая грамматика и принцип деривации. -- Сб. «Проблемы языкоznания». -- М., 1967.

³ Xrakovskiy V.S. O'sha asar, 13-bet.

- 3. Sepirning til haqidagi g'oyalari nimalardan iborat?*
- 4. Sepir-Uorf gipotezasi deganda nimani tushunasiz?*
- 5. Sepirning tillarning o'zigacha bo'lgan morfologik tasnisiga munosabati qanday?*
- 6. Blumfild sistemasining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?*
- 7. Bevosita ishtirokchilar va oxirgi (atamaal) ishtirokchilar atamalari ostida nimalar tushuniladi?*
- 8. Blumfild tilning asosiy birlklari sifatida nimalarni e'tirof etadi?*
- 9. Blumfild morfemani qanday tasnif qiladi?*
- 10. Blumfildning sintaksis va parataksis bo'yicha qarashlari qanday?*
- 11. Distributiv tahlil metodi qanday?*
- 12. Distributsiya nima va uning qanday turlari mavjud ?*
- 13. Bevosita ishtirokchilar metodi tilni qanday tekshiradi?*
- 14. Transformatsion metod yordamida til qanday o'r ganiladi?*
- 15. Transformatsiyaning qanday turlari mavjud?*

STRUKTURALIZM TARMOQLARI O'RTASIDAGI UMUMIY VA FARQLI JIHATLAR

Yuqorida bayon qilingan struktur tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari tilga struktur yondashish nuqtayi nazaridan umumiylikni tashkil etish bilan birga, uni qanday amalga oshirish jiliyatidan bir-biridan ma'lum farqli tomonlarga ega.

Strukturalizm mактабларининг умумиy тomonлари

Eng avvalo, barcha strukturalizm maktablari vakillari yosh grammatikachilarning tilni tarixiy o'rganish nazariyasiga qaramaqarshi yo'nalishda o'rganish bilan umumiylikni tashkil etadi.

Yosh grammatikachilar qarashlariga zid ravishda strukturalistlar faqat tilning hozirgi holatigina til hayotining to'liq, sun'iy sodda-lashtirilmagan tavsifini bera oladi, degan g'oyam olg'a tashladilar. Natijada yosh grammatikachilarga xos bo'lgan tarixiylik strukturalistlar sinxroniyasiga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Tilni sinxron o'rganish strukturalizmning barcha yo'nalishlarida tilshunoslikning bosh vazifasi deb e'lon qilinadi.

Barcha strukturalizm maktablарining yana bir umumiyl tomoni «Til sistema ekan, uni sistema sifatida tadqiq qilish lozim» degan g'oyaga amal qildilar.¹

Strukturalizmning eng yirik vakillaridan biri A. Martine barcha strukturalistlarni birlashtirib turgan muhim jihat har bir tilning o'ziga xos ichki tuzilishiiga ega ekanligi va shu xususiyati bilan boshqa tillardan ajralib turishi, ana shu o'ziga xos jihatlarni

¹ Стеблин-Каменский М.И. Несколько замечаний о структурализме. — ВЯ, 1957, №1, с. 35—36.

o'rganish alohida birliklarning tasodifiy o'xshashligini o'rganishdan ko'ra foydaliroq ekanligiga e'tibor berishdir, deydi. Ana shundan har bir til strukturaga ega degan g'oya olg'a tashlandi.

Tilning alohida o'ziga xos struktura sifatida e'tirof etilishi lingvistik tahlilning formallashtirilishiga hamda tilni o'rganish va tavsiflashning obyektiv usullarini qidirishga olib keldi. Shuni ta'kidlash joizki, strukturalizmning barcha tarmoqlari tilning ko'p sathliligini e'tirof etadi. Strukturalizmning barcha vakillari yosh grammatikachilarining tilshunoslikni psixologiya, fiziologiya, mantiq va sotsiologiya bilan qorishiq fan degan qarashiga zid ravishda, uni til belgilari tushunchasiga tayanib ish ko'rvuchi mustaqil fan sifatida e'tirof etadilar.

Barcha strukturalizm vakillari fonemani ma'noga ega bo'lmagan birlik sifatida tan oladilar. Fonemaning morfema, so'z va gap hosil qilishdagi funksiyasiga e'tibor qaratiladi va shuning uchun fonologiya muammosi barcha struktural maktablarda «ifodalovchi» (signifiant) asosida qurlladi. Belgi bilan bog'liq muammolar orqaga suriladi. Shuning uchun fonologik qarashlarda bu maktablarda nisbatan umumiylik mavjud.

K.Xansen barcha strukturalistlar o'rtasida tilga qarashning quyidagi to'rt umumiy jihatni mavjud ekanligini ko'rsatadi:

1. Tilga obyektiv reallikdan va til egalaridan ozod bo'lgan struktura sue generic sifatida qarash.
2. Tilni sinxron holatda o'rganish.
3. Tilni amaldagi qo'llanilishiga bog'liq bo'lmagan sof munosabatlar sistemasi sifatidagi shakllarga tayangan holda o'rganish.
4. Tilshunoslikni tabiiy fanlarga tenglashtirish, uni aniq fanga aylantirish.¹

Shu bilan birgalikda strukturalizmning turli yo'nalishlarimi qiyoslab o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, ular o'rtasida umumiylikdan ko'ra o'ziga xos jihatlar ko'proq ko'zga tashlanadi. Strukturalizm yo'nalishlari o'rtasidagi bunday farqlamish ularning turli mamlakatlarda, turli tarixiy-madaniy sharoitlarda shakllanganligi bilan bog'liqdir.

¹ Xansen K. Пути и цели структурализма. — ВЯ, 1959, № 4, с.92.

Strukturalizm maktablarining o‘ziga xos jihatlari

Ko‘pchilik mutaxassislarning e’tirof etishlaricha strukturalizmning Praga va Kopengagen maktablari o‘zaro qutbiy zidlanishda bo‘lib, ularning oralig‘ida Amerika deskriptiv lingvistikasi turadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, Praga lingvistlari ma’lum jihatlari bilan glosemmatiklardan farq qilgan holda, Amerika tilshunoslariga yaqin keladilar. Shu bilan birgalikda Praga va Kopengagen maktablarining umumiyligi jihatlari hani mavjudki, bu tomonlari bilan har ikki maktab Amerika maktabiga qarama-qarshi qo‘yiladi.

I. Strukturalizmning ikki qutbida turuvchi Praga lingvistik maktabi bilan Kopengagen lingvistik maktabi o‘rtasidagi farqli tomonlar Vladimir Skalichkaning «Kopengagen strukturalizmi va Praga maktabi» maqolasida aniq o‘z ifodasini topgan. Bu ikki lingvistik maktab o‘rtasidagi quyidagi farqlarni ko‘rsatish mumkin:

1. L.Yelmslevning fikricha, hozirgacha bo‘lgan tilshunoslik bir-biridan ajralgan turli hodisalardan tashkil topgan. Ulardan biri psixologiyaga, ikkinchisi fizikaga, uchinchisi fiziologiyaga, to‘rtinchisi tarixga, beshinchisi mantiqqa yaqin turadi. L.Yelmslev ana shunday parchalanishdan xalos bo‘lish uchun tilshunoslikni boshqa fanlar yukidan ozod qilishni istaydi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun tilni **transsendent** o‘rganishdan, ya’ni tildan tashqari hodisalar ta’sirida o‘rganishdan **immanent** o‘rganishga o‘tishni tavsiya etadi. Lingvistik nazariya tilni o‘rganishda unga tildan tashqaridagi hodisalar konglamerati sifatida emas, balki o‘z ichida **yopiq bir butun struktura**, o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan **struktura** sifatida o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi.

Xuddi mana shu jihat Praga maktabi bilan Kopengagen maktabi o‘rtasidagi birinchi va eng muhim farqlanish hisoblanadi. Chunki Praga lingvistik maktabi vakillari tilni tildan tashqaridagi borliq bilan bog‘liq holda o‘rganadi va nutqiy faoliyatni guruhlarga ajratish uchun muhim omil sifatida lingvistik aloqada bo‘lgan so‘zlashuvchilarning o‘zaro munosabati: ularning ijtimoiy, kasbiy, hududiy va qarindoshlik aloqalariga jiddiy

e'tibor beradilar. Shuningdek, tillarning o'zaro aloqasi, tillar ittifoqi, badiiy til kabi masalalar ham Praga tilshunosligining diqqat markazida bo'ladi.

2. L.Yelmslev tilni nutqdan ajratgan holda, tilga sotsial qo'llanishi va moddiy gavdalanishiga bog'liq bo'lman so'f shakl hisoblanuvchi **sxema** sifatida yondashadi. Shu bilan birgalikda uni bevosita kuzatishda turlicha gavdalanuvchi moddiy vositalar yordamida tushuntirilishi mumkm bo'lgan va muayyan ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan ko'nikmalar yig'indisi hisoblanuvchi «uzus» sifatida ham e'tirof etadi.

L.Yelmslev til tushunchasini izohlashda F.de Sossyurning tilni shaxmat o'yiniga qiyoslaganiga ko'proq e'tibor beradi. Shuning uchun u til sxema sifatida o'yindan boshqa narsa emasligini, shaxmatda muhim narsa donalarining material tomoni emas, balki o'yin qoidasi ekanligini ta'kidlaydi.

Praga tilshunoslari esa bunga e'tiroz bildirgani holda, shaxmat o'yini o'n yoshli o'quvchi osongina o'zlaslitirib oladigan bir necha qoidalarning yig'indisigina emas, shaxmat o'yinidagi muhim narsa sezish qiyin bo'lgan, doimiy o'zgarib turuvchi vaziyat sanalib, o'yinning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun ularni doimo e'tiborga olish lozimligini ko'rsatdilar. Bu dalillarning barchasi tilni sotsial shart-sharoitga bog'liq holda o'rganish lozimligini ko'rsatishini bayon qiladilar.

3. Glossematiklar tomonidan matematikadan o'zlashtirilgan empirizm tamoyili talabi: 1) ziddiyatga yo'l qo'ymaslik; 2) tavsifning to'liqligi; 3) soddalik Praga tilshunosligi uchun begona.

L.Yelmslev nazariyasi uchun empirizmnинг yuqoridagi belgilaring ikkinchisi, ya'ni tavsifning to'liqligi tamoyili tayanch nuqta sanaladi. Bu tamoyil tilni har qanday sotsial shart-sharoitdan uzilgan mustaqil struktura sifatida o'rganishga imkon beradi. Lekin tilning adabiyot, jamiyat, madaniyat, san'at bilan bo'lgan barcha murakkab munosabatlarini yoritishda bu talabni qo'yib bo'lmaydi. Shuning uchun Praga tilshunoslari tilning boshqa hodisalar bilan yuqoridagi murakkab munosabatlarini e'tiborga olib, uni matndan ajralgan holda to'liq tavsifi haqida gapirib bo'lmasligini ta'kidlaydilar.

4. Epirik tamoyil L.Yelmslev uchun induksiyani bildirmaydi. Aksincha, u induksiyaga keskin qarshi chiqadi va deduksiyani olg'a suradi. Deduksiya ostida L.Yelmslev butundan bo'lakka, ya'ni bir butun matndan abzasga, abzasdan jumlaga, jumladan so'zga, so'zdan tovushga qarab yo'nalishni tushunadi.

V. Skalichkaning e'tirof etishicha, bunday yo'nalish, albatta, foydadan holi emas: butun har doim qismlari yig'indisidan katta. Lekin bu tilshunosni qanoatlantirmsligi kerak. Chunki qism faqat butunning qismigina emas, balki u o'zining mustaqil hayotiga va obyektivlikka nisbatan mustaqil munosabatiga ham ega bo'ladi¹. Shuning uchun Praga tilshunoslari L.Yelmslevning deduktiv tamoyilini ham rad etadilar.

5. Glossematiklar ham, Praga tilshunoslari ham funksiya tushunchasiga tayanadilar. Lekin funksiyaning talqinida bir-biridan farqlanadilar.

Praga tilshunoslari funksiya atamasi ostida maqsad yoki vazifani tushunadilar. Xususan, Gavranck «Tilshunoslikdagi strukturalizm haqida» maqolasida til haqida fikr yuritar ekan, u doimo ma'lum maqsadni yoki funksiyani bajarishini ta'kidlaydi.

Praga tilshunoslari tomonidan funksiya atamasi lingvistik birklarning ma'nosи yoki ma'noli birliklar strukturasi haqida gap ketganda qo'llaniladi. Masalan, so'zning funksiyasi, morfema funksiyasi, fonema funksiyasi kabi.

Glossematiklar va shaxsan L.Yelmslev qo'llagan funksiya atamasi matematikadagi funksiya atamasi ma'nosiga yaqindir. Ya'ni bu atama glossematiklar tomonidan qat'iy bog'liqlikni ifodalash uchun qo'llaniladi. L.Yelmslev talqini bo'yicha funksiyaning bir qancha turlari mavjud. Masalan, so'z kategoriyasi ham, fe'l boshqaruvi ham, ega va kesim munosabati ham funksiya sanaladi. Lingvistik birliklarning ifodalovchi tomoni ham, ifodalanmish tomoni ham har biri funksiya hisobianadi.

L.Yelmslevning fikriga ko'ra, tilda bir qancha funksiyalar mavjud. Shuning uchun funksiya tiplarini belgilashga harakat qiladi.

Ko'rindiki, «funksiya» atamasining L.Yelmslev talqini uning tilga va tilshunoslikka umumiy qarashi bilan uzviy bog'liqidir.

¹ Skalichka V. O'sha asar, 96-bet.

L.Yelmslev sof munosabat bo'Imagan narsalarni tilga kiritmaydi. Demak, tilda u funksiya deb nomlagan bir qancha munosabatlardan boshqa hech narsa qolmaydi¹.

6. L.Yelmslev F.de Sossyur g'oyalari ta'sirida tilni ikki amorf massa — tafakkur dunyosi va tovushlar dunyosining qo'shilishidan iborat deb tushunadi. Bu ikki tomonning qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan til **substansiya** emas, shakl sanaladi. Ifoda plani bilan ma'no planining ajratilishi tilm tashqi olamdan ajratib qo'yadi. Fikrining isboti sifatida rang spektrini keltiradi. L.Yelmslev fikricha, rang spektrida amorf uzluksizlik mavjud. Xuddi shuningdek, tilda ham amorf uzluksizlik bo'lib, u turli tillarda turlichaligda ifodalanish xususiyatiga ega. Masalan, son kategoriyasining ifodalanishida buni kuzatish mumkin. Bir guruh tillarda birlik va ko'plik son, boshqa tillarda esa birlik — ikkilik — ko'plik son, yana boshqalarida birlik — ikkilik — uchlik — ko'plik son kategoriyalari mavjud.

Praga tilshunoslari tilning forma yoki substansiya ekanligi masalasini farqlashni hech qachon kun tartibiga qo'yagan. Shu bilan birga tashqi olam amorf substansiya ekanligiga ham jiddiy e'tiroz bildiradi. Gavranek yuqorida maqolasida tilni lingvistik belgilar strukturasi sifatida, ya'ni tashqi olam bilan bevosita munosabatda bo'lgan belgilar sistemasi sifatida izohlaydi².

F.M.Berezinning ta'kidlashicha, L.Yelmslev nazariyasining amaliy ahamiyati o'ta cheklangan bo'lsa, Praga tilshunoslari alohida tillar sistemasini tadqiq etishda, ayniqsa, fonologiya sohasida tilshunoslikka katta hissa qo'shdilar³.

II. Agar Praga lingvistik maktabining glossematika maktabidan hech narsa olishi mumkin bo'Imagan bo'lsa, fonologiya sohasida Praga lingvistik maktabi bilan deskriptiv lingvistika o'rtaasida bir qator umumiyliliklar mavjud.

Har ikki maktab vakillari ham fonologiya birligi fonema ekanligini e'tirof etadilar. Lekin fonemani ajratish metodi va uning mohiyati masalasida ular farqlanadilar.

¹ Skalichka V. O'sha asar, 97-bet.

² Skalichka V. O'sha asar, 98-bet; Berezin F.M. O'sha asar, 264-bet.

³ Berezin F.M. O'sha asar, 265-bet.

Amerika tilshunoslari (L.Bluemfeld va uning izdoshlari) fonemaning distributiv belgilariga asosiy e'tiborni qaratadilar. Praga tilshunoslari esa fonemani distinkтив (ma'no farqlash) belgilari yig'indisi sifatida tushunadilar.

Fonemalarni matndan ajratish usuli bo'yicha ham Praga va Amerika strukturalistlari o'rtasida ma'lum ma'noda umumiylilik mavjud. Xususan, fonema va uning variantlarini belgilashda har ikki mакtab vakillari uch tayanch nuqtaga asoslanadilar. Faqat bu uch tayanch nuqtaning nomlanishida ular o'zaro farqlanadilar.

Jumladan, N.Trubetskoy yuqoridagi uch tayanch nuqtani **fonemalarning ajratish qoidalari** deb nomladi va ularni tartib bilan birinchi qoida, ikkinchi qoida, uchinchi qoida deb bergen bo'lsa, Amerika tilshunoslari ularni **distributsiya qoidalari** deb nomlaydi. N.Trubetskoyning birinchi qoidasini kontrast distributsiya, ikkinchi qoidasini qo'shimcha distributsiya, uchinchi qoidasini esa erkin almashinish distributsiyasi nomi bilan yuritadilar.

Shu bilan birgalikda ko'pchilik Amerika tilshunoslari semantik tomonni nazardan soqit qiladilar. Praga tilshunoslari esa fonemaning ma'no farqlash vazifasiga doimo ta'kid beradilar.

Praga tilshunoslari Amerika transformatsion metodiga ham tanqidiy baho beradilar.

Bu metodning til sistemasining dinamik tabiatini hisobga olmaslikda ayblaydilar.

Shuningdek, Praga lingvistik maktabi Amerika tilshunoslari tomonidan olg'a tashlangan BI tushunchasini ham qabul qilishni xohlamaydilar. Ularning fikricha, BI morfologik va sintaktik birliklarni e'tiborga olmagan holda til birliklarini mexanik distributiv tahlil qilishga olib keladi.

Praga tilshunoslari Amerika tilshunoslari tomonidan ilgari surilgan tilning sathlarga bo'linishi g'oyasi va unda har bir sathning boshqa sathdan chegaralanishi masalasi bo'yicha cheklangan tomonlarni to'ldirishga harakat qiladi. Ular bir sathda ro'y bergen o'zgarish boshqa ma'lum sathlarga ham ta'sir etishi mumkinligini ta'kidlagan holda, turli til sathlari o'rtasida mayjud bo'lgan o'zaro munosabatlarni hisobga olishga chaqiradi.

Amerika tilshunoslari tilning sinxron holatini o'rganishga jiddiy e'tibor berish barobarida, til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganishi nazardan soqit qiladilar. Bundan farqli ravishda Praga tilshunoslari har bir til jamiyatning kommunikativ va ekspressiv ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilishini, shuning uchun jamiyat bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar.

III. Amerika deskriptiv lingvistikasi bilan glossematika o'rtasida ma'lum umumiylig va ayrim farqli jihatlar mavjuddir.

Har ikki yo'nalihsning umumiylarini shundaki, ularning har ikkisi lingvistik holatlarni matematik ifodalar yordamida bayon qilishga urinadilar. Jumladan, Z.Xarris o'zining lingvistik tahlilining matematik xarakteriga ega ekanligini bayon qilsa, L.Yelmslev o'zining bosh maqsadi lingvistik algebrani yaratish ekanligini ta'kidlaydi. Ularning har ikkisi tilshunoslikning asosiy vazifasi lingvistik tadqiqot texnikasini ishlab chiqish deb biladilar.

Har ikki maktab an'anaviy lingvistik atamalardan voz kechgan holda, atamalarning umumiylarini sistemasini, metatilni yaratishga urinadilar. Har ikki maktab vakillari ikki a'zoli bo'lishni ma'qul laydilar:

Ular har qanday jumlanishi dastlab ikki qismga ajratadilar. Bu qismlarning har birini yana ikki qismga bo'ladilar. Shunday bo'linish bo'limishning oxirgi ishtirokchisiga qadar olib boriladi. Bunday tamoyilni L.Yelmslev deduktiv deb atasa, Amerika tilshunoslari BI tahlili deb nomlaydilar.

Shu bilan birgalikda bu ikki yo'nalihsida jiddiy farqlanish ham mayjud. Bunday farqlanish tilshunoslikning fan sifatidagi mazmuni va vazifasini turli xil tushunishdan kelib chiqadi.

Amerika tilshunoslari o'zlarining oldilariga tilni tavsiflash modellarini hosil qilishmi asosiy maqsad qilib qo'yadilar. Glossematiklar tilni matnlar yig'masi bilan tenglashtiradilar. Ana shu matnlarni ziddiyatsiz va to'liq tavsiflashni bosh maqsad qilib oladilar. Lekin bu matnlar ko'pincha deduktiv, fikran tavsiflanadi. Boshqacha qilib aytganda, oldindan ishlab chiqilgan tushunchalar matnga, ya'ni tilga nisbatan berilganday bo'ladi.

Agar matnni strukturlashtirish (ularning distributsiyasi, qo'shilishi va b.) Amerika tilshunoslarining asosiy maqsadi bo'lsa,

glossematiklarning yakuniy maqsadi doimiy va barqaror belgilarni qidirishdan iboratdir.¹ Amerika tilshunoslarining tekshirish obyekti bevosita nutqiy jarayon sanaladi. Shuning uchun ular boy daliliy materiallarni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldilar. Lekin ularga aniq ma’lum bir tildagi yoki umuman tildan mavjud bo‘lgan munosabatlar sistemasini aniqlash hech qachon nasib etmadi.²

Nazorat savollari

1. *Strukturalizm maktablarining qanday umumiyligi tomonlari mavjud?*
2. *Praga strukturalizmi bilan Kopengagen strukturalizmi o‘rtasida qanday umumiyligi va o‘ziga xos jihatlar bor?*
3. *Praga va Amerika strukturalizmini qanday umumiyligi va o‘ziga xos jihatlari mavjud?*
4. *Kopengagen va Amerika strukturalizmi o‘rtasida qanday umumiyligi va o‘ziga xos tomonlar mavjud?*

¹ Berezin F.M. O’sha asar, 266-bet.

² Хансен К. Пути и цели структурализма. – ВЯ, 1959, № 4, с. 97.

STRUKTURALIZMNING SOBIQ SHO'ROLAR TILSHUNOSLIGIGA TA'SIRI

Yuqorida bayon qilingan strukturalizm yo'nalishlarining har biri tilshunoslik tarixida katta iz qoldirdi. Hozirgi tilshunoslik rivoji uchun o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar. Eng avvalo, eski lingvistik tekshirish metodlarining tugal emasligini ko'rsatib berdilar va yangi tekshirish metodlarini qidirishga da'vat etdilar.

Strukturalizm, bir tomonidan, F.de Sossyur, ikkinchi tomonidan, I.A. Boduen de Kurtene g'oyalaridan oziqlanganligi tufayli, I.A. Boduen de Kurtene shogirdlari tomonidan asos solingan sobiq sho'rolar davridagi lingvistik maktablarning ham struktural maktablar bilan tutash nuqtalari mavjuddir. Bu eng avvalo, fonologik maktablar hisoblangan Moskva fonologik maktabi (MFM) bilan Leningrad fonologik maktabi (LFM)ga xosdir.

Bu har ikki mакtab vakillari garchi I.A. Boduen de Kurteneni o'zlariga ustoz deb hisoblasalar ham, uning fonema nazariyasiga amal qilsalar ham, ular o'rtasida ma'lum farqlar mavjuddir. Ana shu farqlanish bu ikki mакtabni ikki xil struktur maktablar bilan yaqinlashtiradi.

Avvalo, bu ikki mакtabda fonemaga ikki xil yondashuvning kelib chiqishiga I.A. Boduenning fonemaga ikki xil bergen talqini sababchidir. Bu maktablardan biri I.A. Boduenning fonema haqidagi bir xil talqiniga, ikkinchisi esa boshqa xil talqiniga asoslandi.

Bu ikki mакtab o'rtasidagi fonemaga farqli yondashuv A.A. Reformatskiy tomonidan atroflicha bayon qilingan.¹

¹ Реформатский А.А. О расхождениях МФМ с ленинградскими филологами. – Реформатский А.А. Из истории отечественной фонологии. – М., 1970, с. 45.

Uning fikricha, leningradliklarning I.A. Boduen de Kurtene qarashlaridan cheklanganligi, eng avvalo, fonemani belgilashda «antimorfematzm», fonemani morfema bilan bog‘lab izoblashdan qo‘rqishdir. Ularning «Fonetikaning avtonomligi»ni e’tirof etishidir.

L.V.Shcherba «Sifat va miqdor nuqtayi nazaridan rus unlilari» (1912) asarida I.A. Boduen de Kurtenening fonema so‘z va morfemalarni farqlovchi belgi ekanligi haqidagi ta‘limotini va fonema psixofiziologik hodisa ekanligi to‘g‘risidagi psixologik konsepsiyasini rivojlantirdi. Bu asarida fonemaga psixologizm nuqtayi nazaridan ta‘rif bergen bo‘lsa ham, lekin funksionalizm belgilariiga ishora ham o‘z ifodasini topdi. Uning fikricha, fonema so‘zning fonetik tarkibini buzmagan holda ajralishi mumkin bo‘lgan, so‘zni farqlash va ma’no tasavvuri bilan assotsiatsiyalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan ma’lum bir tilning umumiy tovush tasavvuridir.¹

L.V.Shcherba keyinchalik fonemaning funksional tomoniga, ya’mi ma’no farqlash xususiyatiga asosiy e’tiborini qaratdi va psixologik talqindan xalos bo‘ldi. Jumladan, «Fransuz tili fonetikasi» asarida fonemaga sof funksional tomonidan so‘z va uning shakllarini farqlash uchun xizmat qiladigan tovushlar tipi sifatida yondashadi.² U fonemani ajratish uchun tovushning artikulatsion-akustik xususiyati emas, balki ma’no farqlash xususiyati muhim belgi ekanligini ta‘kidlaydi.

Ko‘rinadiki, fonemaning ma’no farqlash xususiyatiga, ya’mi funksiya tomoniga asosiy e’tiborni qaratish, unga avtonom birlik sifatida yondashish, **tovush tipi, farqloveli belgilarni yig‘indisi** sifatida ta‘rif berish bilan LFM Praga tilshunoslari bilan umumiylilikni tashkil etadi.

Bunga sabab Praga tilshunoslik to‘garagining a’zosi, fonologiyaning asoschisi N.S. Turbetskoy I.A. Boduen lingvistik konsepsiysi ta’sirida tarbiyalangan va uning fonemaga funksiya nuqtayi nazaridan yondashish g‘oyasini rivojlantirgan edi.

¹ Шерба Л.В. Русские гласные в качественном и количественном отношении. – СПб, 1912, с.14.

² Шерба Л.В. Фонетика французского языка. – Изд. 7-е. – М., 1963.

Demak, N.S. Turbetskoy va L.V. Slicherbaning fonologik qarashlaridagi umumiylig har ikkisining ustozi I.A. Boduenning fonologik konsepsiyasiga asoslanganligidir.

Shuning uchun ham fonema va uninng ottenkalari haqidagi L.Shcherba qarashlari N.Turbetskoyning fonema va uning variantlari haqidagi qarashlari bilan g'oyat hamohangdir. Shuningdek, fonema va uning variantlari yoki ottenkalarini belgilash tamoyili nuqtayi nazaridan ham ular o'rtasida umumiylig mavjud.

Fonemaga LFM **funktional** nuqtayi nazaridan, MFM esa **pozitsion** nuqtayi nazaridan yondashadilar. MFM fonemalarni pozitsion jihatdan o'rganishga jiddiy e'tibor berganliklari uchun fonemalarning **kuchli** va **kuchsiz pozitsiyalarini** aniqlashga qulay imkoniyat tug'ildi. Bu ikki xil pozitsiya fonema va uning variantlarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. **Kuchli pozisiya** fonemalarni ajratish uchun, **kuchsiz pozisiya** esa uning variantlarini ajratish uchun tayanch nuqta bo'ladi.

Fonemalarning perceptiv (bilib olish, anglash) va signifikativ (farqlash tomonidan) kuchli va kuchsiz pozitsiyalari belgilandi. Ularning fikricha, qurshovidagi tovushlarning ta'siriga kam berilgan maksimal farqlash pozitsiyasi kuchli pozitsiya sanaladi. Xususan, unlilar uchun urg'u osti pozitsiyasi, undoshlar uchun unli oldi pozitsiyasi kuchli pozitsiya hisoblanadi.

Pozitsiya tushunchasi asosida MFM fonema variantlari va variatsiyalarini ajratadi. Jumladan, A.A.Reformatskiy kuchsiz pozitsiyalarini ikkiga — perceptiv kuchsiz va signifikativ kuchsiz pozitsiyalarga ajratadi. Birinchisi fonema variatsiyalarini, ikkinchisi esa fonema variantlarini hosil qilishini ta'kidlaydi. Birinchisiga rus tilidagi **мат**, **мат**, **мят**, **мят** so'zlaridagi «a»ning turlicha talaffuzi, ikkinchisiga esa so'zning oxirgi pozitsiyasida undoshlar neytralizatsiyasi (пруд-прут) kiritiladi.

MFM bilan Praga lingvistik maktabining umumiylig jihatni ma'lum bir sharoitda fonemalar o'rtasida zidlanish belgisining yo'qolishi-neytralizatsiyasi haqidagi ta'limotdir.

Neytralizatsiya nazariyasi Praga tilshunosligi va MFMning umumiylig jihatni va tilshunoslikka qo'shgan katta xizmatidir.

MFM bilan LFM fonemaga ikki xil nuqtayi nazaridan (biri pozitsion, ikkinchisi funksional) yondashganligi uchun ayni bir hodisaga ikki xil baho berganining guvohi bo'lamiz. Masalan, «angla» so'zidagi birinchi tovush L.Scherba konsepsiyasiga muvofiq *a* fonemasining varianti. Chunki shu fonetik qurshovda *a* fonemasidan boshqa barcha fonemalar ottenkasi bilan qaramaqarshi munosabatda bo'la oladi. MFMga ko'ra esa bu fonema *o* fonemasining varianti. Chiunki o'zak tarkibida kuchli pozitsiya (urg'u ostida) *o* holida talaffuz qilinadi.

Shuningdek, rus tilidagi **бети -безжитъ** va **дылл - дуба** so'zlaridagi Г-Ж, Л-Б munosabati LFM tomonidan tovush almashinishi hisoblansa, MFM talqinicha, birinchi holatda pozitsion bog'liq bo'limgan ikki har xil fonema (Г-Ж)ning an'anaviy alternatsiyasi, ikkinchi holati esa bir fonemaning pozitsion xoslangan ikki varianti sanaladi.

A.A.Reformatskiyning ta'kidlashicha, LFMning kuchli tomoni tovushlarni eksperimental o'rganishdir. LFM eksperimental – fonetik nuqtayi nazaridan MFMga nisbatan afzallikka ega.

Sho'rolar davri tilshunosligida A.I.Smirnitskiyning lingistik qarashlari alohida ajralib turadi. U F.de Sossyurning til-nutq zidlanishiga qat'iy amal qiladi. Uning fikricha, til va nutq farqlanishini e'tiborga olmasdan tilshunoslik maxsus va chinakam fan sifatida mayjud bo'lishi mumkin emas.¹

¹ Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. – М., 1957, с. 12.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIGA STRUKTURALIZMNI TA'SIRI

O'tgan asrning 70-yillaridan boshiab strukturalizm o'zbek tilshunosligiga ham kirib kela boshladi. Bu sohada o'zbek tili leksik birliliklarini makro va mikrosistemalariga bo'lib, ularning bir qator mikrosistemalarini monografik tadqiqot obyekti¹ sifatida o'z shogirdlariga tavsiya etgan professor Sh.Rahmatullayevning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

I.Qo'chqartoyev esa Sh.Rahmatullayev g'oyalarini rivojlantirib, bu sohada keng ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Til va nutq farqlanishi, til birliklarida shakl va mazmun munosabati, F.de Sossyurning lingvistik konsepsiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlari o'zbek tilshunosligida struktur yo'nalishning shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Fonologik sathda sistemaviylik turkiy tillar materiallari asosida A.M.Shcherbak tomonidan ilk bor ochib berilgan edi. Unda fonologik birliklar fonologik zidlanishlar asosida tadqiq etiladi. Fonemalar funksional jihatidan atroflicha o'rganiladi².

O'zbek tili fonologik sathidagi sistemaviylik professor A.Abduaizov tomonidan dastlab «Umumiy tilshunoslik» kitobida ko'rsatib beriladi. Unda o'zbek tilidagi unli va undosh fonemalarning farqlovchi (differensial) va farqlamaydigan (nodifferensial) belgilari, fonemalar o'rtasidagi zidlanishlar va ularning turlari atroflicha yoritiladi.

Bu tadqiqot maydonga kelgunga qadar V.V.Reshetowning «O'zbek tili. Fonetika» (1960) hamda F.Abdullayevning

¹ Yunusov R., Abdurahmonov I. Ko'lam sisatlarining semik tahlili. Qo'chqartoyev I. Nuqtayi da'vat fe'llarinining komponent va valent tahlili va boshqa.

² Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. — Л., 1971.

«Xorazm shevalari fonetikasi» (1960) kitoblarida ham fonema va uning variantlari haqida batafsil ma'lumot berilgan va bu bilan fonetik sathda til va nutq munosabatini yoritishga harakat qilingan bo'lsa ham, lekin hali bu davrda o'zbek tilshunosligiga strukturalizm nazariyasi yetib kelmagan edi. Fonema va uning variantlari masalasi L.V.Shcherba, A.A.Reformatskiy kabi LFM va MFM vakillari qarashlari ta'sirida bayon qilingan edi.

S.Ulmonovning «Umumiy tilshunoslik» kitobi nashr etilishi bilan o'zbek talabalarini strukturalizm va uning turli yo'nalishlari bilan tanishtirish imkoniyati tug'ildi.

Sistemaviy-struktur tadqiqotlarning keng tarqalishi 80-yillarga to'g'ri keldi. Bu davrda o'zbek tili fonologiyasi, leksikologiyasi, sintaksisini sistemaviy-struktur nuqtayi nazaridan tadqiq etuvchi qator asarlar maydonga keldi¹.

O'zbek tilining barcha sath birliklarining sistemaviy-struktur tadqiq etishga da'vat H.Ne'matov, N.Mahmudov va ushbu tadqiq muallifining «Советская тюркология» jurnalida e'lon qilgan maqolasidan boshlandi². Natijada o'zbek tilshunosligida sistemaviy tadqiqotlarga hujum davri boshlandi deyish mumkin.

Shundan so'ng o'zbek tili fonologik sistemasiga bag'ishlangan A.Nurmonovning «O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi» (1992), A.Abduaizovning xuddi shu nomdagi kitobchasi (1994); O'zbek tilining morfem paradigmatikasi va sintagmatikasiga bag'ishlangan T.Mirzaqulovning monografiyasi, o'zbek tili sistem leksikologiyasiga bag'ishlangan H.Ne'matov va R.Rasulovlarning «O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari» (1995), morfologik sistemasiga bag'ishlangan R.Rasulovning «O'zbek tili fe'llarining semantik strukturasi» (1990), mualliflar guruhining «O'zbek

¹ Нурманов А.Н. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. — Т.: «Фан», 1982; Mahmudov N. Hozirgi o'zbek tilidagi sodda gaplarda mazmuniy-shakliy asimmetriya. — Т.: «O'qituvchi», 1984; R. Rasulov. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. — Т., 1989.

² Незматов Х. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков. С. Т. 1984, № 5, с. 3–10.

tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya» (2001); O'zbek tili sintaktik sistemasiga bag'ishlangan «O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi», «O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis», A.Berdialihevning «Ergash gapli qo'slima gap konstruksiyalarida semantik-signifikativ paradigmatika», M.Qurbanova, R.Sayfullayevalarning «O'zbek tilining struktural sintaksisi», N.Turniyozovning «Funksional sintaksisga kirish», til va nutq dixotomiyasiga bag'ishlangan H.Ne'matov va O.Bozorovlarning «Til va nutq», lingvistik birliklar darajalanishiga bag'ishlangan O.Bozorovning «O'zbek tilida darajalanish», lingvistik belgiga bag'ishlangan muallifning «Lingvistik belgi va uning xususiyatlari» kabi kitoblari va boshqa bir qancha monografik tadqiqotlar va ilmiy maqolalar e'lon qilindi.

Shuningdek, Sh.Slahobiddinovaning «O'zbek tili morfologiyasi umumiyligi – xususiylik dialektikasi talqinida», Sh.Iskandarovaning «O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon asosida o'rgamish», B.Mengliyevning «Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar», M.Hakimovning O'zbek tili pragmatikasiga bag'ishlangan «O'zbek tili ilmiy matnining pragmatik tadqiqi», N.Mahkamovning «O'zbek tilida pleonazm», A.Sobirovning «O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi sifatida tadqiq etish», D.Nabiyevaning «O'zbek tilining turli sathlarida umumiyligi – xususiylik dialektikasining namoyon bo'lishi», D.Nurmonovaning «O'zbek tilida paradigma a'zolari o'rtasidagi zidlanishning mo'tadillashuvi», D.Ne'matovaning «O'zbek tilida privativlik», M.Abbiyevning «Sohaviy leksikaning sistem tahlili», J.Eltazarovning «So'z turkumlari paradigmasidagi o'zaro aloqa liamda ko'chish liollari», D.Lutfullayevaning «Gapni semantik-sintaktik qoliplashtirish muammolari» singari qator tadqiqotlarining maydonga kelishi o'zbek tilshunosligida sistemaviy struktur yo'nalishning chuqur ildiz otishiga olib keldi.

Hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida ikki yo'nalishda barobar ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning birinchisi an'anaviy yo'nalishda, ikkinchisi sistemaviy-struktur yo'nalishda. Bu ikki yo'nalish, Mahmud Koshg'ariy ta'biri bilan aytganda, ikki uloqchi otdek o'zbek tilshunosligi aravasini barobar tortib ketmoqda. Bu

ikki yo‘nalish bir-blrini mutlaqo inkor etmaydi. Aksincha, ularning biri ikkinchisiga tayanadi va biri ikkinchlsidan oziqlanadi.

Xususan, sistemaviy-struktur tahlil an‘anaviy tilshunoslik natijalariga tayanadi. O‘rganilayotgan obyekt haqida bevosita sezgi a‘zolarimiz bergen ma‘lumotlar asosida olingan amaliy bilim keyingi nazariy, ilmiy bilim uchun poydevor bo‘ladi. Ayni paytda nazariy bilim xulosalari amaliy bilimning ojiz, cheklangan tomonlarini to‘ldiradi.

Har ikki bilimning qo‘shilushi o‘rganilayotgan obyektni chin bilish imkoniyatini beradi.

O‘zbek tilshunosligida sistemaviy-struktur metod asosida olib borilgan tadqiqotlarning tobora kengayib borayotganligi, ular o‘rtasida qo‘llanilayotgan atamaologik apparatdagi ayrim farqli jihatlarning mavjudligi bu tadqiqotlarni umumlashtirish, farqli tomonlarning sabablarini izohlash zaruriyatini tug‘diradi.

O‘zbek tilshunosligidagi struktur yo‘nalishlarni ikki guruhgaga ajratish mumkin. Ulardan birinchisi o‘zlarining tadqiq yo‘nalishini «formal – funksional yo‘nalish» deb nomladilar va bu yo‘nalishning tadqiq tamoyillari yuzasidan M.Qurbanovaning «O‘zbek tilshunosligida formal-funksional yo‘nalish va sodda gap qurilishining talqini» mavzusidagi monografik tadqiqoti ham maydonga keldi.

Bu monografiyada o‘zbek tilshunosligidagi formal-funksional yo‘nalishning ildizlari va asosiy tamoyillari haqida batafsil ma‘lumot beriladi.

Unda bayon qilinishicha, formal-funksional yo‘nalish struktur tilshunoslikning funksional tarmog‘i va S.Ivanovning substansional konsepsiyasidan oziqlanadi va 5 ta asosiy tahlil tamoyillariga asoslanadi.

Ular quyidagilardan iborat:

- 1) lisoniy birlikning zotiy (substansional) tabiat;
- 2) har bir lisoniy birlikning kamida ikki paradigmaga mansubligi;
- 3) lisoniy birlikning barcha bosqichlarida oraliq uchinching mutlaqligi;

4) lisoniy tizimning iyerarxik (pog‘onaviy) qurilishi; bu iyerarxiyada har bir bo‘g‘inning nisbiy mustaqilligi va uzylarining

gipo-giperonimik munosabatlar bilan ochiq mikrosistema sifatida o‘zaro bog‘lanishi;

5) har bir lisoniy birlikning o‘z xususiy sinonimik va graduonimik qatorga ega bo‘la olishi va bu qatorlarning umumiy lisoniy sistema va mikrosistemalarga, ularning strukturasiga bevosita aloqador emasligi¹.

Bu tamoyillarning birinchisi va to‘rtinchisi L.Yelmslevning deduktiv tamoyili ta’sirida shakllanganligi ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda til birliklari sifatida faqat uchta birlikni – fonema, morfema va konstruksiyaning e’tirof etilishida deskriptiv lingvistikating ham ta’siri seziladi.

«Formal-funksional yo‘nalish» vakillari olg‘a tashlagan beshta tamoyil mantiqan g‘oyat izchil. Shunday bo‘lishiga qaramasdan ayrim tamoyillarda soxtalik, ortiqcha bo‘rttirish ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, «oraliq uchinching mutlaqligi» tamoyili.

Bu tamoyil formal mantiqning umumiy tafakkur qonunlariga, xususan, uchinchingi istisno qonuniga tanqidiy yondashgan Gegelning dialektik mantiqi ta’sirida maydonga kelgan. Gegel bu qonunlarning hissiy tafakkur shakllari ekanligi va ularning bir yoqlamaligi va cheklanganligini tanqid qilib, har qanday haqiqiy bilim dialektik mantiq natijasida maydonga kelishini ta’kidlaydi. Dialektik mantiq esa «uchinchisi istisno» qonuniga zid ravishda uchinchi holatning mavjudligini e’tirof etadi.²

Darhaqiqat, zidlanishning ikki qutbini tashkil etuvchi bir qator zidlanuvchi a’zolar o‘rtasida oraliq birliklar mavjud bo‘ladi. Bu oraliq birliklar o‘zaro qutbiy zidlanayotgan birlklarning har ikkisiga xos belgilarni qisman o‘zida mujassam etadi. Masalan, *u* va *a* unlilari og‘izning ochilish darajasiga ko‘ra ikki qutbni tashkil etadi: *chap qutb tor, o‘ng qutb keng*. Lekin ularning o‘rtasida o‘rta torlik va o‘rta kenglik belgisini o‘zida mujassam etgan *e* unlisi ham mavjud. Shuningdek, *u* va *o* unlilari labning ishtirokiga ko‘ra qutbiy zidlanishni tashkil qiladi. Biri belgiga kuchli ega, o‘ng qutb esa

¹ Qurbanova M. O‘zbek tilshunosligida formal-funksional yo‘nalish va sodda gap qurilishining talqini. Dokt. diss. avt. – T., 2001, 12-bet.

² Гегел. Наука логики. Т. II., –М., 1971, с. 32.

kuchsiz ega, ya’ni kuclisiz lablangan. Ular o’rtasida esa lablangan o’ unlisi mavjud.

Dixotomik zidlanishga qarama-qarshi bo‘lgan bunday politomik zidlanishlarning lingvistik zidlanishlar sistemasida mavjudligi tadqiqotning faqat binar, dixotomik tamoyirlga asoslanib bo‘lmasligini, u zidlanishlarning barcha turlarini qamrab ololmasligini ko‘rsatadi. Ayni paytda politomik zidlanishini mutlaqlashtirish ham dixotomik zidlanish tamoyilini targ‘ib etgan tilshunoslar xatosini takrorlaydi. Shunday zidlanishlar mavjudki, oraliq holatga yo‘l qo‘yilmaydi. Masalan, jarangli va jarangsiz undoshlar zidlanishini olaylik. Agar zidlanishda ovozning ishtiroki e’tiborga olinadigan bo‘lsa, u holda yuqoridagi zidlanish binarlik, privativlik xususiyatiga ega bo‘lish, zidlanishning bir a’zosi belgiga ega bo‘lishlik, ikkinchi a’zosi esa ega emaslik xususiyatiga ega. Oraliq holatga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar zidlanishda ovozning yoki shovqinning ortib borish darajasi e’tiborga olinadigan bo‘lsa, u holda yuqoridagi zidlanishdan sonorlar ham o‘rin oladi va zidlanuvchi a’zolarning joylashuvi quyidagi tartibda bo‘ladi:

Sonorlar – jaranglilar – jarangsizlar



Bunda zidlanuvchi a’zolarda chapdan o‘ngga qarab ovoz belgisi kuchsizlashib boradi, o‘ngdan chapga qarab esa ovoz belgisi kuchayib boradi. Bunday vaqtda sonorlar bilan jarangsizlar zidlanishning ikki qutbida turadi va o‘zaro ikki belgiga ko‘ra o‘zaro privativ zidlanadi. Sonorlar shovqin belgisiga ko‘ra belgiga ega emas, jarangsizlar esa bu belgiga kuchli ega; ovoz belgisiga ko‘ra kuchli ega; har ikki belgini o‘zida mujassam etgan jaranglilar oraliq holatni egallaydi.

Yoki til-nutq zidlanishi, gaplarning tasdiq yoki inkor belgisiga ko‘ra, fe’llarning bo‘lishli yoki bo‘lishsizlik, o‘timli-o‘timsizlik kabi belgilariga ko‘ra zidlanishida ham oraliq holatlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Demak, zidlanishning binar, dixotomik tamoyili mutloq bo‘lmasligi, trenar, politomik tamoyili ham mutloq emas.

Lingvistik birliklar zidlanishda har ikki tamoyilning amal qilinishining guvohi bo'lamiz.

«Formal-funksional yo'naliш» vakillari F.de Sossyurning «til-nutq» dixotomiyasini «lison-nutq» atamalari bilan nomlaydiki, bu ham amaliyotda bir oz qiyinchilik tug'diradi. Chunki lisoniy, nolisoniy atamalari lingvistik va paralingvistik, ekstralingvistik atamalari uchun qo'llamilar edi. Bu atamaning «til» ma'nosida ham qo'lianilishi unda ko'p ma'nolilikni vujudga keltiradi. Masalan, paralingvistik vositalarga qarama-qarshi qo'yilgan vositalar, ya'ni fonasion vositalar lingvistik vositalar sanaladi. Lingvistik vositalar esa til birliklarini ham, nutq birliklarini ham o'z ichiga oladi.

Shuningdek, **lingvistik birlik** degan atama hani til birligiga, ham nutq birligiga nisbatan qo'lianiladi. Agar **lisoniy birlik** atamasini faqat til birligi uchun qo'llasak, **nutq birligi** tashqarida qoladi.

F.de Sossyurning o'zi ham languge «nutqiy faoliyat»ni La languge va parole ga ajratgan, keyingi ikki tushunchani birinchisi o'z ichiga olgan. Ana shuni hisobga olgan holda nutqiy faoliyatni til-nutq tarzida ifodalash F.de Sossyurning til-nutq dixotomiyasiga yaqinroq bo'ladi, deb hisoblaymiz.

O'zbek tilshunosligida sistemaviy-struktur tilshunoslikning «formal-funksional yo'naliш»dan bir oz farq qiladigan ikkinchi yo'naliш ham vujudga keldi.

Bu yo'naliш quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

1. Tilni o'rganishda induktiv va deduktiv tamoyillarning hamkorligi;
2. Nutqiy faoliyatda til-nutq dixotomiyasining amal qilishi; invariant-variantlilik munosabatini belgilash;
3. Til sistemasining iyerarxik tuzilishi. Bir sath birliklari va sathlararo birliklar munosabatlari;
4. Lingvistik birliklarning belgili tabiat. Lingvistik belgida shakl va mazmun munosabati;
5. Nutqiy faoliyatda lingvistik va ekstralingvistik vositalar hamkorligi;
6. Tilning ijtimoiy funksiyalari (kommunikativ, kummulativ, ekspressiv).

Bu tamoyillar asosida hozirgi kunda o'ndan ortiq monografiyalar, yuzdan ortiq maqolalar maydonga keldi.

Keyingi yo'nalish, yuqorida bayon qilingan tamoyillardan ko'rinish turibdiki, sistemaviy-struktur yo'nalishlarning har uch tarmog'iga xos eng ratsional tomonlarni va sharq falsafasining obyektni fahmiy va idrokiy bilish haqidagi ta'limotlarini o'zida mujassam etgan.

Bu yo'nalish lingvistik birliklarning ichki sturkturasi va funksiyasiga ko'proq e'tibor beradi. Shuning uchun uni «struktur-funksional yo'nalish» deb nomlash maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari

1. Sobiq sho'rolar til siyosatining strukturalizmga munosabati qanday bo'ldi?
2. O'zbek tilshunosligida strukturalizmning ta'siri qanday namoyon bo'lmoqda?

XULOSA

1. Antik davrda shakllangan tilshunoslik o‘zining uzoq va murakkab yo‘lini bosib o‘tdi. Bu yo‘lda tilshunoslikning turli xil tekshirish metodlariga asoslangan turli xil yo‘nalishlar maydonga keldi. Falsafiy tilshunoslik (XVII asrgacha bo‘lgan tilshunoslik), qiyosiy-tarixiy tilshunoslik (XIX asr oxirigacha bo‘lgan tilshunoslik), yosh grammatikachilar maktabi va struktur tilshunoslik ana shular jumlasidandir.

2. Jahon tilshunoslida struktur tilshunoslikka qadar bo‘lgan tilshunoslik umumlashtirilgan holda an’anaviy tilshunoslik nomi bilan yuritiladi va u sistemaviy-struktur tilshunoslikka qaramaqarshi qo‘yiladi. Bu ikki tilshunoslik o‘rtasidagi muhim farqlovchi belgi tilshunoslik obyektida, ya’ni tilshunoslik nimani o‘rganishidadir.

Struktur tilshunoslikning tekshirish obyekti til falsafasi ham, til shakllarining evolutsiyasi ham emas, balki tilning immanent realligini o‘rganishdir. Ya’ni o‘rganilayotgan obyektga munosabatlar sistemasi sifatida qarovchi, tilning substansiyasi bilan shaklini farqlovchi tilshunoslik sistemaviy-struktur yoki struktur tilshunoslik sanaladi va ana shu xususiyati bilan obyektning immanent belgilariga emas, balki transsident belgilariga asoslanuvchi an’anaviy tilshunoslikdan farq qiladi. Demak, struktur tilshunoslikning an’anaviy tilshunoslikdan ajratib turgan eng muhim belgisi substansiya va shaklni farqlashdir.

3. Bu ikki tilshunoslik bilishning ikki bosqichiga, hissiy va idrokiy bilish bosqichiga tayanishi bilan ham farq qiladi. Chunki obyektning immanent belgilarini aniqlash bilishning bevosita kuzatish, analiz va sintez bosqichlarini e’tirof etadi. An’anaviy tilshunoslik bilishning

birinchi bosqichiga, struktur tilshunoslik esa ikkinchi va uchinchi bosqichiga tayanadi.

4. Struktur tilshunoslik garchi obyektga munosabatlar sistemasi sifatida yondashish, asosiy e'tiborni butun tarkibidagi elementlar o'rtasidagi va elementlar bilan butun o'rtasidagi munosabatlarni ochishga qaratish bilan umumiylilikni tashkil etsa ham, lekin ana shu munosabatni ochishda qanday usullarga tayanish nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi.

Ana shu farqlanish tufayli dunyo tilshunosligida turli xil struktur tilshunoslik maktablari va har qaysi tilshunoslik mакtabiga xos tahlil metodlari maydonga keldi.

5. Amerika deskriptiv tilshunoslik vakillari nutqiy elementlarni ma'lum sinflarga birlashtirishni o'zlarining bosh maqsadi deb hisobladilar. Ana shu maqsadni amalga oshirishi uchun distributiv metodni ishlab chiqdilar. Nutqiy parchalarni ayniylashtirishning formal tamoyillarini belgilash ularning asosiy e'tiborida bo'ldi. Til birliklari sistemasini aniqlash esa nazaridan chetda qoldi.

Ovropa strukturalistlari esa aksincha, asosiy e'tiborni til birliklari o'rtasidagi munosabatlarni ochishga qaratdilar. Natijada lingvistik birliklar o'rtasidagi munosabat tiplarini belgiladilar. Lingvistik zidlanishlarga e'tibor berildi. Bu tilning statik sistemasini aniq izohlab berishga xizmat qildi.

6. Struktur tilshunoslikda substansiya va shaklning farqlanishi hamda bu ikki tomonning qaysinisiga e'tiborning tortilishi struktur tilshunoslikning turli mакtablarga bo'linishiga sababchi bo'ldi. Til sistemasiga substansiya yoki shakl nuqtayi nazaridan yondashish sistema ta'rifida ham o'z ifodasini topdi. Substansiya nuqtayi nazaridan yondashuvchi strukturalistlar sistemani ***ikki va undan ortiq elementlarning yig'indisi***; shakl nuqtayi nazaridan yonda-shuvchi strukturalistlar esa ***elementlarning o'zaro munosabatidan iborat butunlik*** sifatida izohladilar.

7. Struktur tilshunoslikning barcha yo'nalishlari til-nutq zidlanishini e'tirof etadi. Lekin tadqiqotchining ulardan qaysi biriga tayanib ish ko'rishi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Glos-sematiklarning tadqiq usuli deduktivlik bo'lib, umumiyliklardan xususiyliklarga qarab yo'nalsa, deskriptiv tilshunoslik bevosita

kuzatishda berilgan xususiyliklarga tayanib ish ko'radi va xususiyliklardan umumiylikka yo'naladi, induktiv usulga tayanadi. Bu bilan deskriptiv tilshunoslik an'anaviy tilshunoslikka yaqinlashadi.

Yuksak darajadagi mavhumlashtirishga tayanish nuqtayi nazaridan glossematika bilan transformatsion lingvistika bag'ridan o'sib chiqqan generativ lingvistika, aymiqsa S.K.Shaumyanning applikativ modeli umumiylikni tashkil etadi.

Bu jihatdan struktur tilshunoslik bir necha darajalarni tashkil etadi. Darajalanish qatorida chap qutbni deskriptiv tilshunoslik, o'ng qutbni esa glossematika va generativ lingvistika (applikativ model) egallaydi. Funksional lingvistika, transformatsion lingvistika oraliq holatda turadi.

8. Struktur tilshunoslikning darajalanish qatoriga e'tibor berilsa, shu narsa ayon bo'ladiki, zidlanish qatorining chap qutbida turuvchi an'anaviy tilshunoslik nomi ostida birlashtirilgan klassik tilshunoslik bilan zidlanishning o'ng qutbida turgan struktur tilshunoslikning glossematika yo'nalishi o'rtasida o'tib bo'lmas jarlik yo'q. Deskriptiv va transformatsion lingvistika bu ikki tilshunoslikni tutashtirib turuvchi ko'priq sanaladi.

9. Funksional lingvistika ham, Amerika strukturalizmi ham, garchi umumiylar bilan bir umumiyl nom ostida birlashsada, lekin ularning har qaysisi o'z ichida bir qancha tarmoqlardan iborat. Xususan, funksional lingvistikada A.Matezius, N.Trubetskoy bilan Skalichka qarashlari o'rtasida muayyan o'ziga xosliklar mavjud bo'lsa, Amerika strukturalizmida **empirizm** deb tan olingan Blumfeld qarashlari bilan **ratsionalizm** deb e'tirof etiluvechi N.Xomskiy qarashlari o'rtasida juda katta ziddiyat bor. Birinchisi antimentalistik xarakterga ega bo'lib, faqat shaklga tayangan holda, aniqlikka va soddalikka intiladi. Bu bilan glossematikaning **empirik** tamoyillariga yaqin keladi. Lekin bixeyviorizmga tayanish bilan glossematikadan farq qiladi. N.Xomskiy esa shakl va mazmun birligini e'tirof etgan holda mentalistik g'oyaga suyanadi. Bu yo'nalishda tadqiqotlarning ikki bosqichi e'tirof etiladi. Birinchi bosqichda bevosita sezgi a'zolarimizga ta'sir qilayotgan og'zaki yoki yozma nutq parchalari tahlil qilinadi. Ikkinci bosqichda esa ular bir-biriga qiyoslanib,

umumiyl jihatlari aniqlanadi va ana shu yo'l bilan ratsional grammatika yaratishga harakat qilinadi. Ko'rindiki, Amerika tilshunosligidagi ratsional yo'nalish bilishning analiz va sintez bosqichlarini o'zida namoyon qiladi.

Shu bilan birgalikda Amerika strukturalizmi o'z rivojlanishining bir necha bosqichlaridan iborat bo'lib, ularning biri ikkinchisi uchun doya rolini o'ynaydi. Shu bois Amerika strukturalizmi tarmoqlari xronologik tartibga ham egadir. Xususan, deskriptiv lingvistika (DL) bevosita ishtirokchilar (BI) grammatikasi uchun doya rolini o'ynagan bo'lsa, BI, o'z navbatida, transformatsion lingvistika (TL)ning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Transformatsion lingvistika bag'ridan esa generativ va Rossiyada Shaumyanning applikativ grammatikasi o'sib chiqdi.

10. Struktur tilshunoslik fanlar sistemasida shu qadar obro'e-tibor topdiki, uning tekshirish metodlari boshqa fanlarga ham ta'sir qila boshladи. Shuning uchun M.N.Gretskiy strukturalizm o'z tarixini lingvistikada boshlaganini va keyinchalik boshqa fanlarga, xususan musiqashunoslik va kristalshunoslikka ham ta'sir qilganini bayon qiladi.¹

Mashhur fransuz antropologi Klodo Levi-Strossa 1952-yilda Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan xalqaro antropologlar simpoziumida so'zlagan nutqida lingvistikadagi strukturalizmning paydo bo'lishi va uning fandagi ahamiyati haqida fikr yuritar ekan, uni fizika fanlarida amalga oshirilgan Nyuton imqilobiga tenglashtiradi. Xuddi shunga o'xhash fikr Amerika antropologgi va lingvisti Jozef Grinberg tomonidan ham bayon qilinadi.

¹ Грецкий М.Н. Французский структурализм. – М., 1971, с. 10.

ATAMALAR LUG'ATI

Ad'yunksiya — yadro gap tarkibiga bosliqa clementlarni qo'shish yo'li bilan transformandarlarni hosil qilish qoidasi.

Assotsiativ munosabat — lisoniy (lingvistik) birliklarning so'zlovchi xotirasida o'zaro bog'liq munosabati (*Sossyur*).

Bevosita ishtirokchilar —

1. Zaruriy nutqiy birliklar bog'lanishi (*Blumfield*).
2. Muayyan konstruksiyaning shakllanishida bevosita ishtirok etgan bir yoki bir necha ishtirokchi.

Belgi — idrok qiluvchiga o'zi haqida va ushbu belgidan tashqaridagi boshqa narsa haqida ma'lumot beruvchi moddiy vosita.

Bir o'chovli zidlanish — ikki a'zoning zidlanishi uchun asos bo'lgan belgining faqat shu zidlanishgagina xos bo'lib, zidlanish sistemasining boshqa a'zolarida uchramaydigan zidlanish (*Trubetskoy*).

Bog'liq morfema — jumla bo'lib kela olmaydigan shakl (*Blumfield*).

Bog'liq shakl — hech qachon alohida qo'llanilmaydigan shakl (*Blumfield*).

Gap — ma'lum qoidalar asosida tashkil topgan morfemalar ketma-ketligi (*Blumfield*).

Glossema — til signallarining eng kichik ma'noli birligi (*Blumfield*).

Gradul (darajali) zidlanish — zidlanuvchi a'zolar zidlanishga asos bo'lgan belgining turli darajasini ko'rsatuvchi zidlanish. Masalan, og'iz

ochilishiining turli darajasini ko'rsatuvchi *u-o'-o; i-e-a* unlilari zidlanishi (*Trubetskoy*).

Divergent – devergensiya hodisasi asosida hosil bo'lgan tovush (*Boduen*).

Deduktiv metod – o'rganilayotgan obyektga butunlik sifatida qarash va umi butundan bo'laklarni ajratish yo'li bilan tilning iyerarxik tabiatini ochish metodi. Butun uning qismlari yig'indisidan doimo katta deb qaraladi. Chunki qism faqat butunning qismigina bo'lib qolmay, o'zining ham mustaqil hayotiga ega.

Delimitativ funksiya – gap tarkibidagi bir so'zni boshqa so'zdan fonetik jihatdan ajratish vazifasi (*Trubetskoy*).

Derivat – yadro gapdan ma'lum derivatsiya operatori yordamida yasalgan hosila gap.

Derivator – ayn. derivatsiya operatori.

Derivatsiya operatori – yadro gapdan hosila gapni yasovchi vosita.

Deatamatsiya – barqaror va o'zgaruvchan birliklar o'rtaсидаги bir tomonlama tobe inunosabat.

Diaxron lingvistika – obyektlarning dinamik, evolutsion jarayonini o'rganuvchi tilshunoslik (*Sossyur*).

Divergensiya – kombinatsion tobelik munosabati natijasida hosil bo'lgan kombinatsion o'zgarish (*Boduen*).

Distinkтив funksiya – tovushlarning ma'noli birliklarini bir-biridan farqlash vazifasi.

Distributsiya –

1. Elementlarning joylashish tartibi, o'zaro munosabati.
2. Elementlarning munosabat tiplari, modellari.

Doimiy zidlanish – til sistemasidagi zidlanuvchi a'zolar nutq jarayonida muayyan sintagmatik munosabatga kirishganda ham, zidlanishga asos bo'lgan belgini saqlab qoluvchi zidlanish.

Immanent-semiologik metod – lingvistik birliklarni iyerarxik tuzilishga ega bo‘lgan butunlik sifatida e’tirof etuvchi va uning ana shu iyerarxik tuzilishini yoritishga qaratilgan metod.

Induktiv metod – bevosita kuzatishda berilgan nutqiy birliklarning fizik, fiziologik tabiatiga asoslanib o‘rganish metodi.

Integral (birlashtiruvchi) belgi – ikki zidlanayotgan a’zolarni bir-biridan farqlovchi belgi.

Interdependensiya – biri ikkinchisining bo‘lishini taqozo qiluvchi o‘zaro tobclilik munosabati (*Yelmslev*).

Ifoda substansiysi – til yordamida sistemalashtirilgan tovushlar zanjiri (*Yelmslev*).

Ichki lingvistika – muayyan bir tilning ichki tuzilishi va xususiyatimi, nutqiy faoliyatni o‘rganuvchi fan (*Sossyur*).

Ishtirokchilar –

1. Konstruksiya tarkibida ishtirok etgan barcha ma’noli birliklar.
2. Matn qismlari (*Blumfield*).

Kenema – ifoda plani birligi (*Yelmslev*).

Kenematika – kenemalarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi (*Yelmslev*).

Kogerensiya – tovushlarning o‘zaro yoki birining ikkinchisiga kombinatsion tobeligi (*Boduen*).

Kommutatsiya – ifoda planidagi o‘zgarishning mazmun planida ham o‘zgarishga olib kelishi munosabati.

Konstellatsiya – funksiya a’zolarining biri ikkinchisini taqozo etmaydigan tobe munosabat (*Yelmslev*).

Konstituyent – ichki murakkab shakl uchun umumiyligini qism sanalgan til shakli (*Blumfield*).

Konstruksiya — morfemalarning o'zaro qo'shiluvidan tashkil topgan butunlik (*Blumfield*).

Kontinuum — jumla (*Blumfield*).

Kontrast distributsiya — bir xil qurshovda biri o'rnida ikkimchisi almashinib kelib, ma'noni o'zgartiruvchi munosabat.

Korrelativ — tarixan bir manbadan kelib chiqsa ham, hozirgi kunda farqlanuvchi turli tovushlar. Masalan, rus tilida *бези* — *безсамъ* so'zlaridagi *ε-ж* tovushlari (*Boduen*).

Korrespondent — tarixan bir manbadan kelib chiqib, hozirgi qardosh tillarda farqli talaffuz qilinuvchi tovushlar (*Boduen*).

Kulminativ funksiya — gap tarkibidagi so'zlarni fonetik jihatdan uyushtirish, so'z qismlarini bir urg'u ostiga birlashtirish vazifasi (*Trubetskoy*).

Ko'p o'lchovli zidlanish — ma'lum bir zidlanish uchun asos bo'lgan belgi zidlanish sistemasining boshqa a'zolarida ham uchraydigan zidlanish.

Leksema — erkin morfema (*Blumfield*).

Leksikon — tilning barcha erkin morfemalar zaxirasi (*Blumfield*).

Mazmun substansiyasi — tilda so'z ifodasini topgan borliq dalili, tushuncha (*Yelmslev*).

Me'yor — til birligining moddiy shakl sifatidagi izohi (*Yelmslev*).

Morfema —

1. Boshqa mayda morfologik birliklarga bo'linmaydigan morfologik birlik (*Boduen*).
2. Eng kichik ma'noli shakl (*Blumfield*).
3. Tilning mazmuniy sistemasi bilan to'liq qo'llaniladigan eng kichik ifoda sistemasi birligi (*Glison*).

Murakkab shakl – boshqa til shakllariga fonetik-semantik jihatdan qisman o'xhash bo'lgan shakl (*Blumfeld*).

Neytralizatsiyalashgan (mo'tadillashgan) zidlanish – til sistemasidagi zidlanuvchi a'zolar nutq jarayonida muayyan sintagmatik munosabatga kirish natijasida ular o'rtasida zidlamishga asos bo'lgan belgining yo'qolishi (*Trubetskoy*).

Noema – Glossemaning ma'no tomoni (*Blumfeld*).

Nutq –

1. Qisqa muddatli, tarixan betakror so'zdan foydalanish faoliyati (*A. Gardiner*).
2. Amaldagi til.
3. Munosabat tugunlarining namoyon bo'lishi (*Yelmslev*).

Nutqiy akt – individual nutqiy jarayon (*Yelmslev*).

Nutqiy faoliyat –

1. Sotsiallik va individuallik belgilarini o'zida mujassam etgan, til-nutq munosabati birligidan tashkil topgan butunlik (*Sossyur*).
2. Til va nutq sintezi (*Mikush*).

Operand – transformatsiya uchun asos bo'lgan gap. Qarang. Yadro gap.

Oxirgi (atamal) ishtirokchi – matn qismalarini bo'lganda eng oxirgi mazmuniy bo'lakka bo'linmas qism (*Blumfeld*).

Parataksis – segment birliklar ustiga qo'yilgan va sintaktik birliklarni izohlashga yordam beradigan ustsegment birliklarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi.

Permutatsiya – konstruksiya tarkibidagi lisoniy birliklarning o'rnini o'zgartirish yo'li bilan transformandarlarni hosil qilish qoidasi.

Plerema – mazmun plani birligi, mazmuniy parcha (*Yelmslev*).

Plerematika – pleremalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi (*Yelmslev*).

Privativ zidlanish – qiyosga asos bo‘lgan belgi zidlanuvchi a’zolarning birida bor, boshqasida yo‘q bo‘lgan zidlanish. Masalan, t-d, k-g undoshlari o‘rtasidagi zidlanish privativ bo‘lib, zidlanishga asos bo‘lgan ovoz belgisi zidlanishlarning birinchi a’zolarida yo‘qligi, ikkinchi a’zolarida borligi bilan xarakterlanadi (*Trubetskoy*).

Sema – boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan eng kichik ham shakliy, ham funksional birlik (*Skalichka*).

Semema – morfemaning ma’no tomoni (*Blumfield*).

Sintagma – nutq oqimida biri ikkinchisi orqasidan terilib cho‘ziqlikni hosil qiluvchi nutqiy birliklar bog‘lanishi (*Sossyur*).

Sintagmatik butunlik – ikki va undan ortiq elementlarning o‘zaro bog‘liq munosabatidan tashkil topgan butunlik (*Sossyur*).

Sintagmatik munosabat – lisoniy (lingvistik) birliklarning muayyan bir chuziqqlikdagi ketma-ket munosabat (*Sossyur*).

Sintaktik derivatsiya – hosila gapning asos (yadro) gapdan grammatik maqomi va mazmuni jihatidan farq qiladigan shakliy o‘zgarish.

Sintaktik konstruksiya – tarkibidagi bevosita ishtirokchilarning har qaysisi bog‘liq morfema bo‘limgan til shakli (*Blumfield*).

Sinxron (statik) lingvistika – obyektlarning muayyan bir davridagi turg‘un holatini o‘rganuvchi tilshunoslik (*Sossyur*).

Sodda shakl – boshqa til shakllariga o‘xshamagan shakl (morfema).

Stem (asos) – so‘z o‘zgarishi va yasalishi uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qilgan, ya’ni bog‘liq morfemalarni o‘ziga qabul qiluvchi qism (*Blumfield*).

Struktura –

1. O‘zaro bog‘langan va shartlangan munosabatda bo‘lgan elementlardan tashkil topuvchi butunlik.

2. Munosabat tugunlari (*Yelmslev*).

3. Bevosita kuzatishdan yashiringan va ilmiy-tahlil asosida tiklangan tilning ichki asosi (*Novak*).

Substansiya –

1. Sezgi a'zolari ta'siriga beriluvchi moddiylik (*Sossyur*).
2. Ma'lum shaklning (mohiyatning) bevosita kuzatishda xilma-xil moddiy ko'rinishlari (*Yelmslev*).

Substitut – ma'lum sinfga mansub bo'lgan bir shaklning muayyan bir sharoitda boshqasi bilan almashinib kelishi (*Blumfield*).

Substitutsiya –

1. Ifoda planidagi o'zgarishning mazmun planidagi o'zgarishga olib kelmaydigan munosabat.
2. Konstruksiya tarkibidagi bir lisoniy birlikni boshqasi bilan almashtirish yo'li bilan transformandlarni hosil qilish qoidasi.

Sxema – til birligining sof shakl sifatidagi izohi (*Yelmslev*).

So'z-morfema – bitta erkin morfemadan tashkil topgan birlik. Minimal erkin shakl (*Blumfield*).

Tagmemma – grammatik ma'noli birlik (*Blumfield*).

Taksema – ayn. Fonema (*Yelmslev*).

Tashqi lingvistika – tilning yashiashi uchun zarur bo'lgan tashqi shart-sharoitlarni o'rjanuvchi fan (*Sossyur*).

Terminal zanjir – bevosita ishtirokchilarga ajratish uchun asos bo'lgan har qanday gap zanjiri.

Til –

1. Til egalarining har biri xotirasida mavjud bo'lgan nutqiy faoliyatga kirishish imkoniyati, nutqiy faoliyatning bir qismi (*Sossyur*).
2. Til egalari ongida virtual mavjud bo'lgan grammatik sistema (*Sossyur*).
3. Har qanday lug'at va har qanday sintaktik modellar yig'indisi (*A. Gardiner*).

4. Munosabat tugunlari (*Yelmslev*). Amalda qanday moddiylashishiga bog'liq bo'lmanan sof sxema, sof shakl (*Yelmslev*).

Tilni immanent o'rganish – tilni nolisoniy (fizik, fiziologik, psixologik, mantiqiy, sotsiologik) hodisalar qorishmasi (konglamerati) sifatida emas, balki o'z ichida yopiq bo'lgan bir butun struktura sifatida, o'ziga xos (sue generis) ichki struktura sifatida o'rganish (*Yelmslev*).

Tilni transsident o'rganish – tilni o'zgaruvchan, o'tkinchi, ikkinchi darajali belgilarini nolisoniy hodisalar bilan qorishiq holda o'rganish (*Yelmslev*).

Transform – transformatsiya natijasida hiosil bo'lgan gap.

Transformand – ayni. Transform.

Transformatsiya – yadro gaplardan turli shakliy o'zgarishiar asosida asosiy ma'noni saqlagan holda ikkilamchi sintaktik qurilmalarning hiosil qilinishi.

Transformatsiya qoidalari – transformatsiyani amalga oshirish uchun qo'llaniladigan usullar.

Transformatsiya operatori – operanddan transformni hiosil qiluvchi vosita.

Uzus – til birligining ko'nikmalar birligi sifatidagi izohi (*Yelmslev*).

Figura – mazmuniy eng kichik birlik (*Yelmslev*).

Fonema –

1. Real talaffuz qilinuvchi tovushlar abstraksiyasi (modeli, invarianti) (*Boduen*).

2. Muayyan til nuqtayi nazaridan ketma-ket boshqa mayda fonologik birlikka bo'linmaydigan fonologik birlik (*Trubetskoy*).

3. Ovoz belgisining minimal o'xshashligi (*Blumfeld*).

4. Farqlovchi (relevant) belgilar yig'indisi (*Trubetskoy*).

5. Funksional bo'linmas taksema (*Yelmslev*).

6. Bir jumlani ikkmchisidan farqlash uchun xizmat qiluvchi til ifoda sistemasining minimal birligi (*Glison*).

Fonologik muhim (relevant) zidlanish – ma'lum bir tildagi ikki so'zni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiluvchi zidlanish (*Trubetskoy*).

Fonologik nomuhim (irrelevant) zidlanish – ma'lum bir tildagi ikki so'zni bir-biridan farqlash uchun xizmat qilmaydigan zidlanish (*Trubetskoy*).

Formant – so'zning qismini tashkil etuvchi bog'liq shakl (*Blumfield*).

Funktiv – Tobe munosabat a'zolari (*Yelmslev*).

Funksional lingvistika – tahlil jarayonida lisoniy birliklarning strukturasini bilan birga, vazifasiga e'tiborni qaratuvchi struktur tilshunoslik tarmog'i.

Funksiya –

1. Tahlil uchun shart-sharoit taqozo etgan bog'liqlik (*Yelmslev*).
2. Lisoniy birlik vazifasi (*Trubetskoy*).
3. Lingvistik birliklar o'rtaqidagi tobe m u n o s a b a t (*Yelmslev*).

Shakl – sof munosabatlar strukturasi, sxema (*Sossyur*).

Ekvipotent (teng qimmatli) zidlanishi – zidlanuvchi a'zolarning har ikkisi mantiqan teng bo'lgan zidlanish. Masalan, opa-singil, ota-onalar zidlanishi (*Trubetskoy*).

Ekzosentrik konstruksiya – gap shaklida ifodalangan sintaktik konstruksiya (*Blumfield*).

Ellipsis – yadro gap tarkibidan ayrim elementlarni soqit qilish yo'li bilan transformandlarni hosil qilish qoidasi.

Empirik metod – tildagi deduktiv bosqichlikni (iyerarxiyani) o'rganish uchun qo'llaniladigan metod.

Empirik tamoyil – matnni uch xil talab asosida:

- 1) ziddiyatlardan holilik;

- 2) tavsifning to‘liqligi;
- 3) soddalik, o‘rganish (*Yelmslev*).

Endosentrik konstruksiya — birikmani uning yetakchi qismi bilan almashtirish mumkin bo‘lgan konstruksiya (*Blumfield*).

Episemema — tagmemaning ma’no tomoni (*Blumfield*).

Erkin almashinish distributsiyasi — bir xil qurshovda ikki elementning biri ikkinchisi o‘rnida kelib, ma’noni o‘zgartirmaydigan munosabat.

Erkin morfema — jumla bo‘lib kelish imkoniyatiga ega bo‘lgan shakl (*Blumfield*).

Erkin shakl — boshqa shakllardan alohida qo‘llanuvchi shakl (*Blumfield*).

Yadro gap — sodda, yig‘iq, darak gap.

Qiyoslash uchun asos — ikki zidlanayotgan a’zolar uchun zidlashga asos bo‘lgan belgi.

Qiymat — bir birllkni ikkinchi birlikka nisbatlash orqali namoyon qilinadigan ma’noning tarkibiy qismi (*Sossyur*).

Qurshov — elementlarning qurshovi.

Qo‘sishimcha distributsiya — bir xil qurshovda ikki elementning biri ikkinchisi o‘rnida kela olmaydigan munosabat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики. — М., 1966.

Амирова Т.А., Ольховиков Б.А., Рождественский Ю.В. очерки по истории лингвистики. — М., 1975.

Березин Ф.М. История лингвистических учений. — М., 1975.

Блумфилд Л. Язык. — М., 1968.

Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Т. II. — М., 1963.

Брендаль В. Структуральная лингвистика. — В кн.: В.А.Звегинцев. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. — М., 1960.

Вахек Й. Лингвистический словарь Пражской школы. — М., 1964.

Гардинер А. Различие между «речью» и «языком». — В.А.Звегинцев. История языкознания XIX—XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. — М., 1960.

Ельмслев Л. Язык и речь. — В.А.Звегинцев. Yuqoridagi kitob.

Ельмслев Л. Метод структурного анализа в лингвистике. — В.А.Звегинцев. История языкознания.... II. — М., 1960.

Ельмслев Л. Можно ли считать, что значение слов образуют структуру. — Новое в лингвистике. II. — М., 1962.

Ельмслев Л. Понятие управления. — В кн.: В.А. Звегинцев. История языкоznания.... II. — М., 1960.

Звегинцев В.А. Глоссематика и лингвистика. — «Новое в лингвистике». I. — М., 1960.

Звегинцев В.А. Язык и лингвистическая теория. — МГУ, 1973.

Исаченко А.В. Трансформационный анализ кратких и полных прилагательных. — Сб. «Исследования по структурной типологии». — М., 1963.

Кацнельсон С.Д. Порождающая грамматика и принцип деривации. — Сб. «Проблемы языкоznания». — М., 1967.

Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. — М., 1979.

Коэн М. Современная лингвистика и идеализм. — ВЯ, 1958, № 1.

Лешка О. К вопросу о структурализме. — ВЯ, 1963, №5.

Матезиус В. Куда мы пришли в языкоznании. — В кн.: В.А. Звегинцев. «История языкоznания...», с. 90.

Седов К.Ф. Дискурс и личность. — М., 2004.

Скаличка В. Копенгагенский структурализм и «Пражская школа». — В кн.: В.А. Звегинцев. История языкоznания XIX—XX вв. в очерках и извлечениях. Ч. II. — М., 1960.

Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. — М., 1957.

Соссюр Ф.де. Курс общей лингвистики. — «Труды по общему языкоznанию». — М.: «Прогресс», 1977.

Тезисы Пражского лингвистического кружка. — В кн.: В.А. Звегинцев. «История языкоznания...» — М., 1960.

Трубецкой Н.С. Основы фонологии. — М., 1960.

Хансен К. Пути и цели структурализма. — ВЯ, 1959, №4.

Холодович А.Л. «Курс общей лингвистики» Ф.де Соссюра. — Ф.де Соссюр. Труды по языкознанию. — М., 1977.

Хомский Н. Синтаксические структуры. — Новое в лингвистике. II. — М., 1962.

Храковский В.С. Очерки по общему и арабскому синтаксису. — М., 1976.

Хэррис З.С. Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре. — Новое в лингвистике. II. — М., 1962.

Шаумян С.К. Теоретические основы трансформационной грамматики. — Новое в лингвистике. II. — М., 1962.

Эшби У.Р. Введение в кибернетику. — М., 1967.

M U N D A R I J A

So'z boshi.....	3
An'anaviy va struktur tilshunoslik munosabatlari masalasi	6
Struktur tilshunoslikning poydevori.....	12
Yosh grammatikachilar maktabi.....	16

Boduuen de Kurtenening lingvistik konsepsiysi

I. A. Boduuen de Kurtenening falsafiy qarashlari.....	20
Boduuen de Kurtenening tilshunoslikka qo'shgan xizmatlari.....	21
F.de Sossyur – struktur tilshunoslikning asoschisi.....	26
Nutqiy faoliyat.....	30
Tilning sistema ekanligi.....	34
Tilning belgilari sistemasi ekanligi.....	35
Lingvistik belgining erkinligi.....	40
Lingvistik belgi ifodalovichisining ketma-ketligi.....	41
Lingvistik belgining o'zgaruvchanlik va o'zgarmasligi.....	42
Lingvistik qiymat tushunchasi.....	44
Lingvistik munosabatlar.....	47
Sintagmatik munosabat.....	48
Sintagmatik butunlik.....	49
Assotsiativ munosbat.....	50
Sinxroniya va diaxroniya.....	51

Praga strukturalizmi

Praga lingvistik maktabida grammatika masalalari.....	65
Praga lingvistik maktabida fonologiya va morfonologiya masalasi.....	68

Tovushlarning ma'no farqlash funksiyasi haqidagi ta'lilot.....	69
A. Zidlanish sistemasiga ko'ra zidlanish turlari.....	72
B. Zidlanish a'zolari o'rtaсидаги муносабатга ко'ра zidlanish turlari.....	74
D. Zidlanuvchi a'zolarning ma'no farqlash kuchiga ko'ra zidlanish turlari.....	75

Glossematika

Empirik tamoyil.....	80
Invariant-variantlilik.....	82
L.Yelmslevning til va nutq zidlanishi haqidagi qarashlari.....	87

Amerika strukturalizmi

Distributiv tahlil metodi.....	102
Deskriptiv lingvistikaning tahlil metodlari.....	102
Bevosita ishtirokchilar metodi.....	107
Transformatsiya metodi (TM).....	113

Strukturalizm tarmoqlari o'rtaсидаги умумий va farqli jihatlar

Strukturalizm maktablarining umumiy tomonlari.....	120
Strukturalizm maktablarining o'ziga xos jihatlari.....	122

Strukturalizmning sobiq sho'rolar tilshunosligiga ta'siri.....	129
O'zbek tilshunosligiga strukturalizm ta'siri.....	133
Xulosa.....	141
Atamalar lug'ati.....	145
Foydalanilgan adabiyotlar.....	155

ABDULHAMID NURMONOV

STRUKTUR TILSHUNOSLIK:

ILDIZLARI VA YO'NALISHLARI

Oliy o'quv yurthari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir Xudoyberdi Po'latxo'jayev
Badiiy muharrir Shamsiddin Ho'jayev
Musahhih Bahodir Tuyoqov

Bosishga ruxsat etildi 22. 10. 2009. Bichimi 60×84'/₁₆. Tayms TAD garniturasи.
Shartli b.t. 9,30. Nashr b.t. 8,55. Adadi 1000 nusxa. Shartnoma № 8—2009.
Buyurtma № 106.

«Ta'lif» nashriyoti. Toshkent, Ya. G'ulomov ko'chasi, 74- yu.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100206, Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1- yu.